

Journal of New Century Innovations

VOLUME

15

ISSUE-3



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



Google
Scholar



newjournal.org



**JOURNAL OF NEW CENTURY
INNOVATIONS**

VOLUME - 15 | ISSUE - 3

OCTOBER - 2022



ВЛИЯНИЕ ПРОЛАКТИНА НА МЕНСТРУАЛЬНЫЙ ЦИКЛ*Ходжаева Н.А.**Ташкентский Педиатрический Медицинский Институт**Кафедра нормальной физиологии и фармакологии**Научный руководитель – Камолова З.М.*

Введение. В последнее время, по статистическим данным, нарушение менструального цикла или вообще отсутствие его встречается много среди женщин, особенно среди незамужних девушек. Процессы нарушения связаны не только с половым созреванием, но и с гормональной дисфункцией. По статистике 70% гормонально-менструальных нарушений связано с повышением пролактина в крови, т.е. гиперпролактинемией. Среди пациентов с жалобой нарушения менструального цикла было обнаружено повышение пролактина, стресс, бессонница.

Цель: Рассмотреть влияние пролактина на менструальный цикл, изучить причины проблем среди женщин и девушек.

Материалы и методы: Пролактин – это гормон который воздействует на репродуктивную функцию, лактацию, метаболизм, на молочные железы и на зрение. В норме у не беременных и не в периоде лактации женщин пролактин составляет 4.79-23.3 нг/мл. У беременных, особенно на третьем месяце пролактин значительно повышается до 470 нг/мл. После родов, на первом месяце лактации пролактин чуть снижается. Одним из важных открытий в 1970 году нейроэндокринологии было выделение чистого пролактина из ткани гипофиза. Все следующие исследования были посвящены на роль пролактина в организме и участии патологических, физиологических менструально-репродуктивных функции. После открытия циркадианного осциллятора и секреции гонадотропных гормонов, стало известно, что секреция пролактина чётко выражается на лютеиновой фазе в связи секреторных импульсов гонадолиберина. В периоде менопаузы пролактин не меняется. Гиперпролактинемия – это повышение пролактина в крови. Обычно пролактин повышается в беременности, при лактации в результате того что выделяется молоко. Если его уровень повышен вне вышеперечисленных случаях, тогда отмечается гиперпролактинемия. Нарушение менструального цикла является основными симптомами гиперпролактинемии. Кроме этого повышение пролактина у женщин приводит к : риску развития мастопатии, кисте молочных желез, понижению метаболизма, влияет на кожу, приводит к ожирению.

Результаты: Нарушение менструального цикла тесно связано с гиперпролактинемией. Применение производных бромэргокриптина в

клинической практике показало, что после употребления их уровень пролактина нормализовался и восстановилась менструальная функция. Результаты исследования показали что при повышении пролактина цикл становится нерегулярным, нарушается процесс образования яйцеклеток, снижается выработка ФСГ. Эти изменения в конце концов приводят к бесплодию.

Выводы: Гормональные нарушения, нерегулярность менструального цикла встречается среди населения разного возраста. Прежде чем их лечить, нужно постараться предотвратить эти нарушения. Чтобы уровень пролактина не повышался каждой женщине следует избавиться от психоэмоциональных стрессов и физических нагрузок. Только при этом мы можем дать будущему зрелое и здоровое поколение.

«MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION
YONDASHUV ASOSIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH USULLARI»

Yuldasheva Maxsudaxon Yusubovna

*Asaka pedagogika kolleji uslubchisi,
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisi,*

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida multimediya vositalaridan foydalanish usullari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: multimediya vositalari, maktabgacha ta'lim, innovatsiya.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, tabir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning yaqinda matbuotda e'lon qilingan 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasizdir. Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oila, so'ngra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. MTTlarda multimediya texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, texnologiyalarini joriy etish jarayonida bolalar yoshini hisobga olish va mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim jarayonida bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanishi

va barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Demak, biz innovatsion yondashuvni maktabgacha ta'limdan boshlashimiz zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risidagi PQ-4312-sonli Qarorida ham qo'yidagicha belgilab berilgan: Maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.



Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir.

Darhaqiqat, kelajakda davlatimizni butun dunyoga tanitish va buyuk davlat qurish hozirgi o'sib kelayotgan yoshlar qo'lga o'tadi. Shu sababli, ular yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib voyaga yetmoqlari muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki faqatgina mukammal ta'lim

tizimigina mamlakatimizning kelajagini rivojlantiruvchi, uni gullab yashnashi uchun harakat qiluvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil fikr va mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z kasbini sevadigan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini innovatsion faoliyatga o'tkazishni eng avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tatbiq qilish lozimdir. Chunki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, bolalarni har tomonlama yetuk va ijodkor, vatanni sevuvchi, bilimli va ilmi qilib tarbiyalash albatta maktabgacha ta'lim tashkilotining zimmasiga tushadi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda, ularni maktabga tayyorlashda innovatsion multimediyaga texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rnini innovatsion jarayonlar egallamoqda. Innovatsiya o'z nomi bilan yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Shu boisdan ham ta'lim va tarbiya jarayonida yangiliklarni kiritishning o'rnini beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashda multimediyaga texnologiyasidan foydalanishning tub mazmuni, multimediyaga asoslangan kompyuterli ta'lim bo'lgani uchun, birinchi navbatda tahlilni kompyuterning ta'lim jarayoniga kiritib kelishidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga insegratsiyasi ta'lim sohasida nafaqat yangi imkoniyatlarni ochdi, balki o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda yuqori sifatga erishishni ta'minlashni taqozo etmoqda. Bundan kelib chiqqan holda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, bunda, albatta ta'lim sohasida erishilgan boy tajriba, progressiv ilmiy texnik yutuqlar, zamonaviy ta'limiy, axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanish lozim. Bugungi kunda chuqur bilimga ega, yetuk malakali maktabgacha ta'lim tarbiyachisidan o'quv materiallarini bolalarga yetkazishning eng qullay, ratsional usullarini topishi, bu yo'nalishda ijodiy yondashish bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib topishiga e'tibor qaratilishini talab etadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonini multimediyaga vositalari asosida tashkil etishda alohida ahamiyat berilyapti. Multimediyaga vositalariga birinchi navbatda, elektron darsliklar kompakt disklar, video-audio tasmlar, turli taqdimotlar kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi masalalardan yana biri ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga mos ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularni o'rganish, texnologiyalarni tatbiq etishda bolalar yoshini hisobga olish va mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga pedagogik va

psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish kabi jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Hozirgi davrda multimediya atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalari ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan: multimediya texnologiyasi; multimediya mahsuloti; multimediya kompyuteri; multimediya dasturi va boshqalar shular jumlasidandir. Multimediya bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida mantli, tasviriy axborotni tovush va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Multimediya tasvirli ma'lumot bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. Multimediya kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarini ta'lim-tarbiya jarayonida multimediya texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati juda kattadir. Ta'lim va tarbiya jarayonida multimediyali texnologiyalardan foydalanishda elektron darsliklar, qo'llanmalar va metodik ishlanmalar, taqdimotlardan foydalanish umumli natija beradi. Multimediya vositalari psixologik jihatdan bolalarning faollashuvi, diqqatining barqarorlashishi, bola miyasining ikkala yarim sharining bir vaqtda ishlashi, o'rganiladigan materialga qiziqishlari va ishtiyoqining ortishi kabi psixologik jihatlarni tashkil etadi. Kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlaridan foydalanishning nazariy masalalari va pedagogik, psixologik jihatlari yangicha texnologik yondoshuvda asoslab berildi. Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha

yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 maydagi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risidagi PQ-4312- sonli Qarori.
2. Sh.Fayzullaev. Islohotlar samarasi: tajriba, malaka, texnologiya Maktabgacha ta'lim jurnali.T.,2018yil,12-son.
3. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G., Shodiev R.R. Axborot texnologiyalari. T.: O'qituvchi

THE BENEFIT OF ONLINE LEARNING

Zulfiya Yusupova Alisherovna

Faculty of Turism Chirchik state pedagogical university

Uzbekistan, Chirchik

Abstract

Onlayn o`rganish hozirda mamlakatimizda ommalashib bormoqda va shu bilan birgalikda zamonaviy metodlardan biridir. Fikrga qo`shimcha qilgan holda onlayn o`rganishning foydasi yaxshi tajriba va turli xildagi fikrlarni tez va oson o`rgana bilish demakdir.

Abstract

Online learning is popular in our country, moreover that is a modern method. In addition to the opinion, the advantage of online learning is good experience and the ability to learn different ideas quickly and easily.

Keywords: internet sources, benefit, knowledge, types, save time, skill, global knowledge, budget, comfortable learning.

INTRODUCTION

To my knowledge online learning is interesting and effortless, that's why at the present time it is popular in all countries, demand, and desire are strong. From this topic you will know about online learning and also you will be able to get different, new, modern methods and knowledge, and through this topic, you can get information about the benefits and harms of online learning, and at the same time, you will get many opinions. Through this topic, I hope that you will get answers to your questions about the benefits of online organization, whether it is possible to learn, whether it is necessary to have enough knowledge for this.

METHODS

Online learning has become a widespread and modern method of learning among all countries as a result of now the world is developing, there are many modern technology, internet sources, and news, and at the same time, these modern technologies are also popular in our country. By reason of you will get the necessary and fast knowledge during online and it is a very useful way of learning in which you will be able to see many useful points online. Moreover, in online learning have 2 types: one of this is studying independently from the internet sources, and other is learning online with teacher which by enrolling in online classes. In addition to these 2 types, now we will learn about the benefits of online streaming, as you know while learning online you could:

- ✓ Save your time

- ✓ Acquire comfortable learning
- ✓ Developing technical skills
- ✓ Stretching your training budget
- ✓ Taking global knowledge
- ✓ Quick and easy solution
- ✓ Relearning anytime
- ✓ And studying anywhere.

If you are one of the 2 types, as I said before you can determine your path, that is, your type, based on the directions that suit you. And let`s talk this ways in our results.

RESULT

During online learning, you should save your time, and during this you can learn the necessary information at that time, you can learn while you are busy with other work. But this will not give much result; maybe your mind will be distracted. I will give my thoughts based on the above mentioned opinion. Self-study is for whom, and what should you pay attention to in this study. In this direction, you need to be at the specified level, that you can understand, which means that you can do self-study with an elementary level. Because you will have many questions and no one will be able to answer them for you, and from this your level become good, that is, if you are an intermediate or pre-intermediate, you can learn online without any difficulties. As a result of you know the answer to the question that needs to be asked. With this degree, you are self-studying, and in this direction, you save your time first, wherever you want, you can learn different places for instance in the garden or in the library, you can easily play through headphones. And in addition, during the study, you will take various news and knowledge and you can organize it as a new teaching method for yourself.

The 2nd method of online organization is to **enroll in an online course** or an online course, in which no level is required of you. You can organize it with the desired level of knowledge because the person who will teach you is clear and you will be able to ask any questions and taking that answers quickly and easily I think this is very useful for beginners. As you know, it is very expensive to learn with an beginner level this way you will save your money as well as your valuable the time you spend getting organized may pass on the way. For example, you can watch online lessons again and again and each time you watch it, you will have fewer questions. In addition, what I want to say is that it is more convenient for you to study online.

INTRODUCTION

Through this topic, you need to know how modern and popular online organization is and find out what type of online learner you are. You know that online learning can be very difficult or even incomprehensible but after getting acquainted with the ideas presented above, you will understand and if you can quickly and easily

get on your way by choosing the way to learn quickly, this direction will definitely benefit you. I could say clearly that in the future, online methods will continue to develop and become popular, and the methods will change and improve.

USED LITERATURE

1. Book Cover of Wayne Journell - Online Learning: Strategies for K-12 Teachers OA Beginner's Guide to Online Teaching for Teachers and
2. Students. Get the Best from Distance Learning and Teaching with Google and Learn How to Manage Virtual or Blended Classrooms (Kindle Edition)online Learning Strategies for K-12 Teachers (Kindle Edition)
3. https://yandex.ru/images/search?from=tabbar&text=benefits%20online%20learning&pos=2&img_url=http%3A%2F%2Fprismatic.com%2Fwp-content%2Fuploads%2Fblog%2F5-benefits-mobile-education1.jpg&rpt=simage&lr=114900
4. https://yandex.ru/images/search?from=tabbar&text=benefits%20online%20learning&pos=0&img_url=http%3A%2F%2Fogburnonlineschool.com%2Fwp-content%2Fuploads%2F2019%2F12%2Fonline-school-benefits.jpg&rpt=simage&lr=114900

IMPROVING ENGLISH PRONUNCIATION BY IMITATING NATIVE SPEAKERS

Shakhnoza Otakulova Xusniddin qizi

Faculty of Tourism Chirchik state pedagogical university

Uzbekistan, Chirchik

Abstract

This topic contains ideas on how to improve pronunciation and make it beautiful. Through this topic, you will learn how to achieve quick and easy result. We know that everyone's ability to speak is different, but this is definitely a problem when learning other languages, that is, it more often than not encourages correct pronunciation. Therefore, I would like to highlight my broader and many experiences and learned and concluded thoughts on this topic.

Abstract

Biz ushbu mavzu orqali talaffuzni qanday yaxshilash va uni chiroyli qilish bo'yicha fikr va tajribalarni bo'lishish istagidamiz. Bu mavzu orqali siz qanday qilib tez va oson natijaga erishishni o'rganasiz. Biz bilamizki, har bir kishi o'z talaffuz qilish qobiliyatiga ega, lekin bu boshqa tillarni o'rganishda muammo bo'lishi mumkin. Shuning uchun men ushbu mavzu bo'yicha o'zimning kengroq va ko'pgina o'rgangan va amal qiladigan tajribalarimni va o'rgangan fikrlarimni ta'kidlamoqchiman.

Keywords: Imitate, Opinion, Learner, Pronunciation, Listening, Watch, Practice, Find, Song, Dictaphone, tone, attention

INTRODUCTION

Our country is very interested in learning foreign languages. As a real our phonetics can adapt to all foreign languages that is why other pronunciations of other languages does not cause us difficulties. Let's talk about the language that is much studied and in high demand in our country. As you can guess, we will talk about English so we know that there are many English learners in our country and the percentage is very high and I think this is a good result, too. In addition, there are many difficulties in learning English, which requires good skills in grammar, correctly spelling, and learning words and of course the ability to pronounce words in English.

In this topic, we will focus on pronunciation, because pronunciation is one of the most pressing problems in our society. That's why we will try to solve these problems.

METHODS

It is a fact that there are many different ways to learning language and also many ways to improve pronunciation. To me it should be considered one of the big problems

of how to make the pronunciation fluent. Let me tell you a few examples based on the experience and support of many people.

- Listening to own voice from Dictaphone.
- Working hard with transcripts.
- Imitating someone whose pronunciation well to repeat.
- Watching English movies with subtitle and try to speak same way.
- Singing loudly.
- Speaking slowly, you should listen carefully yourself.
- Finding a friend whose language is native English.
- Reading many books loudly.

RESULT

I would like to share my opinion based on the above experiences.

Listening to own voice from Dictaphone It is clear that these experiences can help, especially listening to own voice. Correcting pronunciation by listening to own voice is one of the easiest ways in my opinion. It's good to record your own voice because you can hear your mistake and try not to repeat it next time.

Working hard with transcripts

Working with the transcript will benefit the ability to read and write, and in addition, it will help to understand how to read correctly.

Watching English movies with subtitle and try to speak same way Another idea is that watching movies and series with subtitles it can help to increases the speed, and the eyes move quickly and you will try to pronounce faster.

Singing loudly

It is also useful if you learn to with a song that you understand and can repeat, that is, the words are easier to pronounce. And then, you should turn up the song and start singing the spoon together loudly, as a result, your voice become loud and clear begins to grow. It is necessary to turn this training into a daily activity, not just once; only then the result will be good. Speaking slowly, you should listen carefully yourself. In this case, you have to prepare on a certain topic and start speaking in front of a mirror or in an empty room. Even if you take your time, the ability to think will also help improve pronunciation, that is, you will practice speaking, and at the same time, your language itself will be corrected during repetition.

Finding a friend whose language is native English. And besides, the easiest and fastest way to improve pronunciation is to find an English friend somewhere on the Internet or training courses. You will get-together with this human. In this way, you can pick up pronunciation and communication, that is, your friend will teach you how to speak like a real Englishman and how to pronounce it. At the same time, it is more useful to talk to a friend who speaks English because you will try to communicate with him. As a result are you have a good command of this conversation.

Reading many books loudly I would like to add to the above points that reading a book is also useful, it is true that you can make many mistakes and challenging while reading a book, but it can be corrected. For example, while reading you should use a marker or a sticker and write the word you can't pronounce. And you should look for how to pronounce this word then you write the correct pronunciation next to it, and in this way you correct your mistake and learn a new word. You will be reminded every time when you open the book. There are 2 ways to improve: recall and thought. Nevertheless, what I like the most among these experiences is imitation. To my knowledge, imitating someone who is native speaker, it is more effective because of that you can learn more true way improving your skill. While listening speaker's speech you can analyze, understand, your problem. And at that time you will try to correcting speaking tone and other wrong ideas. Moreover, during learning you could cost- effective where you did mistake. To imitating someone you should choose who have fluent pronunciation. We mainly focusing on imitating are beneficial or not.

Last but definitely not list at my own pace what I mean by these thoughts is that when learning English, one of the main things a learner should pay attention to pronunciation, because if you can't speak clearly and fluently during learning, there's no point in learning because the listener and the people around you can't understand what you're saying, and this knowledge will not do you any good. What I want to say with this opinion is that you will not be able to fulfill your demands and wishes because you cannot teach anyone anything with a bad pronunciation because the learner will not understand you. Therefore, you need to focus on pronunciation.

USED LITERATURE

1. Barbara R. Christopher A. Warnasch. Fluent English.
2. Charles Hooton. IELTS speaking masterclass.
3. <https://englishlive.ef.com/blog/language-lab/10-tips-perfect-english-pronunciation/>
4. <https://www.mmmenglish.com/2016/03/21/lesson-1-speak-english-clearly-the-imitation-technique/>
5. <https://in.pinterest.com/pin/647392515170805099/>

ORGANIZATIONAL - EDUCATIONAL GAMES

Munajat Abdurasulova Abadovna

Faculty of Turism Chirchik state pedagogical university

Chirchik, Uzbekistan

Abstract

Tashkiliy-tarbiyaviy o`yinlar orqali biz bolalarga yaxshi, sifatli, va shu bilan birgalikda esda qolarli bilimlar bera olamiz va albattaki bu tarbiyaviy o`yin bo`lgani uchun bilim orqali tarbiya ham rivojlanishi mumkin bo`ladi. Bu mavzu orqali biz bolalarni intizom, tarbiya, ketma-ketlik qoidasiga rioya qilish va albatta talim darajasi yuqoriga ko`tarilishi haqida ayta olamiz.

Abstract

In this topic, we can reveal that through organizational-educational games during playing the games we can give children good knowledge, high-quality, and at the same time memorable ability, and of course, we can teach the children good behavior while playing. Through this topic, we can teach children about discipline, upbringing, following the rule of sequence and of course, raising the level of education.

Keywords: games, kids, organizational, education, benefits, numbers, method, child, group, show, creative.

INTRODUCTION

At present time, our education has become stronger, so many innovations are being made in this regard, so many educators and teachers are approaching educational and organizational games a lot. Through this topic, we are giving ideas about organizational-educational games mainly for kindergarten and primary classes, and through these games, we can develop young children to expand the scope of learning and at the same time to understand science, the latest news, in a way that is quick and easy to remember. In addition, it was reported that it is effective not only for kindergarten and elementary school students, but also for senior classes.

METHODS

There are many games in the educational world but we would learn organizational and educational games for children. The main idea from this topic we should describe about the benefits is it good for child and their ability. Let`s talk about the different games for useful for child and also for everyone who really want to teach with games. As I said before there are many useful experience and if we talk about what can we do with game for instance we could work with group, and then they will learn fast, answer carefully, fasting, right hand. If we give the examples for games there are:

- ❖ Find words with dancing
- ❖ Clapping numbers
- ❖ Find a words with definition
- ❖ Matching game
- ❖ Can you touch...?

While playing these games, you can give children good knowledge and memorable knowledge, and at the same time, you will increase your own method. In addition, if you want, you can rework these games for children of each level, changing their design.

RESULT

From this topic I am writing my own experiences. During studying of the necessary methods for teaching through this topic, I realized that through organizational-educational games you can make your lesson more interesting and understandable. If I give an example from the above, if you need to pass the subject to the primary 2nd or 3rd grades, but the level of understanding and comprehension is lower, and at the same time, the comprehension is slower and of course there are students who are lazy. What can you do in this process? You will definitely come up with something to interest the child, and educational and organizational games will help you. For example, if you want to teach numbers in English and it's challenging, you should try one of the above games, for instance **Clapping numbers**, this game is suitable for all types of classes, especially for young children. And you can work together with the whole group at once. Let me introduce you to the terms of the game. In this game, you bring the whole group into a circle and show them yourself to check their attention. This is a very interesting and wonderful game. Before that, you should give examples of numbers on the board or in each child's hand so that the child does not get lost. The game starts; each child claps one by one and says a number. Only the numbers came with 3 this pupil should clapped without saying. You can continue to play until the numbers are memorized, because the child will never get bored of this game.

In addition, also you can use another game as a first game; the name of this game is **Can you touch...?** Taking the above given game as an example, this game is a very interesting too, you can use this activity for primary classes and older classes and in this game you ask the children to find body parts or different objects on the table, through this game you will be able to memorize words in English. This game can be changed and adapted to different topics, for example, as I mentioned above, you can use the theme body parts, school things, kitchen items, colors, shapes, jobs name and based on your own opinion. Through this game, the child is interested in the subject, tries to learn words and tries not to lose to his classmates in this game, and you know that the children actions are important.

CONCLUSION

At the end of my opinion, I would like to say that in order to make the lessons interesting and take child's interest in the lesson; you must be creative during the lesson. At the same time, you will need to use many interesting and necessary methods during the lesson. In this case, you will definitely turn to educational organizational games, with these games, your lesson and method will be interesting and understandable. Therefore, my advice to you is that when you choose games, you should choose them not only for the same level, but for students of all levels. In this way, you will also get your time and of course the children's interest, because easy and understandable games are equally liked by everyone.

USED LITERATURE

1. Beginners` Communication Games. Jill Hadfield.
2. Songs and Games for children. David Paul.
3. <https://www.howwemontessori.com/how-we-montessori/2020/05/how-we-use-the-feel-and-find-game.html>
4. <https://www.sparklebox.co.uk/previews/7026-7050/sb7049.html>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI TARMOQLARIDA INNOVATSIYANING MOHIYATI, ROLI VA AHAMIYATI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Real iqtisodiyot” kafedrası i.f.d. prof. Shadiyeva G.M.
IK-421 guruh talabasi Egamova D.A.

Annotatsiya: Maqolada innovatsiyalar ta’rifi ularning iqtisodiy mohiyati ochib beriladi hamda transport sohasi uchun muhim bo’lgan tasnif beriladi. Transportda innovatsiyalarning roli va ahamiyati aniqlangan. Transport tashkilotlarining innovatsion muhitining tarkibiy qismlari, xo’jalik subyekting innovatsion salohiyati, shuningdek korxonalarda innovatsiyalarni faol joriy etishga to’sqinlik qiluvchi omillar yoritilgan. Transport tashkilotlari uchun eng katta moliyaviy va iqtisodiy ta’sir ko’rsatilgan innovatsion faoliyat yo’nalishlari berilgan.

Kalit so’zlar: innovatsiya, transport sohasi, innovatsion salohiyat, innovatsion muhit, innovatsion jarayon

Jamiyatning rivojlanishining hozirgi bosqichi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik sohalarda ro’y berayotgan o’zgarishlarning sezilarli sur’ati va ko’lami bilan tavsiflanadi. Globallashuv jarayonlari, kuchli raqobat va biznesni xalqarolashtirish jarayonlarining rivojlanishini belgilovchi iqtisodiyotimiz, korxonalar, tashkilotlarning rahbarlarini, ularning sohaga qay darajada bog’liqligidan qat’iy nazar, ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirish, tashkilotni boshqarish, kadrlarni malakasini oshirish kabi muammolarni hal qilish asosiy vazifalardandir.

Innovatsion jarayonlar umuman korxonalarni, shuningdek kompaniyalar ichidagi alohida bo’linmalarni qamrab oladi. Kompaniya rahbarlari, bir martalik yoki doimiy jarayonlarga yo’naltirilgan bo’lishidan qat’iy nazar, yangilanish takomillashtirish jarayonlariga doimiy e’tibor berishadi. Shu munosabat bilan innovatsiyalarning korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy holatiga ta’sirini baholashga bo’lgan yondashuvlarni ko’rib chiqish muammolari hisoblanadi.

Avtotransportni rivojlantirishda innovatsiyalarni joriy etish har oim katta ahamiyatga ega bo’lgan. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarning roli sezilarli darajada oshmoqda. Ular tobora iqtisodiy o’sishning asosiy omillariga aylanmoqda. Innovatsiyalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati uning mazmuni va samaradorligi MDH olimlaridan V.G.Medinskiy, G.Sharshukova, R.G.Molodtsova, R.A.Fatxutdinov, V.A.Borodinlar, hamda innovatsion investitsiyalashtirishning ayrim jihatlari O’zbekistonlik olimlarimizdan A.V.Vaxabov, T.P.Narziyev, N.G.Muminov va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

O`zbekistonda avtomobil transporti tizimining mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi o`rnini baholash, uning faoiyati samaradorligini oshirish masalalari bo`yicha izlanishlarni quyidagi mamlakatimiz olimlari amalga oshirgan G`.M.Samatov, G`.M.Qosimov, M.A.Ikramov kabi va boshqa olimlarni kiritish mumkin.

Biroq, transport tarmoqlaridagi innovatsiya jarayonlari ilmiy-amaliy masalalari, xususan raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar, ularni moliyalashtirish manbalari, samaradorligi bilan bog`liq holda yetarli darajada o`rganilmagan.

Jahon iqtisodiy adabiyotida “innovatsiya” potensial ilmiy va texnologik taraqqiyotni yangi mahsulot va texnologiyalarni o`zida mujassam etgan haqiqatga aylantirishdir deb talqin qilinadi.

Jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o`shish samaradorligini ta`minlash uchun bozor talabidan kelib chiqqan holda joriy etilgan yangilik innovatsiyalardir. Bizga ma`lumki inson intellektual faoliyati, uning kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorlik fanzasiyasi, ijodiy jarayonining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz shuningdek, xorij olimlari tomonidan “Innovatsiya” tushunchasiga ko`plab ta`riflar berilgan. Bir guruh xorijlik olimlar (I.Perlaki, Y.Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo`llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi va boshqalar) bu so`zni o`z tadqiqotlarining obykti va predmetidan kelib chiqib turlicha talqin qilganlar. Y.Shumpeter innovatsiya tushunchasini, uni iste`mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va texnik vositalar, bozorlar tashkil shakllarini nsanoatga tadbiq etish va ularda foydalanish maqsadidagi o`zgarish sifatida talqin etgan holda kiritgan. Y.Kuk va P.Mayerslar “innovatsiya g`oyaning paydo bo`lishidan uning tayyor mahsulotga aylanib, bozor iste`moliga chiqqunga qadar bo`lgan butun jarayon” deb ta`rif berishgan.

M.Dodgsonning ta`kidlashicha esa “innovatsiya- bu o`ziga ilmiy, texnologik, tashkiliy va moliyavit faoliyatni mujassam etgan holda tijoratga yangi (yoki takomillashgan) mahsulot, yoki yangi ishlab chiqarsih jarayonini, yoki yangi uskunani taklif etishdir”.

R.A Fatxutdinov innovatsiya tushunchasiga “Innovatsiya ishlab chiqarishning moliyaviy, ma`muriy, tijoratga xos tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy yechimlari, yangilikni yangi texnologiya ko`rinishidagi va mahsulot hamda xizmat ko`rinishidagi daromad hisoblanadi” deb ta`rif bergan.

Fikrimizcha, o`z faoliyatiga doimiy ravishda innovatsiyalar, ya`ni yangiliklar, ixtirolar, yangi texnologiyalar, texnikalar, boshqarish va mehnatni tashkil etishga zamonaviy tizimlarni kiritib, amaliyotga tatbiq etib boradigan faol tadbirkorgina inqiroz domiga tushish va bankrot bo`lish xavfidan holi bo`ladi.

Transportdagi innovatsion jarayonlar rivojlanish ustuvorliklarini aniqlash va innovatsiyalarini boshqarish jarayonini optimallashtirish maqsadida oqilona investitsiyalar, quyidafivha tavsiflanadi:

1. Yangilik darajasi bo`yicha:
 - mutlaq;
 - nisbiy;
 - shartli;
 - xususiy.
2. Innovatsion salohiyat nuqtayi nazaridan:
 - radikal
 - kombinatsiyalangan
 - o`zgartirilgan
3. Innovatsion mahsulotning murakkabligiga ko`ra:
 - oddiy;
 - qiyin;
 - o`zgartirilgan
4. Taraqqiyot yo`nalishlari bo`yicha:
 - ishlab chiqarish
 - ijtimoiy
 - moliyaviy va boshqalar
5. Ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarish iyerarxiyasi darajalari bo`yicha:
 - mahalliy
 - mintaqaviy
 - tarmoqlar bo`yicha
 - ichki firma
6. Qo`llanish sohalari va bosqichlari bo`yicha:
 - texnik;
 - tashkiliy va boshqaruv;
 - axborot;
 - ijtimoiy.

Fikrimizcha, dunyoda innovatsion yuksalishlar davrida iqtisodiyot fanining o`ziga xos sohalarida juda yuqori darajada rivojlanishiga va mamlakatning ko`plab sohalarida va mintaqalarida yaxshi tashkil etilgan innovatsion ishlab chiqarishga ega korxonalar majmuasining mavjudligiga qaramay, innovatsiyalar taraqqiyoti ularni amalga oshirish dinmikasi talab darajasida emas. Buning eng muhim sababi innovatsion faollikning pastligi, xususiy investorlarning ilm-fan rivojiga yetarli darajada mablag`lar kiritishni istamasligidir.

Transport sohasi innovatsiyalariga yo`naltirilgan investitsiyalarning daromadlilik boshqa sohalarga yo`naltirilgan investitsiyalar ko`rsatkichidan ancha yuqori bo`lishiga qaramay, innovatsion faoliyat xavfining yuqoriligi bir martalik xarajatlarning ya`ni an`anaviy texnologiyalarni yaratish va o`zlashtirish xarajatlaridan bir necha yuz baravar ko`pligi, o`zlashtirish davri muddatining uzoqligi (bunda mablag`larni sarflash va kerakli natijalarni olishga ketgan davri ko`zda tutiladi.) bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatning past darajada bo`lishining boshqa sabablariga: ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda davlatning yetarli darajada ishtirok etmasligi; ilmiy xodimlarning kam ish haqi, intellektual mulkning to`liq huquqiy himoyasi va amalga oshirilgan innovatsiyalar uchun moddiy mukofot yo`qligi; markazlashtirilgan "innovatsion muhit"ning yo`qligi bo`lib hisoblanadi. Bugungi kunda korxonaning innovatsion salohiyati moddiy, moliyaviy, mehnat, infratuzilma, intellektual axborot va kommunikatsiya resurslarining majmuasi sifatida izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda transportdan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning yo`nalishlarini quyidagilar deb hisoblaymiz:

- transport va logistika infratuzilmasini rivijlantirish mexanizmini ishlab chiqish;
- transport yo`nalishi infratuzilmasi obyektlaridan iqtisodiy foydalanish variantlarini tanlash usullari va sxemasini ishlab chiqish;
- transport infrastruktura obyektlarini boshqarish uchun me`yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo`yicha tavsiyalar;
- transportda boshqaruvning aqlli tizimlaridan foydalanish bo`yicha tavsiyalar va boshqalar.

Mamlakat transport kompleksining muammolarini hal qilishda tashkiliy, uslubiy va uslubiy innovatsion shakllarini jadaj rivojlantirish; transport kompleksini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga investitsiyalarni moliyalashtirishning maqbul manbalarini tanlash imkoniyatlarini ta`minlaydi deb hisoblaymiz.

Ma`lumki, yaqin vaqtgacha transportda ishlatilgan keng rivojlanish yo`llari transport korxonalaida eskirgan harakat tarkibi ko`payishiga, mavjud ishlab chiqarish va texnik vositalarning samarasiz yuklanishiga, transport xarajatlarining yuqori bo`lishiga va mehnoat unumdorligining pastligiga olib keladi.

So`nggi yillarda, jadal rivojlanish yo`llariga o`tish, ishlab chiqarish va menejmentga innovatsion texnologiyalardan foydalanish, zamonoviy axborot va moliyaviy—iqtisodiy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish bilan tavsiflangan bo`lib, mijozlar ehtiyojini qondirish yaxshilanib bormoqda. Shu munosabat bilan transport kompleksining mulkiy obyektlari va transport va servis infratuzilmasi elementlarining ishinchliligi, xavfsizligi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish alohida ahamiyatga egadir.

Har qanday avtotransport korxonasida innovatsion faoliyat asosiy maqsadga-korxonaning o'zi va iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shodiyeva G.M., Shakirova F.B. iqtisodiyotni raqamlashtirishga transformatsiyalashuvida intellektual mulkni rasmiylashtirishning ayrim masalalari 2021-yil, 5-son, 383-bet.
2. Steuer, J. (1992) Defining virtual reality: dimensions determining telepresence. *Journal of Communication*, 42 (4), pp. 73-93. doi. org/10.1111/j.1460-2466.1992.tb00812.x
3. Shodieva G. M., Pardaeva O. M. Problems of family entrepreneurship developing and increasing employment and income of the population and reducing poverty //Gwalior Management Academy. – T. 23. – C. 210.
4. Bhadouria P. S. GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY //WAY. – T. 87.
5. Shadiyeva G. M., Kuvandikov S. O. "Mahallabay" approach to assessing the role of family entrepreneurship in regional development //Экономика: анализы и прогнозы. – 2021. – №. 3. – С. 122-126. MLA
6. Shadiyeva G. Opportunities to Develop Small Business and Family Entrepreneurship in Rural Areas //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – T. 7. – C. 101-106.
7. Shodieva G. M. Problems of organizational and economic factors and service development in the improvement of family welfare (Doctoral dissertation, Dissertation for the degree of Doctor of Economics. Samarkand). – 2008
8. Mardievna S. G., Boltaevna S. F. The role of public-private partnerships in attracting investment projects in the transport sector //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – T. 27. – №. 6
9. F.B. Shakirova, S.B Sattorova STRATEGY OF ENTERING INTERNATIONAL MARKETS OF" UZBEKISTAN RAILWAYS" JSC INDUSTRIAL ENTERPRISES FBSSB Sattorova - Confrencea, 2022

TRANSPORT SOHASI BOSHQARUVIDA RAQAMLI VA AQLLI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI XUSUSIDA

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Real iqtisodiyot” kafedrasida i.f.d. professor Shadiyeva G.M.
IK-421 guruh talabasi Egamova D.A.*

Zamonaviy axborot texnologiyalari iqtisodiyot va jamiyat hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqdaki, uning ta'sirida mavjud iqtisodiyot va xalqning turmush tarzi o'zgarib bormoqda. Transport sohasining hozirgi va kelajakdagi modernizatsiyasi sifatida transport tashkilotlari va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi turlari va usullarini ishlab chiqish va ulardan keng foydalanishni ta'kidlash joiz. Transport sohasini raqamlashtirilishi transport va logistika xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot tizimlari o'zaro aloqalarning barcha ishtirokchilari uchun yagona axborot makonini yaratish bilan tavsiflanadi. Mamlakatimiz hududining kengligi va eng chekka hududlarning transport xizmatlari bilan qamrab olish zaruriyati transport infratuzilmasini yuqori axborot texnologiyasiga qaramligini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi ПФ-60-sonli [1] Farmonida ta'kidlaganidek, “Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash” vazifasi berilgan.

Transport sohasi boshqaruvida raqamli va aqli axborot texnologiyalaridan foydalanish bir qator foydali funksiyalarini keltirib chiqaradi. Masalan, axborot texnologiyalaridan faol foydalanish tufayli yangi buyurtmalarni qabul qilish, shuningdek, yetkazib berish jarayoni va tovarlarni tashish, omborlarni boshqarish va transport vositalari parki sezilarli darajada tezlashdi. Ushbu jarayonlarning tezligini oshirish natijasida buyurtmani bajarish muddati mijoz nuqtayi nazaridan qisqaradi, qog'oz hujjatlar oqimining kamayishi inson omilining rolini pasaytiradi, bu esa moddiy xarajatlar pasayishiga olib keladi. Mijozlarga tezkor javob berish tufayli iste'molchilar talabi qondirilib, buyurtmalar bajarilishining barqarorligini kafolatlaydi hamda bugungi zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risidagi ПФ-4947-sonli farmoni [2], 2019-yil 25-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida”gi

PQ-4210-sonli [3] qarorining 6-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-sonli [4], farmoni, shuningdek, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, jamiyat va iqtisodiyotning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali raqobarbardoshlikni oshirishning fundamental asoslarini ishlab chiqish.

2. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiyotni raqamlashtirish imkonini beradigan dasturiy ta'minotni yaratish.

3. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiyotni raqamlashtirishning yagona elektron platformasini shakllantirish kabi ustuvor vazifalar berilgan.

Bugun Respublika transport infratuzilmasida bir qator muammolar bo'lib, yo'llar, obyektlar, postlar, logistic markazlar, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, avtostansiyalar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, avtotransport, temiryo'l, havo-yo'lidagi yuk va yo'lovchi tashish to'g'risidagi ma'lumotlarni monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yilmaganligi, aholining jamoat transportidan foydalanish jarayonida hududlar bo'yicha tekis va differensial tarif rejalarining mavjud emasligi, avtotransport infratuzilmasining eskirganligi, shuningdek, ushbu yo'nalish bo'yicha sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish darajasi juda pastligi muhim muammolardan hisoblanadi.

tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi.

Jumladan, «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) qabul qilindi.

Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019 yilda bo‘lib o‘tgan saylovlarda ro‘yxatdan o‘tgan 21 435 000 nafar saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 nafari xotin-qizlardir.

Ushbu saylovlarda ko‘rsatilgan nomzodlarning 41 foizi xotin-qizlar bo‘lib, ularning soni O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30 foizlik kvotadan ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senati a‘zolarining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

Gender tenglikni ta‘minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga mos darajaga etdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.

SHuningdek, O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi a‘zolarining 49 foizini, O‘zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi a‘zolarining 46 foizini, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O‘zbekiston Ekologik partiya a‘zolarining 41 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Islohotlarning barcha bosqichlarida O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi. Aholi daromadlarini tizimli ravishda oshirib borish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalarini, shu jumladan tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash borasida qo‘shimcha kafolatlar berildi.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Tijorat banklari mikrocredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan xotin-qizlar soni bir yilda 45 ming nafarga ko'paydi.

2019 yildan boshlab aholining ish bilan ta'minlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizga etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.R. Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish» (metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1997
Eremeeva V.D. O'g'ilbolalarvaqizlar. Turlixilyo'llarbilano'rgating, turliyo'llarbilanseving. Samara. O'quvadabiyoti, 2005 yil.
2. Kurbatova S. Kitobo'g'ilbolalaruchun, kitobqizlaruchun. "Maktabgachata'lim" 2012 yil 10-son
3. A.Avloniy Tanlangan asarlar 2 jildlik, 2-jild –T.: Ma'naviyat, 1998-yil, 37-bet.
4. Ж.Г.Дусказиева Гендерная психология. учебное пособие Красноярск 2010.
5. Z.Z.Xodjimuratova Internetda umimiy va maxsus dasturlash. o'quv qo'llanma –T.: "Universitet" 2008. 4-bet.

KEKSA YOSHDAGI BEMORLARDA EPILEPSIYANING KLINIKO NEYROFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Murodova Nozanin Bektoshevna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti

Annotatsiya: Epilepsiya tashxisi skleroz yoki nerv -mushak kasalliklariga qaraganda ancha tez, o'n martalab ko'proq uchraydi (Perucca E. va boshq., 2015). Epilepsiya ko'pincha bemorlarning somatik va ruhiy sohalarida og'ir oqibatlarining rivojlanishiga olib keladi, bemorning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklaydi, hayot sifatining pasayishiga, bemorlarning umidsizligiga, stigmatizatsiyasiga, ijtimoiy moslashuvning buzilishiga olib keladi, be esa o'znavbatida tashxisning o'zi va qo'shma psixopatologik patologiyaning og'irligi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: epilepsiya, davolash, muolaja, keksayish, diagnoz.

KIRISH

Insonning keksayishi - bu tananing fiziologik va aqliy funktsiyalaridagi o'zgarishlarning alohida shakli, jismoniy va ruhiy ma'noda hayotni ta'minlash tizimlarining boshqa darajadagi moslashuvidir (Shabalin V.N., 2009, 2016). Nevrologik kasalliklarga chalingan keksa bemorlar soni asta-sekin o'sib bormoqda, bu esa oldimizga keksalar patologiyasini batafsil va chuqur o'rganish vazifasini qo'yadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, keksa bemorlarda epilepsiya bilan kasallanishning hozirgi holati har 100000 aholiga 28 (Angliya) dan 139 ta holatga (Efiopiya) to'g'ri keladi (Ronen GM va boshq., 2003; Benn EK va boshq., 2008; Sillanpaa M. ., 2011). Kexsa yoshdagi epilepsiyaning turli mualliflar tomonidan o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlari kasallik ko'payishining quyidagi natijalarini beradi: agar 1986 yilda har 100000 aholiga 104 ta kasallik to'g'ri kelgan bo'lsa, 2015 yilda bu 100000 ga 127,2 ta holatni tashkil qilgan (Melikyan E.G., 2001; Xekht AB, Milchakova LE, 2006; Gusev EI, 2013; Werhahn KJ, 2009; Hauser WA 2015; Waterhouse E., 2015).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Orttirilgan moyillik kattalarda epilepsiya kasalligining asosiy etiologik omili hisoblanadi. Miyaning turli etiologiyali ilgari o'tkazilgan kasalliklari natijasida kelajakda "epileptogen fokus" - mahalliy neyrodestruktiv patologiya, so'ngra epilepsiya klinik ko'rinishining bosqichlari shakllanadi.

Kexsa yoshdagilarda epilepsiya paydo bo'lishining asosiy etiologik sabablariga quyidagilar kiradi: miyaning qon tomir kasalliklari (GM), GM travmasining oqibatlari,

GM neoplazmalari, degenerativ kasalliklar, markaziy asab tizimining yuqumli kasalliklari, toksik-metabolik kasalliklar.

Etiologik omillarning xilma -xilligi epilepsiya rivojlanishining turli patogenetik mexanizmlarini aniqlaydi (Melikyan E.G., 2004; Yaxno N.N., 2007; Karlov V.A., 2009; Bryniarska D., 2001; Cheung CM, 2003; Xendri J., 2004; Xommet C. , 2008; De Reuk J., 2009).

Insultdan keyingi epilepsiya odatda hodisadan keyin 3-12 oy ichida rivojlanadi (bosh miya travmasi). Insultdan keyingi birinchi yilda tutqanoq xurujining rivojlanish xavfi 20 barobar oshadi (Gekht A.B. va boshqalar, 2004; Shershever A.S., Proxorova E.S., 2010; Bladin CF, 2000; Beghi E. va boshqalar, 2010), lekin xuruj ko'p yillar o'tib ham sodir bo'lishi mumkin. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, epilepsiya va tutilishlar ishemik insultdan ko'ra gemorragik insultdan keyin tez -tez uchraydi: tutilishlarning 80% va 5% insultdan keyingi 2 hafta ichida rivojlanadi (Gekht A.B., Bornshtein N.M., 2012; Brodie MJ) , 2004; Burneo va boshqalar, 2010; Waterhouse EJ, 2010). Boshqa mualliflarning nuqtai nazari mutlaqo teskaridir - ko'pincha ishemik insultlar 1 yildan 5 yilgacha epilepsiyaga olib keladi (Kirilovskix O.N., Shershever A.S., 2010). Shunday qilib, keksa yoshdagilarda epilepsiya rivojlanishida insultning roli haqidagi savolni o'rganish qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Post-travmatik epilepsiya rivojlanishi xavfini oshiruvchi yetakchi omillar quyidagilardir: miya po'stlog'i zararlanishining mahalliy lokalizatsiyasi, kortikal va subkortikal tuzilmalar shikastlanishining tarqoqligi, hushdan ketish, travmadan keyingi amneziya, 24 soatdan ortiq, bosh suyagi suyaklarining sinishi, miyaning kontuziyasi va subdural gematoma, uzoq vaqt ichida, keksa bemorlarda miya involyutsiyasi fonida epilepsiya rivojlanishi uchun patogenetik mexanizmlarini qo'zg'atadi.

Uchinchi o'rinda KYE kasalligi bo'yicha turli lokalizatsiyadagi miya o'simtasi kiradi. Har qanday yoshdagi bemorlarda konvulsiv tutqanoqlar o'smalarning xarakterli alomati bo'lishi mumkin, ular yuqori differentsial yoki metastatik o'smalarga qaraganda nodifferentsial birlamchi o'smalar uchun ko'proq xosdir (Gaidar B.V., Svistov D.V., 2011). Katta yoshda tutqanoqni keltirib chiqaradigan eng keng tarqalgan o'smalar gliomalar, meningiomalar va metastatik o'smalardir. Epileptik tutilishlar metastatik jarayonning birinchi ko'rinishi bo'lishi mumkin (Hidebrand J. Et al., 2005).

Keksalarda, to'satdan yuzaga keluvchi simptomatik tutilishlar tez -tez uchraydi va ularning sabablari ko'pincha noaniq bo'ladi. Hujumlarning umumiy sabablari quyidagilardan iborat: spirtli ichimliklarni keskin tark etish, metabolik va elektrolitlar buzilishi, masalan, giponatremiya, gipokalsemiya va gipomagnezemiya, yuqumli kasalliklar, nafaqat tizimli, balki asab tizimi buzilishlari ham (Brodie MJ., Elder AT, 2009).

XULOSA VA MUNOZARA

Adabiyot ma'lumotlarini umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, epilepsiya rivojlanishiga hissa qo'shadigan kekxa yoshdagi ba'zi etiologik omillar ta'sirining chastotasi keng tarqalgan. Masalaning bu holati qarilikda epilepsiya rivojlanishiga olib keladigan etiologik sabablarni batafsilroq o'rganishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Киссин, М. Я. Клиническая эпилептология / М. Я. Киссин. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009. – 256 с.
2. Киссин, М. Я. Эпидемиология психических расстройств у больных эпилепсией в Санкт-Петербурге / М. Я. Киссин, Н. Г. Незнанов // Социальная и клиническая психиатрия. – 2006. – Т. 16, № 4. – С. 5–9.
3. Курбанова, С. А. Нейрофизиологический анализ симптоматической пост-травматической эпилепсии / С. А. Курбанова, О. М. Олейникова, Г. Н. Авакян // Журнал неврологии и психиатрии им. С. С. Корсакова. – 2007. – Т. 107, № 6. – С. 50–53.
4. Марилов, В. В. Использование спектрально-когерентного анализа ЭЭГ в диагностике и оценке эффективности терапии депрессивных расстройств / В. В. Марилов, Н. Н. Стрекалина, Н. Ю. Чулкова, Иванов Л. Б. // Здоровье и образование в XXI веке. – 2008. – Т. 10, № 1. – С. 54–55.

THE BENEFIT OF ONLINE LEARNING

Zulfiya Yusupova Alisherovna

Faculty of Turism Chirchik state pedagogical university

Uzbekistan, Chirchik

Abstract

Onlayn o`rganish hozirda mamlakatimizda ommalashib bormoqda va shu bilan birgalikda zamonaviy metodlardan biridir. Fikrga qo`shimcha qilgan holda onlayn o`rganishning foydasi yaxshi tajriba va turli xildagi fikrlarni tez va oson o`rgana bilish demakdir.

Abstract

Online learning is popular in our country, moreover that is a modern method. In addition to the opinion, the advantage of online learning is good experience and the ability to learn different ideas quickly and easily.

Keywords: internet sources, benefit, knowledge, types, save time, skill, global knowledge, budget, comfortable learning.

INTRODUCTION

To my knowledge online learning is interesting and effortless, that's why at the present time it is popular in all countries, demand, and desire are strong. From this topic you will know about online learning and also you will be able to get different, new, modern methods and knowledge, and through this topic, you can get information about the benefits and harms of online learning, and at the same time, you will get many opinions. Through this topic, I hope that you will get answers to your questions about the benefits of online organization, whether it is possible to learn, whether it is necessary to have enough knowledge for this.

METHODS

Online learning has become a widespread and modern method of learning among all countries as a result of now the world is developing, there are many modern technology, internet sources, and news, and at the same time, these modern technologies are also popular in our country. By reason of you will get the necessary and fast knowledge during online and it is a very useful way of learning in which you will be able to see many useful points online. Moreover, in online learning have 2 types: one of this is studying independently from the internet sources, and other is learning online with teacher which by enrolling in online classes. In addition to these 2 types, now we will learn about the benefits of online streaming, as you know while learning online you could:

- ✓ Save your time

- ✓ Acquire comfortable learning
- ✓ Developing technical skills
- ✓ Stretching your training budget
- ✓ Taking global knowledge
- ✓ Quick and easy solution
- ✓ Relearning anytime
- ✓ And studying anywhere.

If you are one of the 2 types, as I said before you can determine your path, that is, your type, based on the directions that suit you. And let`s talk this ways in our results.

RESULT

During online learning, you should save your time, and during this you can learn the necessary information at that time, you can learn while you are busy with other work. But this will not give much result; maybe your mind will be distracted. I will give my thoughts based on the above mentioned opinion. Self-study is for whom, and what should you pay attention to in this study. In this direction, you need to be at the specified level, that you can understand, which means that you can do self-study with an elementary level. Because you will have many questions and no one will be able to answer them for you, and from this your level become good, that is, if you are an intermediate or pre-intermediate, you can learn online without any difficulties. As a result of you know the answer to the question that needs to be asked. With this degree, you are self-studying, and in this direction, you save your time first, wherever you want, you can learn different places for instance in the garden or in the library, you can easily play through headphones. And in addition, during the study, you will take various news and knowledge and you can organize it as a new teaching method for yourself.

The 2nd method of online organization is to **enroll in an online course** or an online course, in which no level is required of you. You can organize it with the desired level of knowledge because the person who will teach you is clear and you will be able to ask any questions and taking that answers quickly and easily I think this is very useful for beginners. As you know, it is very expensive to learn with an beginner level this way you will save your money as well as your valuable the time you spend getting organized may pass on the way. For example, you can watch online lessons again and again and each time you watch it, you will have fewer questions. In addition, what I want to say is that it is more convenient for you to study online.

CONCLUSION

Through this topic, you need to know how modern and popular online organization is and find out what type of online learner you are. You know that online learning can be very difficult or even incomprehensible but after getting acquainted with the ideas presented above, you will understand and if you can quickly and easily

get on your way by choosing the way to learn quickly, this direction will definitely benefit you. I could say clearly that in the future, online methods will continue to develop and become popular, and the methods will change and improve.

USED LITERATURE

1. Book Cover of Wayne Journell - Online Learning: Strategies for K-12 Teachers
OA Beginner's Guide to Online Teaching for Teachers and
2. Students. Get the Best from Distance Learning and Teaching with Google and Learn How to Manage Virtual or Blended Classrooms (Kindle Edition)online Learning Strategies for K-12 Teachers (Kindle Edition)
3. https://yandex.ru/images/search?from=tabbar&text=benefits%20online%20learning&pos=2&img_url=http%3A%2F%2Fprismatic.com%2Fwp-content%2Fuploads%2Fblog%2F5-benefits-mobile-education1.jpg&rpt=simage&lr=114900
4. https://yandex.ru/images/search?from=tabbar&text=benefits%20online%20learning&pos=0&img_url=http%3A%2F%2Fogburnonlineschool.com%2Fwp-content%2Fuploads%2F2019%2F12%2Fonline-school-benefits.jpg&rpt=simage&lr=114900

**INNOVATION-ORIENTED WAY OF DEVELOPMENT OF A
MODERN UNIVERSITY***Gulamov A.A.**Tashkent State University of Transport**Ozatbekov Y.F.**Tashkent State University of Transport**Ozatbekova O.N.**Tashkent State University of Transport*

Abstract: The creation of an innovative university and the formation of its infrastructure within the framework of the educational and scientific innovation complex. The formation of the university's scientific and educational policy, the development of the holistic innovation infrastructure of the university, the implementation of a full cycle of the innovation process, and the commercial development of the results of scientific research and development.

The key words: Innovative University, an innovative complex, the infrastructure of the university, the transformation of the university, personnel potential.

Uzbekistan strives to introduce innovative ideas, products, processes, and developments in various spheres of life, considering them as the driving force of its economic growth. The country has set itself the task of becoming one of the 50 leading countries of the world by 2030 according to the rating of the Global Innovation Index. These plans have become much more important due to the serious consequences of the COVID-19 pandemic for the population and economy of the country.

President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev, in his Message to the Oliy Majlis date December 29, 2020, stressed that the most priority task should be to create broad opportunities for young people to set ambitious goals and achieve them. To do this, higher education institutions make every effort, to create the necessary conditions for the innovative development of the educational system [2].

In this regard, it is necessary to search for ways and develop methodological foundations for managing the innovative development of research universities in the context of the modernization of the higher education system of the Republic of Uzbekistan and the formation of an innovative economy based on knowledge.

The innovative development of a modern university is an objectively determined, purposeful, and irreversible, time — unfolding process of transition of the university from one state to another. This process is carried out mainly through a

purposeful change in the activities of the University through the introduction of qualitatively new elements, properties, and characteristics.

In Europe, for example, in response to these challenges, a single European University is being promoted to carry out joint educational activities on the Internet based on common standards, agreements, and smart education technologies [4,5]. The University of the National Technological Initiative "2035" operates in the Russian Federation, providing professional development for a person in the digital economy. And there are many such examples in the world's educational community.

One of the tasks of the successful creation of an innovative university is the formation of its infrastructure within the framework of the educational and scientific innovation complex. The first stage of infrastructure formation is to obtain data on the actual state of the innovation activity infrastructure, its composition, level, and development trends of its components, conduct a comparative analysis with other universities of the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan and consider the prospects for integrating the innovation infrastructure of the educational and scientific innovation complex into the innovation space of the republic.

TSTU (Tashkent State Technical University) He has embarked on the path of transformation of the university into an innovative type of university, which implies further expansion of the innovation infrastructure both to meet the internal needs of the participants of the university complex and to promptly meet the changing needs of the market. A developed scientific and innovative infrastructure should contain a technology incubator, a technology transfer, and commercialization center, a training center for the innovation sector, a resource center for innovation support, an intellectual property protection service; a center for promoting the creation of non-profit associations and partnerships for the development of science and education, a center for entrepreneurial competencies of faculty, etc. [7].

During the transformation of the university into an innovative university, an integral innovation infrastructure will be formed, within which it is possible to implement a full cycle of the innovation process and commercial development of the results of scientific research and development.

The university's participation in the formation of a favorable investment climate is possible through the support of the educational component of innovation activities. Training of specialists for innovative activities in various sectors of the economy, able to bring scientific ideas to marketable products, as well as to promote their profitable implementation. The task of the educational center of regional significance is not only to train specialists to work in the innovation field, but also to conduct research in the field of generalization of development trends inherent in this field,

Only the university and the center created on its basis will be able to organize an integrated system of training and retraining of both teaching staff in the field of innovative technologies and innovations, and specialists for the economy of the region. The creation of such a center in the structure of TSTU will allow us to work out new technologies and interactions in market conditions.

The socioeconomic development of the republic is connected with the functioning of the higher education system in it, as a system of reproduction of intellectual resources. The university of innovative type, with its intellectual potential, can solve the following tasks: to carry out primary, secondary, higher, and postgraduate professional education based on end-to-end multi-level programs for the system of continuing education in the priority for the region technical direction of personnel training in the field of transport. Based on the university, it is possible to organize the most qualitative professional development and retraining of specialists for the enterprises of the transport industry and coordinate the activities of organization of scientific and innovative activities in educational institutions.

Tasks of the Personnel Training Center for innovation:

- Introduction of innovations in the educational process of organization of scientific and innovative activities;
- Creation of an educational and methodological base;
- Monitoring of new trends (innovations) in the areas of training;
- Information support of training organizations taking into account the latest achievements of science;
- Providing a social order for training specialists for the implementation of the target programs in force;
- organization of scientific research on the subject for the implementation of national and international programs.

The formation of the scientific and educational policy of the university should be closely linked with the strategy for the socio-economic development of the republic. At an entrepreneurial type university, the organization of scientific and innovative activities should be aimed at solving the problems of the region and, first of all, its business structures. This dictates the development of the market and the growth of competition in the real sector of the economy [6].

Carrying out a systematic assessment of the resources that the country possesses and that need to be mobilized in the interests of economic development, and information support for the administration of the republic is possible based on the organization of scientific and innovative activities. such a center operating in the structure of the organization of scientific and innovative activities will allow the formation of a unified information space in the republic by organizing and supporting databases and systems for the collective use of remote databases. the results of the

center's activities can be used by universities, authorities, enterprises, and business structures within the framework of their activities.

To preserve the scientific potential, the university should create additional forms of funding for scientific work, including:

- ❖ at the expense of extra-budgetary funds of the university (creation of its Fund to support innovation and research);
- ❖ at the expense of budget financing of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan for the second half of the teacher's working day.

The Foundation for the Support of Innovation and Scientific Research on a competitive basis will finance projects of teachers, staff, and students of the university in several universal areas in which all employees of the university, without exception, can find a field of activity for themselves. Firstly, it is the development and application of new teaching technologies to improve the educational process. Secondly, any department of the university is considered a testing ground for the application of scientific knowledge and developments, starting from the highest level of university management – strategic management, management of the educational process, management of planning, and financial activities. Thus, research objects can always be found within the university's walls [3].

The university has developed scientific directions within which dissertations are being prepared. These directions are being implemented in the short term:

- ❖ in priority areas and solving problems relevant to TSTU and its structural divisions;
- ❖ training of highly qualified personnel;
- ❖ to create a foundation for participation in the competitions;
- ❖ for the implementation of projects funded by external sources.

It is important for the university that the teacher actively and with interest participates in scientific work by his internal needs. The university should encourage the interest of teachers in scientific work because without scientific research there can be no modern education, and with the introduction of innovations in education, the university feels confident in the market of educational services in an increasingly competitive environment.

Forming an innovative type of university is necessary:

- ❖ to teach teachers to work effectively in a team, attracting students, masters, and doctoral students to conduct research and thereby ensuring a close connection between scientific and educational activities;
- ❖ to plan the scientific activity of the teacher taking into account the scientific directions formed at the university. We proceed from the fact that in conditions of limited resources, the university staff should focus their efforts on the implementation of the main goals and objectives of the university, both at the moment

and in the future, to get real returns from the invested resources – scientific and financial;

- ❖ to reduce the teaching load of teachers by redistributing the latter towards scientific and innovative activities.

In the conditions of competition, the financing of scientific research at any level takes place on a competitive basis, therefore, a certain qualification and experience in project management are required from the head of the research team to perform scientific research better than others (win a grant, a project, a tender). The transition to a market economy forced us to plan scientific activities not on the principle of "producing what we can", but on the principle of "producing what the market needs". In October 2019, our country adopted a Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, which is based on the development of a solid integration of science, education, and production for intellectual uplift, training of competition personnel, effective organization of scientific and innovative activities, development of international cooperation [1]. In the concept of scientific development, this means that scientific research at the university should be carried out by temporary creative teams created for specific projects from employees and teachers of various structural divisions of the university, employees of academic institutions, and undergraduates. By organizing temporary creative teams, the university will be able to involve almost the entire teaching staff in scientific activities, orienting departments and departments to develop scientific areas in demand by the university and the region and create a scientific reserve for the successful participation of university teams in grants with funding from external sources about the university. Such an organization of scientific activity will soon give positive results.

One of the important factors is the formation of one's human resources and ensuring the continuity of the process of its reproduction. The university as an innovative one cannot be realized without the active involvement of students in scientific activities, creating opportunities for them to generate ideas at the University. It is necessary to create a Student Innovation Center, which reflects all areas of training of specialists. Such a center will provide the necessary conditions for the development, testing, promotion, and introduction of technologies created by students under the guidance of teachers and university staff to the market. In the process of creating and developing such a center, it is necessary to solve two main interrelated tasks:

- ❖ formation of a favorable regulatory and legal framework for innovation activities when involving the results of scientific research in economic turnover, primarily in matters of protection, disposal, and use of intellectual property rights created at the expense of budgetary funds;

- ❖ building a developed infrastructure to support innovation activities and the rapid transfer of the results of scientific research with commercial potential to the

business sector for the production and market launch of new knowledge-intensive goods and services.

Innovative infrastructure is a kind of bridge between the results of scientific research and the market, government, and business. Realizing the importance of creating a national innovation system, TSTU as an innovative university is actively creating an innovative infrastructure. One of the main strategic priorities of an innovative university is the development of a dynamic scientific environment integrated into the real sector of the economy.

We believe that to develop the scientific environment and unite education and science into a single market, it is necessary: firstly, to create conditions for broad participation of university staff in research funding from external sources; secondly, to involve all departments in scientific work (under economic contracts) for the region; thirdly, to form groups foreign partners to conduct joint scientific research; fourth, to involve large industrial enterprises in the orbit of the university. By actively participating in the management of such enterprises, we continue to form an educational, scientific, and innovative complex, acquiring an additional testing ground for the application of our scientific research and the development of innovative projects. At the same time, it is a serious base of practice for our student's and graduates' employment.

Today, the concept of "innovation", applicable both to the technical and technological development of transport and to the system of higher transport education, is crucial in the development of strategies and planning for further development. However, to achieve the tasks facing the transport industry, we cannot but note that the trend in the development of engineering education, in particular engineering education for the transport complex of the Republic of Uzbekistan, must be innovative in essence, otherwise technical progress is unattainable.

Thus, the development of scientific research within the framework of the educational, scientific, and innovative complex is one of the main ones in the strategic development plan of the university being developed, since it allows solving the tasks of increasing competitiveness, increasing intellectual potential, increasing the income of the university and integrating a dynamic scientific environment into the real sector of the economy, i.e. innovative development of the national economy.

REFERENCES:

Decrees of the President

1. Concepts of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030. <https://www.lex.uz/ru/docs/4545887>;

2. Mirziyoyev Sh.M. Message to the Oliy Majlis dated December 29, 2020. <https://yuz.uz/ru/news/innovatsii-v-vuzax--vajneyshaya-sostavlyayuaya-modernizatsii-ekonomiki>;

Textbook, textbook, and monograph

3. Lazarev G.I. University management by economic methods (monograph). Moscow: Higher School, 200;

4. Jolly A. Guide to Innovation: How to develop, manage and protect your maximum profit. Kogan Page Publisher Limited, 2008;

5. Martin M. J. S. Innovation and entrepreneurship management in technology firms. Wiley-IEEE, 1994;

6. Fundamentals of the creation of university complexes / South-Russian State Technical University. un-T. -Novocherkassk: YURSTU (Research Institute). 2002;

ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Шакирова Фароғат Болтаевна (PhD) доцент, ТДТУ

Аннотация: Мазкур мақолада рақамли иқтисодиётнинг моҳияти, инновацияларнинг аҳамияти ёритиб берилган. Шунингдек, инновацион ривожланишнинг рақамлаштиришга трансформациялашувида интеллектуал мулк, патентнинг расмийлаштириш муаммолари ва ечимига алоҳида тўхталиб ўтилган.

Таянч иборалар: инновацион ривожланиш, рақамлаштириш, рақамли иқтисодиёт, рақамли технология, ахборот технологиялари, интеллектуал мулк, патент.

Рақамли инқилоб иқтисодиётни ва жамиятни мисли кўрилмаган тезлик билан ўзгартирмоқдаки, бу ўз навбатида улкан имкониятлар ва қийинчиликларни ҳам келтириб чиқариши ҳеч кимга сир эмас. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида давлат бошқарувини рақамлаштириш, барча соҳа ва тармоқларда рақамли технологиялардан кенг фойдаланишга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Хусусан, “Иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамли технологиялар асосида янгилашни назарда тутувчи Рақамли иқтисодиёт миллий концепциясини ишлаб чиқишимиз керак. Шу асосда “Рақамли Ўзбекистон-2030” дастурини ҳаётга татбиқ этишимиз зарур”лиги белгиланди [1]. Бу стратегияни муваффақиятли амалга ошириш, биринчи навбатда, миллий инсон капиталига – барча фуқароларимизнинг чуқур замонавий билимларга ва юксак маҳоратга эга бўлишига боғлиқдир.

Рақамли иқтисодиётнинг шаклланиш жараёнида иқтисодий ва математик моделлаштириш, ижтимоий психология, ахборот ва телекоммуникация технологиялари каби фанлар ва технологиялар таъсир қилди. Яъни, маълумотлар олиш, узатиш, қайта ишлаш ва сақлаш учун илғор технологиялар пайдо бўлишига ёрдам берди.

Ҳозирги кунда, “рақамли иқтисодиёт” тушунчасининг турли хилдаги талқинлари мавжуд. Масалан, электрон (рақамли) иқтисодиёт-рақамли технологияларга асосланган иқтисодий фаолият; рақамли иқтисодиёт-рақамли-ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланишга асосланган иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқалар тизими, шунингдек, рақамли иқтисодиёт-ахборот-коммуникацион технологиялари дейиш мумкин.

Рақамли иқтисодиёт–бу жамият неъматларини ишлаб чиқариш, тақсимлаш ва истеъмол қилиш жараёнларида электрон ҳамда ахборот-коммуникатсион технологияларини кенг жорий этишни кўзда тутадиган инсоннинг хўжалик фаолиятини тадқиқ этувчи фандир деб таърифлайди.. Унинг фикрича, рақамли иқтисодиёт атамаси икки хил турли тушунчаларни ифодалаш учун ишлатилади. Биринчидан, рақамли иқтисодиёт–бу ривожланишнинг замонавий босқичи ҳисобланиб, у ижодий меҳнат ва ахборот неъматларининг устувор ўрни билан тавсифланади. Иккинчидан, рақамли иқтисодиёт–бу ўзига ҳос назария бўлиб, унинг ўрганиш объекти, ахборотлашган жамият ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиётда рақамли кўринишдаги маълумотлар барча ижтимоий-иқтисодий соҳалардаги ишлаб чиқаришнинг асосий элементи ҳисобланади ва бундай иқтисодиёт тизимига босқичма-босқич ўтиш мамлакатимизнинг глобал миқёсдаги рақобатбардошлилиги фуқароларнинг ҳаёт сифатини янада оширади, янги иш жойларини яратади, жадал иқтисодий ўсишга имкон яратади ва миллий мустақилликни таъминлайди.

Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиёт дастурини ҳаётга татбиқ қилиш қуйидагиларга эришишга имкон беради [2]:

- янги технологиялар яратишга ҳалақит бераётган ҳуқуқий тўсиқларни янги норматив-ҳуқуқий база яратиш ёрдамида тўлиқ бартараф қилиш;
- рақамли иқтисодиёт инфратузилмасини яратиш ва ривожлантириш, шу жумладан, тармоқлар, маълумотларни қайта ишлаш марказлари, техник ва дастурий таъминотнинг замон талабларига мос равишда ривожланишига;
- таълим тизимининг ҳар томонлама ривожланишини ва янгилашни таъминланишига;
- мамлакатдаги турли-туман компанияларнинг, фирмаларнинг, давлат корхоналарининг ҳамда бизнеснинг ривожланишига пухта асос яратилишига;
- рақамли иқтисодиёт соҳасида кўплаб ташкилотлар вужудга келишига.

Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш дастури қуйидаги мақсадларини амалга ошириш учун хизмат қилиши керак [3]:

Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётнинг экотизимини яратишга;

- мамлакат рақамли иқтисодиёт тизимининг институтлари ва инфратузилмасини яратишга;
- республиканинг барча тармоқларини қамраб олувчи инфорацион жамият ташкил қилиш учун керакли бўлган барча чоратadbирларни амалга оширишга;
- глобал миқёсда ва глобал бозорларда республикамизнинг рақобатбардошлилигини оширишга.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралдаги “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, 2018 йил 3 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорларини ҳам шу тадбирлар жумласига киритиш мумкин. Ушбу чора-тадбирлар натижасида электрон ҳужжат айланиши жорий этилди, электрон тўловлар ривожлантирилмоқда ва электрон тижорат соҳасида норматив-ҳуқуқий база такомиллаштирилмоқда.

Умуман олганда билимларга асосланган инновацион иқтисодиёт рақамлаштиришнинг мантиқий давоми сифатида кўриш мумкин. Чунки, *Рақамли иқтисодиёт инновацияларнинг ҳаётий цикли анча камайиши билан ҳам тавсифланади [4]*. Шундай экан инновацияларнинг моҳиятига тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

“Инновация - инсоннинг ақл-заковати, ишлаб чиқариш тажрибаси негизида яратилган, ишлаб чиқаришга татбиқ этилган, айти вақтда, иқтисодий-ижтимоий самара келтираётган интеллектуал мулк кўринишидаги янгиликлар, ихтиролар, кашфиётлар, ғоялар ва янгича ёндашувлар мажмуасидир” [5] Агар инновацион ғоя яратилсада, ишлаб чиқаришга тадбиқ этилмаса, ўзининг иқтисодий нафлилигини исботламаса, инновация ҳисобланмайди. Яратилган инновациялар тижоратлаштирилиб, амалиётга тадбиқ этилиб, иқтисодий-ижтимоий самара бергандагина уларни инновациялар деб, ҳисоблаш мумкин.

Ушбу таъриф мазмунига кўра, инновациялар ғоялар, ишланма, кашфиётлардан иборат бўлмай, балки инновациялар таркибига умум тараққиётга хизмат қилувчи ишлаб чиқаришни ташкил этиш, бошқариш ва мулк объектларини самарали амалга оширишга оид ташкилий-бошқарув тавсифдаги мутлақо янгича инновацион ёндашув ва тамойилларни ўзида мужассам этади.

Бугунги кунда дунё технология бозорида рақобатдош миллий маҳсулотларнинг йўқлиги, саноат тармоғида диверсификация ва реструктуризация жараёнларининг суст бориши ҳам инновацияларни бошқаришда жиддий муаммо ҳисобланади. Қуйидаги расмга(1-расм)эътибор қаратадиган бўлсак, мамлакатимизда инновацион фаолият субъектларига маҳсулотларни белгиланган тартибда расмийлаштириш учун яратилган инновацион ишланмалар, кашфиётлар, ихтиролар муаллифлари талабнома шаклида давлатнинг ваколатли органига тақдим этилишини кўришимиз мумкин. Ваколатли Давлат экспертизасидан ижобий хулоса олингандан сўнг патентлар ваколатли давлат органи томонидан расмийлаштирилади ва ягона реестрга рўйхатга олинади.



3-расм. Инновацияларни яратиш, патентлаш ва уларни тижоратлаштиришнинг таклиф қилинаётган тизими¹

Таҳлиллар натижаси шуни кўрсатадики, амалдаги мазкур тизимга хос бўлган камчиликлар қуйидагилардан иборат:

- инновацион маҳсулотлар яратаётган субъектлар, яъни муаллифларга давлат томонидан ҳеч қандай моддий ёрдам, имтиёзлар берилмаган шароитда ўз маблағлари ҳисобидан ишланмалар, ихтиролар, саноат намуналари ва фойдали моделлар яратилмоқда;

- яратилган интеллектуал мулк объектларини расмийлаштириш учун яна патент божи тўланиши лозим;

- давлатнинг инновацияларни ривожлантириш учун масъул ваколатли органи талабномани қабул қилиб олиб ва Давлат экспертизасидан ўтказди. Экспертиза хулосаси ижобий бўлса ўз қарори билан патент беради, салбий бўлса талабномани муаллифга қайтаради.

¹ Интеллектуал мулк агентлиги маълумотлари асосида муаллифлар томонидан ишлаб чиқилган.

Амалдаги тизимнинг жиддий камчилиги ҳамда муаммоси Ваколатли давлат органи фақат талабномаларни қабул қилиш ва унинг экспертизасини ташкил этиш каби расмий функция билан чекланган холос. Янгиликлар, инновацион маҳсулотлар яратилади, лекин унинг келгуси тақдири, тижоратлаштирилиши бўйича ишларни ташкил этиш тизими мавжуд эмас. Инновациялар билан уларни ишлаб чиқаришга татбиқ этиш бўйича ҳозирда мониторинг ўтказилмайди, тадбирлар ишлаб чиқилмаган ва шу сабабли фан билан ишлаб чиқариш ўртасида катта узилиш мавжуд.

Таҳлиллар кўрсатишича, агар ишланмаларни яратиш, расмийлаштириш ва уларни тижоратлаштиришнинг самарали тизимини амалиётга жалб этмасак, ушбу йўналишда салмоқли натижага эриша олмаймиз. Албатта ихтиролар амалиётга жорий этилиши, яъни инновацияларга айланиши ва уларни бошқаришда қуйидаги масалалар ҳам алоҳида аҳамиятга эга:

Инновацияларни ривожлантиришнинг асоси интеллектуал мулк эканлиги тамойилидан келиб чиқиб, инновацион ғояларни патентлаш, интеллектуал мулк объектларини муҳофазалаш тизимини такомиллаштиришни интеллектуал мулк агентлигининг устувор вазифаларидан бири сифатида белгилаш;

инновацион фаолликни ошириш учун инновацион ғоялар, ишланмалар бўйича берилган патентларнинг ягона реестрини юритиш ва уларнинг амалиётга татбиқ этилиши устидан мониторинг қилувчи мустақил давлат органини ташкил этиш;

инновацион ишланмалар асосида патентлар олган шахслар, шунингдек, инновацион ривожланиш бўйича тайёрланган илмий ишлар, мақолалар ва илмий асарларнинг муаллифлик ҳуқуқлари бузилган ҳолатларда улар юзасидан хулосалар бериш ва кўрилган зарарларни ундириш масалалари бўйича ваколатли органларнинг функция ва вазифаларини белгилаб қўйиш ўзининг ижобий натижасини беради.

Умуман, бугунги кунда жаҳонда рақамли иқтисодиётнинг ўрни ортиб борапти. Юртимизда мазкур соҳани ривожлантириш учун муайян ишлар амалга оширилмоқда. Шубҳасиз, иқтисодий секторни рақамлаштириш товар ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш билан боғлиқ бўлган харажатларни камайтириш, маҳсулот сифатини яхшилаш, ҳажми ва рақобатбардошликни кескин ошириш ҳамда вақтни тежаш каби имкониятларни яратади. Айни пайтда Ўзбекистонда рақамли технологиялар банк тизими, чакана савдо, транспорт, энергетика, таълим, соғлиқни сақлаш ва бошқа соҳаларда кенг кўламда қўлланилмоқда.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, қуйидаги назарий хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1. Рақамли иқтисодиёт – бу иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда амалга ошириш тизими бўлиб,

бунга авваламбор онлайн-хизматлар, масофавий таълим, электрон тўловлар, товар ва хизматларнинг интернет-савдоси мисол бўла олади.

2. Ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва маъмурий жараёнлар бошқаруви автоматлаштирилган тизимларини яратиш ва жорий этиш, иқтисодий рақамлаштириш, АКТ-соҳасини ривожлантириш лозим. Бу жараён ўз навбатида яширин иқтисодийга барҳам бериш воситаси сифатида намоён бўлади. Чунки, биринчидан, ҳамма амалга оширилган операциялар электрон рўйхатдан ўтилишига, иккинчидан, барча маълумотлар шаффоф бўлишига эришилади. Қолаверса, ишлаб чиқаришда янги ИТ қўлланиши оқибатида маҳсулот ва хизматларнинг таннархи пасаяди ва рақобатбардошлик ошади. Иқтисодий рақобатбардош бўлмас экан, бозор қонунлари тўлиқ амал қилмас экан, амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг натижаси ҳам сезиларли бўлмайди.

3. Аҳолига хизмат кўрсатиш жараёнида инсон иштирокини кескин камайтириш зарур. Бу ўз навбатида аҳоли турмуш сифати ва фаровонлигига ижобий таъсир этади, бюрократия, қоғозбозлик ҳамда коррупциянинг сезиларли даражада камайишини таъминлайди.

4. Инновацияларни яратиш, патентлаш ва уларни тижоратлаштиришнинг таклиф қилинаётган тизимини амалга ошириш, патентлаш жараёнини соддалаштириш орқали инновацияларнинг амалиётга жорий этиш муаммоларининг ижобий ҳал қилинишига таъсир кўрсатиш мумкин.

Юқоридаги хулоса ва таклифларнинг амалга оширилиши интеллектуал мулкни расмийлаштириш масалаларини соддалаштиради, билимга асосланган инновацион ривожланишнинг рақамлаштиришга трансформациялашувини жадаллаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz>.
2. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: Iqtisod Molia, 2019. 396 b.
3. С. Гулямов, Р. Аюпов. Рақамли иқтисодий ва унинг асосий ривожланиш йўналишлари. Давлат статистика қўмитасининг “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2019 йил, 2-сон.
4. Аюпов Р.Х., Балтабаева Г.Р. Рақамли валюталар бозори: инновациялар ва ривожланиш истикболлари. –Т: Фан ва технология, 2018. -172 б.
5. Аюпов Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистонда электрон бизнеснинг ривожланиш истикболлари. –Т: Формат полиграф, 2016. - 205 б.
6. Шакирова Ф.Б. Инновациялар асосида иқтисодий ўсишни таъминлаш механизмини такомиллаштириш. Монография.- “Complex Print”, 2018.-174 б.

**ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК
МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖИ
ТАЖРИБАСИ**

Шакирова Фароғат Болтаевна

Тошкент давлат транспорт университети доценти

Аннотация: Мақолада давлат ва хусусий сектор ўртасидаги муносабатларнинг энг самарали шакли сифатида давлат-хусусий шерикликнинг хорижий механизмлари ўрганилиб, мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда транспорт тармоғида давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини самарали ташкил этиш ҳамда инвестиция лойиҳаларни давлат-хусусий шериклик асосида амала ошириш имкониятлари бўйича хулосалар, таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Таянч сўзлар: Давлат-хусусий шериклик, инвестиция лойиҳалари, концессия шартномаси, инфраструктура.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви, технологик ривожланиш ҳамда иқтисодиётни рақамлаштириш шароити - мамлакатимизда давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтиш масаласини янада долзарб эканлигидан далолат бермоқда. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашни инвестицияларсиз тасаввур қилиш қийин. Зеро, “Биз фақат инвестицияларни фаол жалб қилиш, янги ишлаб чиқариш қувватларини ишга тушириш ҳисобидан иқтисодиётимизни жадал ривожлантиришга эришамиз”[1].

Бозор механизми элементларининг фаол ишлаши эса давлат ва хусусий сектор ўртасида янги иқтисодий муносабатларни шакллантирди. Бу иқтисодий муносабатларнинг ривожланган давлатлар амалиётидаги хусусиятларидан бири - давлат ва хусусий секторнинг шерикчилик муносабатларидан иборат. Жамоат хизматлари ва инфраструктурага талабни ошириш натижасида бу соҳадаги лойиҳаларни молиялаштириш учун давлат бюджетида маблағларнинг чегараланганлиги сабабли давлат ёки ҳукумат кафолати остидаги ҳамда тўғридан тўғри чет эл инвестицияларини ва халқаро молиявий инситутларни жалб қилиш самарали йўл ҳисобланади, лекин бу турдаги инвестициялар ўз навбатида давлат ташқи қарзи ҳажмини ошишига олиб келиб мамлакатнинг халқаро ҳамкорлик фаолиятига салбий тасир кўрсатиши муқаррар. Шу сабабли катта ҳажмдаги маблағ талаб қиладиган бундай лойиҳаларни давлат-хусусий шериклик (кейинги ўринларда ДХШ) асосида амалга оширишга эҳтиёж туғилади.

The distinctive features of English verbs include the way they are formed. There are simple, complex and derived verbs. Simple ones consist only of the root and the ending of the word, for example, hit - hit. Compound verbs are formed by adding the roots of words, for example, to grow - to grow. Derived verbs contain additions and suffixes in addition to the root. Example: dislike - dislike.

When learning English, you should devote a lot of time to the verb to be, which is already a characteristic in itself. It performs four functions, most often it plays the role of a semantic verb and a linking verb. Any sentence in English cannot be made without a verb, so to exist exists where there is no semantic verb and there is a compound nominal predicate, for example, I am a student, in Russian " "I am a student" is translated.

A verb is a group of words that expresses an action, state or process and has tense, inclination, ratio, perfect, modality and other such grammatical features. Verbs are words that express action. In grammar, the meaning of action is very broad, it includes actions represented by verbs such as to run (yugurmoq), to swim (suzmoq), situations represented by verbs such as to sit down (o'tirmoq), to stand (turmoq), mental changes represented by verbs such as to surprise, to worry, biological phenomena represented by verbs such as to blossom, to grow, and similar actions and events contains z. In addition to the fact that all of the above have their own specific forms, there is also a common aspect for all of them, that is, they are events that occur in relation to time. A verb is an independent set of words that expresses an action, state

or process, that is, an action such as the appearance and change of a certain sign. All such meanings specific to the verb go back to the general meaning of action, which helps to distinguish it from other groups of words. As Yu.S. Maslov pointed out, a verb is a group of words that expresses the grammatical significance of a sign, an action that occurs over time.

There are similarities and differences in the mood category of the verb word group in English and Uzbek languages. Indicative mood in Uzbek corresponds to the mood of message, and imperative mood to the mood of command. But English does not have a mood similar to the objective mood in Uzbek, so we can compare the meaning it expresses with Indicative mood (message mood). For example: I want to be a teacher - Men o'qituvchi bo'lmoqchiman.

The important thing is that the verb reflects the characteristics of the action that takes place during a certain period of time. These features are manifested in the personal forms of the verb, and therefore the syntactic function of the personal forms of the verb is to be used only as a predicate in the sentence. The word change system of the verb is much richer and more diverse than other word groups. It has not only the synthetic method characteristic of inflectional languages, but also the addition of formants to the root or the analytical method. It should be noted that the verb is the only group of words that has analytical forms. If we pay special attention to the word changing system of verbs, we can see that the suffixed verbs formed by the affixation method are quite rare and the compound verbs formed by the conversion method are quite numerous.

Verbs show action (walk, run, write) or a state of being (be, feel, smell, and seem). Verbs have several characteristics: form, tense, person, number, voice, and mood. Some verbs can stand alone in sentence; other verbs are helping verbs. Helping verbs are forms of the words do, be, and have, or the words shall/will, might/must, would/could/should, and can/may. They combine with other verbs to form a complete verb phrase (e.g. was sleeping).

Other verbs are called linking verbs. Linking verbs link the subject of a sentence to a description that follows. Linking verbs include forms of the verb be and the verbs seem, appear, become, grow, remain, stay, prove, feel, look, smell, sound, and taste.

English also has modal verbs. They are given special attention because these parts of speech differ from other English verbs in a number of features. They are indicators of the characteristic of action and are used together with semantic verbs. For example, a modal verb must express a request to perform an action. I go to school. I have to go to school.

Modal verbs never have the endings -ing, -s and -es. In some cases, modal verbs can be replaced by their equivalents or equivalent universal verbs. Equivalents are usually used instead of modal verbs in the past and future tenses.

Equivalent universal verbs, in addition to the modal function, can be performed by others, including semantic ones. For example, to allow is translated as "to allow, to allow" and can replace the verb may. Also, modal verbs are used without auxiliary verbs and with a participle.

In conclusion, we can say that our scientists have been working on the verb-word group since ancient times. Until now, this phrase is being analyzed in depth and news is being introduced. Verb vocabulary is a very broad topic. No group of words can be imagined without a group of verbs. The center of the sentence is the participle, and the participle is mainly expressed by the verb. That is why the verb forms the main content of the sentence. This phrase has been the cause of many debates and discussions, and is being studied by scientists to this day.

References:

1. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T.: Cho'lpon, 2008. – 240 b.
2. Abdurahmonov O'zbek tili grammatikasi – T.: Cho'lpon, 2004. – 280 b.
3. G'afforov Ingliz tili grammatikasi – Toshkent , 2005. – 220 b
4. Gaziyeva M. The pragmatics of the prosodic means// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. – 2021. Volume – 7. Issue – 5. May 30. P. 229-234
5. Gaziyeva M. The Scientific Paradigm Of Acoustic Phonetics// Academic Leadership (Online Journal) ISSN: 1533-7812, Vol-21-Issue-05-May-2020, 137-143 page
6. Gaziyeva M. On the Matters of the Phonosyntactics//Anglisticum-International Journal of Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume 7, Issue 5. – Kosovo (Macedonia), 2018
7. Gaziyeva M., Jonridova S. ON THE CONTENT STRUCTURE OF THE TEXT// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. – 2021. Volume – 104. Issue – 12. December 30. P. 487-490
8. Gaziyeva M., Burxanova M. About Innovative Methodology In Mother Tongue Lessons.//International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. – 2021. Volume – 104. Issue – 12. December 30. P. 501-504
9. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.
10. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.

HUDUDDA ERKIN RAQOBAT MUHITNI SHAKLLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Boliyev Alisher Sobirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, sektor hududlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari, ularga yaratilgan shart-sharoit va qarorlar haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: tadbirkorlik, inklyuziv barqarorlik, investitsiya, biznes, mulk, kafolat, pul, kapital, transplatatsiya, taraqqiyot, iqtisodiy oʻsish, kambagʻallik.

Annotation: This article discusses the issues of entrepreneurship development by creating an environment of free competition in the regions of the sector, the conditions and decisions created for them.

Key words: entrepreneurship, inclusive sustainability, investment, business, property, guarantee, money, capital, transplantation, development, economic growth, poverty.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития предпринимательства путем создания среды свободной конкуренции в регионах отрасли, условия и решения, созданные для них.

Ключевые слова: предпринимательство, инклюзивная устойчивость, инвестиции, бизнес, собственность, гарантия, деньги, капитал, трансплантация, развитие, экономический рост, бедность.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISH UCHUN SHART- SHAROITLAR YARATISH BORASIDAGI NAVBATDAGI ISLOHOTLAR TO‘G‘RISIDA

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi O‘zbekistonning [taraqqiyot strategiyasini](#) amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish orqali kambagʻallikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni taʼminlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga toʻlaqonli oʻtishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiylar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. Quyidagilar iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda xususiy sektorning rolini oshirish, barcha tarmoq va sohalarda xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash borasidagi institutsional va ma’muriy islohotlarni davom ettirish hamda bu borada qonun ustuvorligini ta’minlash;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini shaffof tarzda xususiylashtirish mexanizmlaridan, eng avvalo, xususiy investorlarni jalb qilishning muhim omili sifatida foydalanish hamda yerlarni auksionga chiqarishda ularning jozibadorligini oshirish uchun infratuzilma va boshqa zaruriy sharoitlarni yaratib berish;

davlat ishtiroki saqlanib qolayotgan tovar va xizmatlar bozorini erkinlashtirish hamda ushbu sohalarga xususiy sektorning kirib kelishi uchun sharoit yaratish, monopoliyaga qarshi organning institutsional salohiyati va vakolatini kuchaytirish orqali sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;

“tartibga soluvchi gilotina” usulini manzilli qo‘llash orqali imtiyozlar, eksklyuziv huquq va ustunliklarni bekor qilish;

davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish hamda xususiylashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyotda samarasiz ishlayotgan korxonalar ulushini kamaytirish hisobiga sifat jihatidan yangi, xususan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar va ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalarning ko‘payishini rag‘batlantirish;

pul va kapital bozorlarini yanada erkinlashtirish hisobiga moliya bozoridagi turli segmentlarning rivojlanishiga turtki berish, shu orqali xususiylashtirilgan va transformatsiya jarayonidagi korxonalarga o‘z faoliyatini moliyalashtirishning muqobil manbalarini shakllantirishga sharoit yaratish;

iqtisodiyotning drayver tarmoqlari, xususan, tog‘-kon, neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni kafolatlangan xomashyo bazasi bilan ta’minlash uchun geologiya-qidiruv ishlariga, qazib chiqarish va qayta ishlash jarayoniga xorijiy investorlarni jalb qilishni jadallashtirish, mineral xomashyo bazasi zaxiralarini ko‘paytirishni qo‘llab-quvvatlash;

energiya resurslari, transport va kommunikatsiya bozorlarini rivojlantirish va sohaga xususiy investitsiyalar kirib kelishi uchun sharoitlar yaratish; ichimlik va oqova suv ta’minoti, issiqlik ta’minoti, obodonlashtirish, yo‘l qurilishi, aviatsiya infratuzilmasi sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini keskin ko‘paytirish;

barcha soha va tarmoqlarda korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish;

davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, shu jumladan “komplaens” nazorat tizimini keng joriy etish, xaridlar tizimi shaffofligini ta’minlash orqali korrupsiyaning oldini olish.

2. Xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshirish hamda davlat aktivlarini (davlat aksiya paketlari, ulushlari, ko‘chmas mulk obyektlari) sotib olgan investorlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini mulk huquqi asosida auksion orqali sotishda davlat aktivlarini sotishda qo‘llaniladigan uch yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibi tatbiq etilsin;

bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari bo‘yicha kamida 35 foiz miqdoridagi dastlabki to‘lovni bir yo‘la amalga oshirgan xaridorlarga mazkur davlat aktivlari va yer uchastkalarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqi berilsin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda mazkur bandning [uchinchi xatboshisi](#) bilan joriy etilayotgan davlat aktivlari va yer uchastkalarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqini berish bo‘yicha tartibni ishlab chiqib tasdiqlasin.

3. 2022-yil 1-maydan boshlab ro‘yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan xorijiy davlatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini talab qilmagan holda, yangi barpo etilayotgan quyidagi ko‘chmas mulk obyektlarini (bundan yer uchastkasi mustasno) sotib olish tarzida investitsiya kiritish huquqi berilsin:

Toshkent viloyati, Toshkent va Samarqand shaharlarida — qurilish davrida tuzilgan shartnomalarga asosan qiymati 150 000 AQSh dollari ekvivalentidan, foydalanishga qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlarida qiymati 180 000 AQSh dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari;

boshqa hududlarda — qurilish davrida tuzilgan shartnomalarga asosan qiymati 70 000 AQSh dollari ekvivalentidan, foydalanishga qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlarida qiymati 85 000 AQSh dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari.

Bunda, mazkur bandda nazarda tutilgan ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish xorijiy davlatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatdan o‘tish va yashash guvohnomasini olish uchun asos bo‘lmaydi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga [6-ilovaga](#) muvofiq xorijiy mamlakatlar fuqarolariga ko‘chmas mulk sotib olish sharti bilan O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish uchun talab etiladigan ko‘chmas mulk qiymati miqdori Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 400 000 AQSh dollaridan 300 000 AQSh dollari ekvivalentigacha kamaytirilsin.

5. Iqtisodiyotda raqobat muhitini yanada yaxshilash va xususiy sektor oldidagi byurokratik to‘siqlarni qisqartirish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Moliya vazirligi va Adliya vazirligining quyidagi takliflari ma’qullansin:

a) oxirgi kalendar yilida tovarlar (xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n ming baravaridan oshmaydigan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar yoxud shaxslar guruhini (tabiiy monopoliya subyektlari, davlat xaridlari va birja savdolari ishtirokchilari, mahsulotlarining narxлари davlat tomonidan tartibga solinadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan tashqari) tovar yoki moliya bozorlarida ustun mavqe egallagan deb e’tirof etmaslik hamda ularga nisbatan monopoliyaga qarshi choralarni qo‘llamaslik;

b) 2022-yil 1-sentabrdan boshlab, raqobatga qarshi harakatlarni sodir etgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan quyidagilar uchun moliyaviy jarimalarni qo‘llash:

tovar va moliya bozorida raqobatni cheklashga olib keluvchi kelishuvlar (kelishib olingan harakatlar) va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish;

tovar va moliya bozoridagi ustun (monopol) mavqeni hamda yuqori muzokara ustunligini suiiste’mol qilganlik, ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini asossiz oshirganlik va insofsiz raqobat;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborishda, qo‘shib olishda va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) sotib olish bo‘yicha bitimlar tuzishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik;

ommaviy savdolarida raqobatga zid harakatlar amalga oshirganlik va monopoliyaga qarshi talablarni buzganlik.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-son; 01.06.2022-y., 06/22/145/0459-son; 10.09.2022-y., 06/22/220/0812-son)

Bugungi kunda hududlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanishda kichik biznes sektorini qo‘llab-quvvatlash va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish sohasidagi davlat siyosati 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi belgilangan ustuvor yo‘nalishlar asosida olib borilmoqda. Jumladan, Harakatlar strategiyasida faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish, yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat mulki xususiylashtirilgan ob’ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish vazifalari belgilangan. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘rta va kichik biznes tushunchasini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas. Iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik va o‘rta biznes mezonlarini aniqlash uchun ikkita

umumiy yondashuv mavjud bo‘lib, birinchi miqdoriy yondashuv o‘z ichiga ishlovchilar soni, ishlab chiqarish quvvati, sotish hajmi, aktivlar qiymati va shu kabi mezonlarni qamrab oladi. Boshqa tomondan, sifat yondashuviga ustunlik berilganda, ya’ni biznesning ta’rischilari va boshqaruvchilari o‘rtasidagi konsensus, ta’rischilar yoki boshqaruvchilarni o‘z zimmasiga olishi mumkin bo‘lgan biznes riskining darajasi, ta’rischilar yoki boshqaruvchilarning biznes ishidagi pozitsiyasi va raqobat doirasida biznesdagi vaziyatga bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishda ba’zi mezonlar sub’ektiv xarakterga ega bo‘lib qolishi mumkin. Xususan, Turkiyada kichik va o‘rta biznesni aniqlashda “Sanoat va savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish va majburiyatlari to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimcha moddalariga asosan xodimlar soni 250 nafar va yillik sotishdan tushgan tushum yoki balans qiymati 25 mln. turk lirasigacha bo‘lgan mezonlar belgilangan. 2012 yida mazkur qoidalarga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, xodimlar soni 250 nafar va yillik sotishdan tushgan tushum yoki balans qiymati 40 mln. turk lirasigacha bo‘lgan mezonlar asosida aniqlanadi. Baginova va Belomestnovlar (2015) ta’kidlashicha, jahon iqtisodiyotining rivojlanish tajribasidan ko‘rinib turibdiki, davlatning xavfsizligi, raqobatbardoshligi va barqarorligi kichik biznesning rivojlanish darajasiga bog‘liqdir. Kichik biznesni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ularning qo‘llab-quvvatlashni moliyaviy, mulkiy, huquqiy, infratuzilmaviy, uslubiy va boshqa barcha spektrdagi mexanizmlarini sifatli yangi darajadagi chora-tadbirlar va instrumentlarni shakllantirish bilan belgilanadi (Kolpakidi, 2019). Jahon iqtisodiyotida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatmoqdaki, mazkur mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali, aholining turmush darajasini yuksaltirishga erishilgan. Masalan, YeIga a’zo mamlakatlarda 67 foiz, Germaniyada 65 foiz, AQShda 52 foiz, Yaponiyada 80 foiz va YeI mamlakatlarida 70 foiz banda aholining ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to‘g‘ri keladi (Zunnunova X., 2018).

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqobat va monopoliya biznesning asoslaridan hisoblanadi, agarda raqobat bo‘lmasa, sifatli mahsulotlarning ishlab chiqarilishi kuzatilmaydi, tashkilotlarda ungga bir raqobat topilishi mahsulotlarning sifatini oshishiga sabab bo‘ladi.

Yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatdosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mineral-xomashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etishga xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishda, hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish hamda aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishda KSZlarning faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagilar muhim hisoblanadi.

1. Kichik sanoat zonalarini tashkil etishda muhandislik-kommunikatsiya hamda transport infratuzilmasini qurish bo'yicha loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash.

2. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, kichik sanoat zonalarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlariga ijara to'lovlarini tabaqalashtirish, iqtisodiy faol bo'lmagan hududlardagi kichik sanoat zonalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida respublika byudjetidan moliyalashtirish.

3. Kichik sanoat zonalarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlariga berilayotgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish tartibini faoliyat turlari bo'yicha qayta ko'rib chiqish.

Mamlakatimizda mahalliy mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etish, hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asnoda yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilishning muhim omili sifatida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini barpo etishga alohida e'tibor berilmoqda. Kichik sanoat zonalarining tashkil qilinishi zamonaviy raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlarining o'sishini ta'minlashga, mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Prezident Sh. Mirziyayev tomonidan ta'kidlab o'tilganidek: "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investisiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayranci A.E. & Ayranci E. (2015). A Research on Job Satisfaction Factors of Private Entrepreneurs: The Case of Beylikduzu Organized Industrial Zone. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. 268 – 277.
2. Celik, A. & Akgemici, T. (2007). *Girisimcilik kulturu ve Kobi'ler [The culture of entrepreneurship and SMEs]*. Ankara: Gazi Publications.
3. <http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/23612/>.
4. <http://stat.uz>.
5. <http://uza.uz/oz/politics>.
6. <http://www.doingbusiness.org/data>.
7. <https://uzlidep.uz/news-of-party/3976>.

8. Smallbone, D., Piasecki, B., Venesaar, U., Todorov, K. & Labrianidis, L. (1999). Internationalization and SME development in transition economies: An international comparison. *Journal for Small Business and Enterprise Development*, 5(4), 363–375.

9. Stevenson, L. (2010). *Private sector and enterprise development: Fostering growth in the Middle East and North Africa*. Canada: IDRC Publications.

10. *The economic development of Spain* / International Bank for Reconstruction and Development (IBRD) -Baltimore, 1967.

TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Rustamova Umida Ulug'bek qizi

Qo'qon davlat pedagogika inistituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'qitishning maqsad va vazifalari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, rasm, milliylik, badiiy fikr, iqtidor

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi.

Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo'yadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi. Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas. Maktablarda

tasviriy san'atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash zarur bo'ladi. Biroq tasviriy san'atdan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor etilmaydi. Shuningdek, ulardan to'laligicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to'g'ri emas.

Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining vazifalari. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish, estetik va badiiy didni o'stirish, bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish, badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish, tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish, rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash, kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish, san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish, uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish, milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish, bolalarda axloqiy (vatanparvarlik), mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish, bolalarni turli kasb va hunarlarga yo'llash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada, u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday o'quv predmeti ta'lim mazmunida, albatta, o'zbek halqi yaratgan beqiyos boy madaniy va ma'naviy merosni o'ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o'zbek halqining dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta'lim mazmunining viloyat va shaharlar bo'yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O'zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san'at va me'morchilikning rivojlanishida o'ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Rishton, Shahrisabz, Nurota,

Marg'ilon, G'ijduvon, Urgut, Xo'jayli va boshqa shaharlarning san'atida ham yaqqol ko'rish mumkin. Milliy san'atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o'rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda xalqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o'quvchilarga o'rgatmasdan turib, xalqimiz jahon madaniyatida o'z o'rnini topa olmaydi. Aks holda, o'quvchilarimiz milliy qobiqqa o'ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo'la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko'p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san'at, dekorativ- amaliy san'at, me'morchilik san'ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'atdan beriladigan malakalarni unutmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Abdirasilov, B.Boymetov, N.Tolipov Tasviriy san'at.
2. B.Boymetov, N.Tolipov.Maktabdatasviriy san'at to'garagi.
3. Oripov.Tasviriy san'at vauni o'qitish metodikasi.
4. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi.

БОЛАЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИ КАМАЙТИРИШДА ТАРҒИБОТ-ТАШВИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ЎРНИ

*М.Н.Усманова - ТДТрУ, доц.
Б.А.Рахмат - ТДТрУ, кат.ўқит.*

Аннотация: мақолада йўл-транспорт ҳодисалари муаммолари, болалар ишторидаги йўл-транспорт ҳодисалари таҳлили ва бундай бахтсиз ҳодисаларни камайтириш бўйича тадбирлар таклиф этилди.

Аннотация: в статье представлены проблемы дорожно-транспортных происшествий, анализ дорожно-транспортных происшествий с участием детского труда и меры по снижению таких аварий.

Кириш

Кейинги вақтларда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тўғрисида оммавий ахборот воситаларида турли йўналишдаги мавзулар ёритилиб бормоқда. Ҳаракат хавфсизлигини таъминлашда инсон йўл ҳаракатининг асосий иштирокчиси: ҳайдовчи, йўловчи, пиёда ва ҳаракатни ташкил қилувчи сифатида қатнашади. Буларнинг ичида ҳайдовчи ва пиёда алоҳида ўрин эгаллайди, шунинг учун ҳаракатни ташкил қилишда унинг психологик, физиологик ва биологик имкониятларини эътиборга олиш зарур.

Пиёдалар хавфсизлигини ошириш қобилияти йўл-транспорт жароҳатининг олдини олиш саъй-ҳаракатлари муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Уларнинг олдини олиш мумкин, чунки пиёдалар йўл транспорт ҳаракатида иштирок этар экан, бу ҳолатни доимий хатар деб қабул қилишлари керак эмас. Пиёдалар учун асосий хавфни ҳаракатланаётган транспорт воситаси эканлиги жуда ҳам яхши маълум ва кўп турли омилларни ўз ичига олади: ҳайдовчилар хулқи, маданияти, йўл ҳаракати қоидалари тўғрисидаги билимлари, транспорт воситаларини бошқариш маҳоратлари айниқса, хавфсиз тезликни танлай олишлари ва маст ҳолда автомобилни бошқаришлари, пиёдалар йўлакчаси ҳолати, йўлдан ўтиш жойи йўқлиги ёки белгиланмаганлиги ва бошқалар[4,5].

Республикамызда Давлат йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати ходимлари, соҳа мутахассислари ва жамоатчилик томонидан ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш, йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш бўйича муайян тадбирлар ўтказилиб келинмоқда. Шундай бўлсада, автомобиль йўлларимизда инсонларнинг ҳаётдан бевақт кўз юмиши, турли даражада жароҳат олиши билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари ҳамон содир бўлиб турибди, энг ачинарлиси жароҳат олганлар орасида ёш болаларнинг булишидир: 2021 йил 5,2 % ўсган, 2022 йил 9 ойига 26,7 % ўсган

Тадқиқот услуги

Йул ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш omillarni aniqlash uchun quyidagi usullarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv zarur[2,6]:

-Statistik hisob va hisobotni o'rganish usullari-O'rganilayotgan muammoning asosiy nuqtalarini aniqlash uchun amaliyotda statistik hisob va hisobotni o'rganish usullari qabul qilingan.Birlamchi buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlarini bir necha yillar davomida o'rganish.

-Эксперт баҳолаш усули таклиф этилаётган болалар иштирокидаги йўл-транспорт ҳодисаларини камайтириш бўйича таклиф этилаётган тадбирларни аниқлаш билан баҳолаш.

Муҳокама ва натижалар

Болалар иштирокидаги йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш бўйича тадбирлар ишлаб чиқиш учун юқорида келтирилган статистик маълумотларнинг ўзи камлик қилади. Содир этилган йўл-транспорт ҳодисаларида иштирок этган болаларнинг ёши бўйича таҳлил қилинса, ишлаб чиқилаётган тадбирлар самараси ошган бўлар эди. ЙТХ иштирокчиси бўлган болаларнинг ёшини 1-7 ҳамда 8-15 ёшгача бўлган болалар ёшига ажратиб оламиз.

Тошкент шаҳри кўча в автомобиль йўлларида 2019 йилда 1-7 ёшли болалар иштирокидаги ЙТХ сони 42тани ташкил этса, унинг оқибатида ҳалок бўлган болалар сони 3тани, 8-15 ёшгача болалр иштирокидаги ЙТХ лар сони 105 тани, унинг оқибатида ҳалок бўлган болалар сони 4 нафарни, турли даражада жароҳат олган болалар эса 100 нафарни ташкил этади. Келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, ЙТХ бўйича барча кўрсаткичлар 1-7 ёшли болаларга нисбатан 8-15 ёшли болалар кўпроқ дуч келишар экан.

Бундай кўрсаткичларнинг сабабини статистик маълумотлар ва тадқиқотлар натижаси асосида тушунтириб ўтишга ҳаракат қиламиз. Одатда 1-7ёшли болаларни болалар боғчаси, мактаб,тўғарақларга қатъий ёши катта яқинлари кузатувида обориб қайтиб олиб келинади.Ўйин майдончаларида ҳам катталар назоратида бўлишади[1,3].

8-15 ёшли болалар эса аҳоли пунктларида мустақил ҳаракатланишади. Демак, болалар иштирокидаги ЙТХ ларнинг олдини олиш бўйича уларга алоҳида тадбирлар ишлаб чиқиш лозим.Ҳозирги умумий таълим Давлат дастурида 4-9 синфларда 17 соатлик Йўл ҳаракати қоидалари бўйича дарслар ўтилади.Шу билан бирга Йўл ҳаракати бош бошқармаси томонидан “Диққат болалар”,”Яшил чироқ”,”Диққат таътил” каби тадбирлар ташкил этилади. Юқоридагиларни эътиборга олиб, 8-15 ёшли болаларни ЙТХ даги иштирокларини камайтириш мақсадида қуйидаги тадбирларни таклиф этамиз:

- 8-15 ёшли болалар таълим олаётган мактаб,лицей каби таълим муассаларида Йўл ҳаракати қоидалари бўйича дарс соатларини кўпайтириш;

-Президентимизнинг Йўл ҳаракати қоидалари бўйича дарсларни ўтиш бўйича Жиззах тажрибасини оммалаштириш;

- Йўл ҳаракати қоидалари бўйича дарсларнинг назарий ва амалий қисмларининг муносиблиги асосида ўқитишни ташкил этиш;

- Йўл ҳаракати қоидалари бўйича дарсларни имкони борича соҳа мутахассисларини жалб этиш;

- Ижтимоий тармоқларга йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш масалалари бўйича ташвиқот-тарғибот материалларини жойлаштириш

-Оммавий ахборот воситаларининг болалар учун тайёрланган дастурларида Йўл ҳаракати қоидаларига бағишланган мавзуларни кўпроқ ёритиш. «Ўзбекистон», «Yoshlar», «O'zbekiston 24», «Тошкент»

телеканалларида («Автопатруль», «Пойтахт йўллари», «Мобил репортер» каби телекўрсатувларга ўхшаш) махсус теле- ва радиокўрсатувлар ташкил этиш, йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш масалалари бўйича ДЙҲХХ масъул ходимларининг мунтазам чиқишини назарда тутиш.

4. Болаларга Йўл ҳаракати қоидалари ўргатилишини ташкил этиш учун махсус жиҳозланган автобурчаклар яратиш.

5. Ўзбекистон ёшлар иттифоқининг бошланғич ташкилотлари томонидан нур қайтарувчи қурилмаларни мактабгача ёшдаги болалар ва таълим муассасаларининг кичик синф ўқувчилари орасида бепул тарқатиш.

6. 18 ёшга тўлган, таълим олган ва имтиҳонни белгиланган тартибда муваффақиятли топширган шахсларга «А» ва «В» тоифасидаги ҳайдовчилик гувоҳномаларини олиш ҳуқуқини берадиган шаҳодатномаларни таълим муассасаларида бериш тўғрисидаги таклифларни ўрганиш ва киритиш.

7. Умумтаълим мактабларидаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги» фанига доир ўқитиш услуби бўйича ўқув курсларини шу соҳага ихтисослашган олий таълим муассасаларида ўқитувчилар учун ташкил этиш.

8. Умумтаълим мактаблари, коллежлар ва лицейлар ўқувчилари орасида «Яшил ранг», «Йўл ҳаракати қоидалари билимдони», «Энг намунавий йўловчи» каби викториналарни ҳар йили ўтказиш.

Хулоса

Статистика маълумотларининг таҳлили ва экспертларнинг баҳолаш хулосалари натижалари асосида ишлаб чиқилган тадбирларнинг болалар ўртасида олиб борилиши ҳамда тадбирларнинг амалга ошиши болаларнинг йул-транспорт ходисалари иштирокчиси бўлиши каби кўрсаткичларнинг пасайишига олиб келишини илмий тадқиқот натижалари кўрсатиб туради.

Адабиётлар:

1.А. Р. Абдульязнов Sociology of a region <http://regionsar.ru> ISSN 2413-1407, ISSN 2587-8549 Факторы, влияющие на безопасность дорожного движения в регионе

2.Nazarov A., Abdullaev B. Ways quality increasing of exploitation of city bus capacity and traffic. European Science review. Scientific journal. Vienna, 2018. №5-6 (May-June).P. 374-377.Nazarov A., Ustaboev A., Nazarov A. Selection of rational order of b

3.Nazarov A., Ustaboev A., Nazarov A. Selection of rational order of buses in traffic routes. Harvard Educational and Scientific Review International Agency for Development of Culture, Education and Science United Kingdom Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.2. Issue 1 Pages 14-19. 10.5281/zenodo.5908837.

4.Усманова М.Н.,Юсупов А. Методы исследования социально-экономических факторов, влияющих на труд водителей"Экономика и социум". -1, 2022-yil.

5.Усманова М.Н.,Абдуразакова Д.А. Упрощение возмещения материального ущерба, причиненного участникам ДТП. ЖУРНАЛ «ACADEMY» © ИЗДАТЕЛЬСТВО «ПРОБЛЕМЫ НАУКИ». -№ 1 (72), 2022, 2022-yil. ISSN 2542-0755

2. Usmanova M.N. An approach to assessing driver skills factors in traffic safety.

Bulletin of TADI. Scientific and technical journal. 4.2016 90-93 pp.

3.Usmanova MN Directions of traffic organization in large cities. Business Expert. №8,2019.42-44p

4.Usmonova M.N. (2020).An approach to solving road safety problems. <http://elib.bsut.by/bitstream/handle/123456789/4545/%D0%9F%D1%80%D0%BE%D0%B1%D0%BB%D0%B5%D0%BC%D1%8B%20%D0%B1%D0%B5%D0%B7%D0%BE%D0%BF%D0%B0%D1%81%D0%BD%D0%BE%D1%81%D1%82%D0%B8%202020%20%D0%A7.%204-63-65.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

5.Usmanova, M. N., & Yuldashev, DFU. (2020). Ways to improve road safety. Problems of Science, (2 (50)). <https://cyberleninka.ru/article/n/yo-1-harakati-xavfsizligini-oshirish-tadbirlariga-xorijiy-yondoshuvlarning-amaliyotga-tadbiq>

6..Usmanova, M.N. Integration of higher educational institution and enterprise in the training of specialists in traffic safety [Integratsiya visshego uchebnogo zavedeniya i predpriyatiya pri podgotovki spetsialistov po bezopasnosti dvijeniya] // Economy and society [Economika i sotsium]. №1(92) 2022

HAYDOVCHILARNI TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Usmanova M.N. - TDTrU

Raxmat B.A. - TDTrU

Abruyev SH.I. - TDTrU

Annotatsiya: Mualliflar maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda haydovchi malakasining o‘rni va haydovchilarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan usullarni baholashga ahamiyat qaratishgan.

Kirish

Yo‘l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta‘minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Negaki, aholi soni ortishi bilan avtomobillar soni ham ortib bormokda. Bu esa o‘z navbatida haydovchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishni takoza etadi. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda keng miqyosli chora-tadbirlar olib borilmoqda [4,5,7,].

«Ochiq aytish kerakki, ahvol achinarli holatda. Xususan, hozirda faoliyat yuritayotgan 1 348 ta o‘quv tashkilotining 745 tasida o‘z binosi, 1 277 tasida o‘z o‘quv avtodromi yo‘q. Ularning 41 foizida o‘quv-mashq avtomobilidan ijara asosida foydalaniladi. Shuningdek, haydovchilarni o‘qitish maktablarida nosog‘lom raqobat vujudga kelgan. Gapning to‘g‘risini aytganda, ayrim avtomaktablarning maqsadi sifatli ta‘lim berish emas, balki mo‘may daromad topishga qaratilgan»- deydi IIV Po‘lat Bobojonov.¹

Ichki ishlar vazirining ta‘kidlashicha, Uzbekiston Respublikasi prezidentining 04.04.2022 yildagi 190-sonli karoridagi ko‘rsatmasidan kelib chiqib, endilikda haydovchilarni tayyorlash, imtihon qilish va ularning malakasini oshirish tizimi tubdan takomillashtiriladi. Ta‘lim sifati qat‘iy nazorat qilinadi. Haydovchilarni tayyorlovchi ta‘lim subyektlari va imtihon markazlariga bo‘lgan talab hamda mezonlar belgilanadi. Ularning bu turdagi faoliyatni amalga oshirishi uchun litsenziya Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi.

Muhokama va natijalar

Haydovchilarni tayyorlash, ularga bilim berish saviyasini oshirish, uning uslubiyotini takomillashtirish yoki ishlab chiqish haydovchilar malakasini oshirishning innovatsion usulini ishlab chiqish, uni masofada xarajatlarsiz oshirish uslubini ishlab chiqish bugungi kunning talabidir. Sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarining

¹ Ichki Ishlar Vaziri Po‘lat Bobojonov 2022 – yil 21-fevral www.daryo.uz saytidan

haydovchilar aybi bilan sodir etilayotganini e'tiborga oladigan bo'lsak, haydovchilarni tayyorlash tizimi, haydovchilarning malakasini oshirish, harakat xavfsizligini ta'minlashga doir qonun, qaror va ularga tegishli o'zgarishlarni muntazam etkazib turishimiz zarur[1,8].

Respublika bo'yicha hududiy YHXB RO' va IO bo'lim-bo'linmalarida imtihon qabul qilish va haydovchilik guvohnomalarini berish bo'yicha 2020 yilning 12 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar

1-jadval

I-marotaba imtihon qabul qilingan	Ko'rsatgichlar	Birinci marotaba imtihondan o'tib haydovchilik guvohnomasi olganlar (toifalar bo'yicha)	o'quv tashkilotlari soni	115	
			topshirish foizi	59,	
			o'tkazilgan	984	
			I-marotaba imtihonni	210	
			Jami	310	
			tramvay-	DE	526
				B-BE	942
				C-CE	153
				B-BC	148
				BC	125
				D	690
A	C	318			
	B	142			
	A	227			
I-marotaba imtihon qabul qilingan			521		
Ko'rsatgichlar					
T.r		Jami			

Muammo nazariya bilan amaliyotning bog'liqligida. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati extiyojlari asosida paydo bo'lib ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va xayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish xam kerak. Bundan kelib chiqib avtransport vositalari ekspluatsiyasiya qilish qoidalari tushuntirilganda uzal va agregatlar texnik xizmat ko'rsatish masalalariga jiddiy diqqat erish, moylash nuqtalari va rostlash tushuntiriganda maksimal darajada nafaqat moddiy qismlar balki jixozlar va uskunalar asosida tushuntirib, doskada barcha jarayonlar chizib tushuntirib berilishi kerak. Avtotransport vositalari xaydovchilarini tayyorlashni oxirgi bosqichi bo'lagan avtomobilni boshqarishga o'rgatish jarayonida nazariyda olingan bilimlar amaliy ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lishi darkor. Buning

uchun ta`lim beruvchilar o`zaro darslarga tashrif buyurishi va o`zaro xamkorlikda ta`lim jarayonini amalga oshirishlari kerak.

Usullari

Mulkchilik shaklidan qat`iy nazar barcha o`quv muassasalari sifatli haydovchi kadrlarni tayyorlash maqsadini ko`zlaydi. Haydovchi kadrlarni tayyorlashning sifat darajasini baholash mexanizmini aniqlash uchun ,avvalo, statistika ma'lumotlarinittahlili, va haydovchilarni tayyorlaydigan avtomaktablarning tinglovchilari o`rtasida so`rovnomma o`tkaziladi[1].

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 maydagi 408-sonli «Avtomototransport vositalari va shahar elektr transport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo`yicha nodavlat ta`lim xizmatlari ko`rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi qarori qabul etilgan, lekin qaror talablarining joylardagi ijrosi o`rganilganda, tahlil shuni ko`rsatdiki, ushbu qarorning ijrosini ta`minlash bo`yicha joylarda qator ijobiy ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hozirgi kunda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bilan shug`ullanuvchi xususiy tashkilotlarning (bundan buyon matnda — xususiy tashkilotlar) faoliyatida tizimli kamchiliklar aniqlandi:

Keyingi paytda xususiy tashkilotlarni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori ilovalarida ko`rsatib o`tilgan nizomlarning tegishli bandlariga rioya qilmagan holda ochish holatlari tez-tez sodir bo`lmoqda. Xususan, o`qitish ishlari turar-joy massivlaridagi har xil tipdagi kottejlarda, savdo markazlari va binolarning er osti joylarida belgilangan talablarga javob bermaydigan xonalar hamda O`quv avtomobili sifatida qayta jihozlanmagan, o`rnatilgan tartibda ro`yxatdan o`tkazilmagan mashq avtomobillarini ijaraga olgan holda amalga oshirilmoqda;

Qator xususiy tashkilotlarning O`quv dasturlarida ko`rsatib o`tilgan amaliy laboratoriya mashg`ulotlarini olib borish uchun kerakli asbob-uskunalar va jihozlarning etishmasligi kuzatilmoqda. Ayrim holatlarda esa hatto amaliy mashg`ulotlarda umuman qatnashmagan Yoki o`qish muddatini to`liq tugatmagan tinglovchilarga haydovchilik kurslarini tugatganlik to`g`risidagi guvohnomalarni berish holatlari ko`zga tashlanmoqda;


Qator yangi tashkil etilgan xususiy tashkilotlar faoliyatida O`quv-mashq maydonlari (avtodromlar)ning yo`qligi yoki bo`lsa ham jihozlanmaganligi, O`quv avtomobillarini saqlash joylarining yo`qligi, texnik nazorat maskanlarining umuman jihozlanmaganligi yoki mavjud emasligi, O`quv avtomobillarining kundalik texnik ko`rikdan o`tkazilmasligi, avtomobilni amaliy boshqarishni o`rgatuvchi instruktorlar hamda o`rganuvchi O`quvchilarning tibbiy ko`rikdan o`tkazilmasligi kabi salbiy holatlar mavjud;

Haydovchilarni tayyorlashda muhim o`rin tutadigan o`qitish monitoringini olib borish va O`quv jarayonini rejalashtirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida tashkil etish ishlari umuman yoki to`liq yo`lga qo`yilmagan;

Ta`lim oluvchilarni o`qitish ishlari yakunlangandan so`ng ular to`g`risidagi barcha ma`lumotlar (O`quv jurnallari, amaliy boshqarish kitobchalari, yo`l varaqalari va boshqa normativ hujjatlar)ni o`z ichiga olgan hujjatlarni saqlash (arxivatsiya) ishlari to`g`ri tartibga solinmagan;

Xususiy tashkilotlarda o`qitish sarf-xarajatlari bilan bog`liq yagona unifikatsiyalashgan tizimning yo`qligi, real hisob-kitoblarga asoslangan kalkulyatsiya ishlab chiqilmaganligi natijasida tinglovchilardan o`qish uchun har xil miqdordagi, asoslanmagan to`lovlar amalga oshirilishi kuzatilgan.

Bir so`z bilan aytganda, qator xususiy tashkilotlar faoliyatida asosiy maqsad haydovchilarni tayyorlash yoki ularning malakasini oshirish emas, balki tijorat bilan shug`ullanish bo`lib qolayotganligi ko`zga yaqqol tashlanmoqda. Vaholanki, avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash inson xavfsizligi bilan bog`liq faoliyat turi hisoblanadi.



1-rasm. Haydovchilarni tayyorlash bilan shug`ullanuvchi barcha ta`lim muassasalarini o`quv jarayoni tashkillashtirish jadvali.

Ichki ishlar vazirining ta`kidlashicha, prezidentning ko`rsatmasidan kelib chiqib, endilikda haydovchilarni tayyorlash, imtihon qilish va ularning malakasini oshirish tizimi tubdan takomillashtiriladi. Ta`lim sifati qat`iy nazorat qilinadi. Haydovchilarni tayyorlovchi ta`lim subyektlari va imtihon markazlariga bo`lgan talab hamda mezonlar belgilanadi. Ularning bu turdagi faoliyatni amalga oshirishi uchun litsenziya Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi[3,5,8].

Tadqiqotlar Toshkent davlat transport universitetining Transport intellektual tizimlari muhandisligi kafedrasida talabalari va "AVTO TRANS KASB" MCHJ avtomaktabi tinglovchilari o`rtasida tadqiqot o`tkazildi. Tadqiqot mazmuni shundan iborat bo`ldiki, uning ishtirokchilariga "Yo`l harakati qoidalari va havfsiz xarakatlanish asoslari" modulidan o`rgatuvchi mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion uslub asosida o`rgatildi. Tinglovchilarning mazkur uslub to`g`risidagi fikr-mulohazalarini va baholarini bilish maqsadida quyidagi mazmunda so`rovnoma o`tkazildi hamda so`rovnoma natijalari TITM kafedrasida telegramm kanaliga yuborildi.

So'rovnomada 107 nafar "Yo'l harakati qoidalari va havfsiz xarakatlanish asoslari" modulidan o'rganayotgan tinglovchilar ishtirok etishdi. So'rovnoma natijalari quyidagicha:

58%-yaxshi, tushunarli; 41% o'rta, ustida ishlash kerak; 11% tushunarsiz

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, avtomaktablarda haydovchilarni o'qitishning yo'l – transport hodisasi bilan o'zaro bog'liq. Prezidentimiz vidioselektorida aytganidek haydovchilarni tayyorlashda tizimli kamchiliklar aytiladi. Bu kamchiliklar quyidagilar: avtomaktablar talabga javob bermasligi, o'qitish sifatiga e'tibor bermasdan mo'may daromad topishga kirishib ketganligi sabab bilimsiz haydovchilar yetishib chiqmoqda. Bilimsiz haydovchilar ko'chaga chiqqanida shoshilishi va qoidalarga bo'ysinmasligi odatiy holdir. Biror joyga shoshayotgan odamlar ko'pincha o'z maqsadlarigagina e'tibor berishadi va atrofda hech narsani ko'rmaydilar. Agar svetofor yashil bo'lsa, ular to'g'ridan-to'g'ri borishlari mumkin deb hisoblashadi va u yerda kimdir bor yoki yo'qligi muhim emas deb hisoblab harakatlanadi va yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishga olib keladi. Bu esa yo'l-transport qoidalari buzilishining oldini olish, sodir etilayotgan hodisalarning oqibatlariga, ularning yuzaga kelmasligi uchun e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Buni faqat haydovchilar va yo'lovchilarning qonunga itoatkorlik va o'zaro hurmat madaniyatini oshirish, fuqarolarning yo'l harakati qoidalari rioya qilishlariga erishish orqaligina hal etish mumkin. Zotan, yo'l-transport hodisalari oldi olinishi haydovchi va piyodalarning harakatlanish xavfsizligi qoidalari rioya etishi bilan bog'liq. Haydovchi aybi bilan ro'y beradigan yo'l-transport hodisalarini kamaytirish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Usmanova M.N. "Mathematical and statistical modeling of road safety processes. Dissertation for the degree of candidate of economic sciences. 1991.
3. Usmanova M.N. An approach to assessing driver skills factors in traffic safety. Bulletin of TADI. Scientific and technical journal. 4.2016 90-93 pp.
4. Usmanova MN Directions of traffic organization in large cities. Business Expert. №8, 2019. 42-44p
5. Slesarchuk, S. V. Analysis of the causes of road traffic accidents involving young drivers / S. V. Slesarchuk. - Text: direct // Young scientist. - 2019. - No. 20 (258). - S. 360-361. - URL: <https://moluch.ru/archive/258/59169/> (date of access: 24.02.2021)
5. Nazarov A., Ustaboev A., Nazarov A. Method of determination of public passenger transport interval for "critical situations". Harvard Educational and Scientific Review International Agency for Development of Culture, Education and Science

United Kingdom. Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.1. Issue 1 Pages 157-164. 10.5281/zenodo.5795576.

6. Alimukhamedov Sh., Nazarov A., Nazarov A., Ustoboev A. Estimation of the interval of movement of public passenger transport in the direction. First international conference on problems and perspectives of modern science (ICPPMS-2021).

7. Усманова М.Н., Юсупов А. Методы исследования социально-экономических факторов, влияющих на труд водителей "Экономика и социум". -1, 2022-йil.

8. Усманова М.Н., Абдуразакова Д.А. Упрощение возмещения материального ущерба, причиненного участникам ДТП. ЖУРНАЛ «ACADEMY» © ИЗДАТЕЛЬСТВО «ПРОБЛЕМЫ НАУКИ». -№ 1 (72), 2022, 2022-йil. ISSN 2542-0755

ШАҲАР ЖАМОАТ ТРАНСПОРТИДА ЙЎЛОВЧИЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Назаров А.А.

Тошкент давлат транспорт университети

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.02.2022 йил 2 февралда “Тошкент шаҳар жамоат транспорти тизимини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги [ПҚ-111](#)-сон қарори қабул қилинди. Қарорда йўловчи ташиш транспортини ташкил этиш тизимини янада такомиллаштириш, йўловчилар ташиш хавфсизлиги ва сифатини ошириш, қулай ва шинам автобуслардан оқилона ва самарали фойдаланишни таъминлаш йўловчи ташувчи транспорт корхоналари олдига қўйилган муҳим масалалардан бири эканлиги алоҳида таъкидланади[1].

Қарор билан Тошкент шаҳар жамоат транспорти тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари белгилаб берилди. Унга кўра:

- жамоат транспорти тизимини унинг барча турларини узвий боғлаган ҳолда комплекс ривожлантириш, аҳолининг жамоат транспортдан фойдаланиш даражасини камида икки баробарга ошириш;
- жамоат транспорти инфратузилмасини ривожлантириш, метрополитен тармоғини кенгайтириш, замонавий транспорт-ўтиш боғламаларини ҳамда намунавий лойиҳалар асосида автобус бекатларини ташкил этиш, жамоат транспорти ҳаракатига устуворлик бериш учун чорраҳа ва кўчаларни қайта лойиҳалаштириш;
- ташувчиларни молиялаштириш тизими ва тариф сиёсатини такомиллаштириш орқали соҳа корхоналарини молиявий соғломлаштириш ҳамда хусусий сектор улушини икки баробарга ошириш;
- велосипед ва бошқа моторсиз транспорт турларини ривожлантириш, жумладан, пиёдалар ва велотранспорт учун қулай ҳаракатланиш йўлакларини, велосипедларни ижарага бериш ва улар учун махсус турар жойларни ташкил этиш;
- рақамли технологиялар ва инновацион ёндашувларни кенг қўллаган ҳолда транспорт воситалари ҳаракатини бошқаришнинг интеллектуал (“ақлли чорраҳа”, “ақлли автобус” ва “ақлли бекат”) тизимларини жорий этиш ҳамда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш;
- жамоат транспорти ҳаракат таркибини замонавий, экологик тоза автобуслар, жумладан электробуслар билан янгилаш.

Муаммо. Сўнги йилларда мамлакатимизда йўловчиларга транспорт хизмати кўрсатиш соҳасини янада ривожлантириш, йўловчилар ташиш

хавфсизлигини ошириш ва автотранспорт воситаларининг атроф-муҳитга зарарли ташламаларни қисқартириш мақсадида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Автомобиль транспортини бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 6 мартдаги ПҚ-3589-сонли ҳамда 2019 йил 6 мартдаги “Юк ва йўловчи ташиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4230-сон қарорлари эса мазкур тизимни тубдан янгилаш, соҳада илғор ахборот-коммуникация технологиялари ва интеллектуал транспорт тизимлари яратиш борасида тизимли тадқиқотлар олиб бориш муаммосини кўймоқда.

Метод. Шаҳар жамоат йўловчи транспорти иши самардорлигини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлардан бири сифатида “Намунали автобус маршрути” мезонларини ишлаб чиқиш белгиланган бўлиб, мутахассислари томонидан бу мезонларнинг назарий асослари ишлаб чиқилди. Мезонларни ишлаб чиқиш жараёнида асосий эътибор йўловчиларга хизмат кўрсатиш сифатини оширишга қаратилди.

Тадқиқот. Намунали автобус маршрути мезонларини ишлаб чиқиш учун асос сифатида ривожланган чет мамлакатларнинг йўловчиларга хизмат кўрсатиш тизими ўрганилди ва атрофлича таҳлил қилинди. Бундан ташқари, Тошкент шаҳрида фаолият кўрсатаётган йўловчи ташиш маршрутлари тадқиқ этилди.

Намунали автобус маршрути дастури йўловчиларни ташишни ташкил этишнинг энг яхши усулларини тадбиқ этиш ва ривожлантиришни кўзда тутди. Бу дастурни амалга ошириш учун унинг амал қилиш самардорлигини баҳолаш зарурати юзага келади.

Ташиш сифати йўловчиларнинг транспорт хизматида бўлган талабини тавсифловчи кўрсаткичлар йиғиндисидан иборат бўлиб, уларга қатнов қулайлиги (автобуснинг тўлганлик даражаси, автобус типининг ташиш характерида мослиги ва ҳаракат мунтазамлиги), йўловчилар қатнов вақтининг давомийлиги, ҳаракат хавфсизлиги ва хизмат кўрсатиш маданияти киради [2].

Натижалар. Намунали автобус маршрутини баҳолаш мезонларига қуйидаги кўрсаткичларни киритиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- автобуслар ҳаракати “тиғиз” вақтда автобуслар типидан рационал фойдаланиш учун йўловчилар оқимида кўра:
350 йўловчигача – 30-35 йўловчи сифимли,
350-700 йўловчи – 50-60 йўловчи сифимли,
700-1000 йўловчи - 80-85 йўловчи сифимли,
1000 йўловчидан кўп – 100-120 йўловчи сифимли автобусларни танлаш;
- йўловчилар йиғиладиган ва тарқаладиган бекатлардан маршрут трассасининг узоклиги – 500 метргача бўлиши;

- рухсат этиладиган максимал интервал вақти – 15 минут;
- автобуснинг йўловилар билан тўлганлик даражаси – автобуслар ҳаракати “тиғиз” вақтларда 1м² майдонга 5 йўловчини ташкил этиши;
- автобус сиғимидан фойдаланиш коэффиценти – ўртача 0,3, “тиғиз” вақтларда 0,8 дан ошмаслиги;
- йўловчиларнинг жамоат транспортида ўз манзилларигача етиб бориш вақти – 40 минутдан ошмаслиги;
- автобуснинг алоқа тезлиги – 21-24 км/соатдан кам бўлмаслиги;
- автобуслар ҳаракат мунтазамлиги – 92% кам бўлмаслиги;
- ҳаракат жадвалидан четга чиқиш - ± 5 минутдан ошмаслиги;
- йўловчилар ўртача қатнов масофаси – 6 км дан ортиқ бўлмаслиги лозим.

Бундан ташқари, йўловчиларга ахборот таъминотининг мавжудлиги (ахборот таъминоти элементлари, овоз кучайтиргич мосламасининг мавжудлиги, йўловчиларга хизмат кўрсатиш қоидалари ва бошқалар), қатнов сифати (ҳаракат хавфсизлиги, ўриндиқларнинг қулайлиги, кўриниш, қиш вақтида иситиш ва ёз вақтида вентиляция, салоннинг озодалиги), хизмат кўрсатиш маданияти (ҳайдовчи, чиптачи ва нозимларнинг ташқи кўриниши, этика ва эстетикаси, йўловчилар томонидан шикоят ва аризаларнинг мавжуд эмаслиги).

Юқорида кўрсатиб ўтилган мезонлар назарий жиҳатдан ишлаб чиқилгандан сўнг, Тошкент шаҳридаги “Авиасозлар АШБ -Юнусобод мавзеси 12-даҳа АШБ” 72- автобус маршрутида синовдан ўтказилди. Бунинг учун автобус маршрути кўрсаткичлари бевосита кузатув асосида ўрганиб чиқилди. Олинган натижалар қайта ишлаб чиқилди ва “Намунали автобус маршрути” мезонларига мослиги текшириб чиқилди. Мезонлар ва маршрутнинг кўрсаткичлари умуман олганда ўзаро мос тушди. Бу эса, йўловчиларга хизмат кўрсатиш нуқтаи назаридан 72-автобус маршрути талаб даражасида фаолият кўрсатаётганлигидан далолат берди. Олдинда турган асосий вазифалардан бири Тошкент шаҳридаги автобус маршрутларини оптималлаштириш жараёнида уларнинг техник-эксплуатацион кўрсаткичларини “Намунали автобус маршрути” мезонлари асосида таҳлил қилиб чиқиш ва мунтазам равишда уларнинг мониторингини олиб боришдан иборат бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Хулоса ва таклифлар.

Таклиф этилаётган мезонлар асосида шаҳар жамоат транспорти фаолиятини ташкил этилиши аниқ мақсадга йўналтирилган тадбирлар ишлаб чиқиш учун илмий тадқиқотлар олиб бориш, шаҳар жамоат транспорти кўрсаткичларини таҳлил қилиш асосида уларни оптималлаштириш юзасидан чоралар кўриш имкониятини яратиш беради.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш ўринлики, мамлакатимизнинг бошқа йирик аҳоли пунктларида ҳам худди шундай мезонлар ишлаб чиқилиши ва улар асосида автобус маршрутлари текшириб чиқилиши натижасида йўловчиларга хизмат кўрсатиш сифатини ва жамоат транспорт воситаларидан фойдаланиш самарадорилигини янада ошириш имкониятлари яратилиши мумкин.

Адабиётлар:

1. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/poytaht_jamoat_transporti_tizimi_qanday_rivojlantiriladi
2. Положение и методические рекомендации по оценки “Образцовый маршрут”. ТАДИ. 2013 г.
3. Спирин И. В. Организация и управление пассажирскими автомобильными перевозками. М.: «Академия», 2010.
4. Usmanova M., Rajarova S., Juraev Y. Innovative ways to train drivers and improve their skills. AIP Conference Proceedings. -2432, 030100, 2022-yil. <https://doi.org/10.1063/5.0090825>.
5. Usmanova M, Rizayev Sh. Formation of socio-economic factors affecting traffic safety. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 7611-7615. -56, 2021.
6. Usmanova M, Rizayev Sh. Formation Of Socio-Economic Factors Affecting Traffic Safety. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research . - (ISSN–2642-7478) , 2021-y. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue04-05>.
7. Nazarov A., Abdullaev B. Ways quality increasing of exploitation of city bus capacity and traffic. European Science review. Scientific journal. – Vienna, 2018. №5-6 (May-June).–P. 374-377.
8. Nazarov A., Ustaboev A., Nazarov A. Selection of rational order of buses in traffic routes. Harvard Educational and Scientific Review International Agency for Development of Culture, Education and Science United Kingdom Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.2. Issue 1 Pages 14-19. 10.5281/zenodo.5908837.
9. Nazarov A., Ustaboev A., Nazarov A. Method of determination of public passenger transport interval for "critical situations". Harvard Educational and Scientific Review International Agency for Development of Culture, Education and Science United Kingdom. Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.1. Issue 1 Pages 157-164. 10.5281/zenodo.5795576.
10. Alimukhamedov Sh. , Nazarov A., Nazarov A., Ustaboev A. Estimation of the interval of movement of public passenger transport in the direction. First international conference on problems and perspectives of modern science (ICPPMS-2021).

BOLALARNI MAKTABGA AQLIY VA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK TOMONLARI

Pardayeva Mushtariy Uyg'un qizi

Samarqand viloyati Kattaqorg'on shahri 19-MTT

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirish, bolalarni maktabga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlari haqida soʻz yuritiladi

Kalit Soʻzlar: tafakkur, obyektiv, navbatchilik vazifasi, xulq-atvor, qurish-yasash mashgʻulotlari

KIRISH

Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda oʻqishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega boʻlishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan oʻcgan boʻlishi lozim. Biroq u hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega boʻlgan va hattoki yozish hamda oʻqishni biladigan bolalar Kam maktabdagi oʻqishga tayyor boʻlmaydilar. Ular maktab va oʻqituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega boʻlmasalar ham, maktabda oʻqib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi oʻqish Jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jihatdan oʻchgan boʻlish maktabda dastlab oʻqib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning oʻqishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal kiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasham bor. Boshqa bir olimlar, bolaning oʻqishga tayyor ekanini aniqlashdagil asosiy barcha iroda sifatlarining etilganligidir, deyдилar. Bu fikr bir yoqlamalikka yoʻl qoʻyishdan boshqa narsa emas.

Bolaning yetti yoshga toʻlishi bilan shu davrdan boshlab bolalarda oʻz-oʻzini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga toʻlgan davridan boshlab sistemali suratda oʻqitishga oʻtish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi oʻqish faoliyatiga chiqmaydi. Aksincha, biror maqsad harakat dayomida belgilanadi. Ularning maqsadlari ham juda tez oʻzgarib turadi. Shuning uchun ular koʻpincha boshlagan ishlarini oxiriga yetkazmay, bir ishdan ikkinchi bir tamomila boshqa ishga oʻtib ketaveradilar. Buning asosiy sababi shundaki, kichik yoshdagi bog'cha bolalarining ixtiyorsiz harakatlarida hissiyot juda katta oʻrin egallaydi. Bu yoshdagi bolalar oʻzlarida tugʻilgan bir talay hissiyotlar ta'siri bilan bir maqsadni belgilaydilar. Agar bolalarning oldilariga qoʻyilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uygʻotsa, bunday paytda bolalar oʻzlariga xos ravishda iroda kuchi va qatʼiylik koʻrsatishlari mumkin.

ASOSIY QISM

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rinadiki, bolalar o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitdan o'z o'yinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta guruh bolalari maktabga borishdan ancha ilgariyoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez, surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda havaslari kelib, o'zlari bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar tizimidan yangini egallashga bo'lgan intilishlarining konkret ifodasidir.

Shunday qilib, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsining ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim tarbiya ishi ko'taradi. Bola yetti yoshga to'lganda jismoniy jihatdan ancha o'sadi; o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti harakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlatirishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bemalol uddalaydi. Jamoada yashashga ko'nika boshlaydi. Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi ma'lum darajada usgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladi. Yetti yoshli bolalarning his-tuyg'ulari ancha o'sadi.

Xayrixohlik, rahmdillik, o'rtoqlik kabi his-tuyg'ular mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolada turli harakatlar mustahkamlanadi, u qaychi, igna, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor faollik ancha ustun turadi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta'sir qiladigai narsalar uning diqqatini jalb qiladi. Bu yoshda ham o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga, javobgarlikka, jamoa manfaatini ustun qo'yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchalik o'tish mehnatiga o'tish uchun zarur bo'lgan xislatlardir. O'yin jarayonida bolaning akl-idroki, zexn va boshqa psixik xususiyatlari o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'tishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Yetti yoshga to'lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o'sishi maktabda hamda oilada olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Ta'limga psixologik tayyorlik deganda bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, tafakkurining yaqqolligi, bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanidiotgan bolada — diqqati nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgarlar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan obyektga to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib kolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar tuplashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligin! bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi kopincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta'lim so'z-mantiqiy xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mayjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni bir muncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi, o'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi).

Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi haqida gapirilganda, ko'pincha muayyan reja asostda tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutamiz.

XULOSA

Shuningdek, ta'lim uchun psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi, uning sixat-salomatligi, usuliy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish

maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorgarligining obyektiv tomonlarini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017 — 264 b.
2. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. —356 br
3. Do'stmuhamedova Sh.A. Nishonoya N.T va boshqalar- “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”- Fan va texnologiyalar 2013 —343 b.
4. Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya Psixologiya razvitiya vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. — M.: Gardariki, 2007. —349 s.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK O'YINLARNING SHAKLLARI VA AMALGA OSHIRISH METODLARI

Bashirova Kamola Ilxomovna

Samarqand viloyati Kattaqorg'on shahri 19-MTT

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik o'yinlarning shakllari va amalga oshirish metodlari, Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlar haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: metodologik asos, konstruktor-mexanik, dramalashtiruvchi o'yinlar, texnik vositalar, o'yin vositalari, interfaol o'yinlar, amaliyotchi-tarbiyachi

KIRISH

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilishni prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev —Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobida —inson kapitali tushunchasi bilan bog'laydi. Ya'ni —...rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart - deb, yozadi davlatimiz rahbari. Demak, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda prezidentimiz asarlari va ma'ruzalari hamda Farmonlari va Qarorlarida belgilangan vazifalar metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

O'yin texnologiyasining nazariy asoslari. Bugungi kunda ta'lim tizimida, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda bo'lgan o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrlil va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.

2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasi ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin. Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ijodiy, psixotexnik o'yinlar. O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o'yinlar. Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar. O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari [koptok, piramida, kub va boshq.] bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar. Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetli ishchan, dramalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi. Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstruktor-mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektidan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat. Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamin bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

XULOSA

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tarzidagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi VMQ 802-sonli Qarori. 2020 yil 22 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.
3. Fazilova D.X. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o'quv-uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 60-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O'zbekiston strategiyasi.-T.:—O'zbekiston, 23- bet.
5. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. —Science and Education Scientific Journal. 339-351-betlar

MAKTABGACHA TA'LIM DIDAKTIKASI

*Jalilova Sarvinoz Ergashuvna**Samarqand viloyati.Kattaqorg'on shahri 19-MTT*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim didaktikasi, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish, bolalarga obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga ko'maklashish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tashkiliy shakllar, pedagogik faoliyat, emperik va ilmiy bilimlar, tafakkur va faoliyat, intellektual salohiyat

KIRISH

Maktabgacha yosh davrining inson kamolotining keyingi rivojlanishidagi, bolani maktab ta'limiga tayyorlashdagi alohida roli maktabgacha ta'limning maqsadini belgilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodlari va tashkiliy shakllarini o'ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama kamolga yetkazishga o'qitishning rolini tadqiq qilish zarurligini shart qilib qo'ydi. Bu esa maktabgacha ta'lim didaktikasi sohasining yaratilishiga olib keldi. Maktabgacha ta'lim didaktikasi bu - umumiy didaktikaning sohasidir.

Maktabgacha ta'lim didaktikasi - maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish nazariyasi hisoblanib, uning maqsadi belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabdagi o'qitishga tayyorlashni ta'minlovchi ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Maktabgacha ta'lim didaktikasining asoschilari Y.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiy tadqiqotlarida yoritilgan. Y.A.Komenskiyning "Onalar maktabi" nomli asarida maktabgacha ta'limning maqsadi - atrof-muhit haqidagi oddiy bilimlarni o'zlashtirish, axloqiy odatlarni rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ekanligini ta'kidlab, bolalarga beriladigan bilimlarning ilk dasturini belgilab berdi. Olim rejani tarbiya va ta'limning boshlanishi maktabgacha yoshdadir, degan g'oyani ilgari surgan edi. K.D.Ushinskiy maktabgacha ta'limning vazifasi aqliy salohiyat va nutq qobiliyatini rivojlantirishdan, ularni maktabga tayyorlashdan iboratdir - deb ta'kidlaydi. Bunda u ko'rgazmalilikka, mashg'ulotlarning qiziqarliligiga tayanish zarurligini uqtiradi. Maktabgacha ta'lim didaktikasi muammolarini nazariy va amaliy tarzda ishlab chiqish maktabgacha ta'lim-tarbiya dasturida "Mashg'ulotlarda ta'lim berish" degan bo'lim ochish imkonini yaratdi. Didaktika pedagogik fan sohasi sifatida o'qitishning mohiyatini yorituvchi kategoriyalar va tushunchalar bilan ifodalanadi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari: ta'lim, bilim (bilim, bilim olish), ko'nikma, malaka, ma'lumot, tarbiya, rivojlanish va shakllanishdir. Kategoriya

- fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim asosiy tushunchadir. Ta'lim - bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish jarayoni bo'lib, bu bolaning shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuningdek, u oila, ishlab chiqarish va ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Ta'lim berish - ta'lim beruvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, u shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirish, o'qish - o'qitish jarayonini mazmun - mohiyatining ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi. Ta'lim - o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zida ifoda etadi. Bilim - bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmuidir. Bilim o'z navbatida kundalik, ilmiy, emperik, nazariy bilimlarga bo'linadi. Kundalik bilim - bu sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga aoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning hayotiy harakatlari va oldindan ko'ra bilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim - tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashishdir. Ta'lim - tarbiyani uyushtirishda nazariy, emperik va ilmiy bilimlar muhim ahamiyatga ega. Ilmiy bilim - ta'lim tarbiyani takomillashtirish muammolarini, yechimlarini topishda qo'l kelib, tizimni asosli va narsa - hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bilimdir. U emperik va nazariy darajada bo'ladi. Nazariy bilim - emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa - hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi. Emperik bilim - bilishni kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi. U narsa - hodisalarning sifat va ko'nikma ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Emperik ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqliklarning muntazam shakllanishi emperik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular ko'pincha ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi. Bilim - bilimni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika -texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Bilimga qo'yiladigan

talablar:

- Bilimning tushunarliliigi;
- Bilimni tushunishlik;
- Bilimning mukammalligi;
- Bilimning chuqurligi;
- Bilimning operativligi;
- Bilimning ixchamligi;
- Bilimning aniqligi va umumiyliigi;
- Bilimning tizimiyliigi.

Bilim olish - idrok etish, o'rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimlarning o'zgarib, takomillashib, boyib borish jarayonidir. Ta'lim mazmunining navbatdagi komponenti ko'nikma va malakadir.

Ko'nikma - bilim kabi harakatda, kishi biror natijaga erishish uchun har xil faoliyat turida izchil bajariladigan uslublar tizimidir. U ongni faoliyat (harakat)ni tez, ta'limni to'g'ri, ham jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayoni natijasidir. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Harakat turlari bo'yicha u uch turga:

- Harakat ko'nikmalari
- Sensor ko'nikmalar
- Aqliy ko'nikmalarga bo'linadi.

Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ana shu bilan uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Ko'nikma - insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyatidir. Ko'nikma - bu shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar

va yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishiladi yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi. Ko'nikma - u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo'lib, ongli ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishda qo'yilgan maqsadga qaratadi. Inson faoliyatida ko'nikmalar malaka tarzida ham namoyon bo'ladi. Har qanday malaka ko'nikma bo'la oladi, lekin har qanday ko'nikma malaka bo'la olmaydi. Ko'nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina malaka bo'ladi. Ko'nikmani inson faoliyati turlariga ko'ra quyidagi:

- Mehnat ko'nikmalari;
- Bilishga oid ko'nikmalar;
- Aqliy faoliyatga oid ko'nikmalar;
- O'quv faoliyatiga oid ko'nikmalar;
- Nutqiy faoliyat ko'nikmalari;
- Badiiy faoliyatga oid ko'nikmalar.

XULOSA

Insonning jamiyatda muomala va o'zini tutish ko'nikmalarda o'z aksini topadi, ko'nikmalar bilimlar asosida tarkib topadi va o'z ichiga avval orttirilgan malakalarni oladi. Bu mashq qilish yo'li bilan shakllantirilgan puxta harakatlar bo'lib, ko'nikma va murakkab harakatlar tarkibiga kiradi. Ta'limning tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgan malakalar o'z mazmuniga ko'ra murakkabdir. Bular jamiyatning harakat madaniyatini aks etgan harakat malakalari (yurish, yugurish, sakrash, mehnat va xat yozish malakalari), aqliy faoliyatga oid malakalar (hisob, o'qish, tashkil qilish va boshqaruv), xulq va muomala malakalari (jamiyatda o'zini tutish, muomala-madaniyati), nutqiy malakalar (gap tuzish, nutqning muayyan

ohangi, sur'ati, artikulyatsiya sofligini saqlash) dir. Ko'nikma va malakalar maqsadga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. Ta'lim mazmunidagi asosiy jihat — zarur bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, egallangan bilimlar hamda avval hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida vujudga keladigan amaliy va nazariy masalalarni hal etish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR:

1. "Noyob Huquqlar bola huquqlari haqidagi Konventsiyani o'rganish bo'yicha amaliy qo'lanma" \ UN IC EF, N E W-YO RK-1993
2. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.: O'qituvchi, 1994.
3. Справочник «Руководителя дошкольного образовательного учреждения». Т., 2006.
4. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
5. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010

MAKTABGACHA TA`LIM DASTURIDA PEDOGOGIK ILMIY TADQIQOT METODLAR

Yakubova Aziza Murodullayevna

Samarqand viloyati Kattaqorg'on shahri 19-MTT

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim dasturida pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari: adabiyotlarni o'rganish metodi, kuzatish metodlari, suhbat metodi haqida so`z yuritiladi va ularga tavsif beriladi

Kalit so`zlar: metodlar, tuzatish koeffitsientlari, meridian, madaniyat, ta'lim-tarbiya, xo'jalik shartnomalari, pedagogik eksperiment

KIRISH

Pedagogikaning tarixiy taraqqiyotini o'rgatuvchi va milliy istiqlol mafkurasini shakllantiruvchi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar bor. Pedagogik muammolarni hal qilishda turli-tuman tadqiqot metodlari mavjud. Yuqorida keltirganimizdek, metod lotincha "metodos"- yo'l so'zidan olingan bo'lib, ilmiy tadqiqot esa shu metodlar orqali nazariy, mafkuraviy, ilmiy, milliy va ijtimoiy hayot hodisalarini ularning qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari olimlar tomonidan turlicha asoslab berilgan:

ASOSIY QISM

Adabiyotlarni o'rganish metodi - Pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma'naviyatga doir adabiyotlar, tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

Kuzatish metodlari - Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish - qisqa kuzatish obyektning kundalik faoliyatdagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish - qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinosyomka, video yozuvi, televideniye va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Suhbat metodi - Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'rililigi qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. O'rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi.

Pedagogik eksperiment - Har qanday pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlari aniqlanadi, Pedagogik eksperiment ikki turga bo'linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi. Qayd qiluvchi eksperiment orqali ta'lim yoki tarbiya jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanadi. Shakllantiruvchi eksperimentda esa zaruriy ma'lumotlar o'quvchilarda shakllantiriladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o'rganish maqsadida eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish, eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilish kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak, ya'ni:

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo'lishi.

2. Tadqiqot metodlarining ishonchliligi,

3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatligini hisobga olish. Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematik metodlarning hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridian, dispersiya, tanlab olinadigan tofplam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chikishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffetsentlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari amalda qo'llaniladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'lanilishidir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq, ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

MTM hujjatlarini tahlil qilish metodi - Pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. MTM hujjatlarini tahlil qilishda ta'lim qonunlariga amal qilinmoq kerak. MTM hujjatlarini tahlil qilishda o'quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligini uning iqtidorini hamda ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishini ko'rsatgan taqdirdagina to'liq qiymatga ega bo'ladi. Shuningdek, bolalarning umumiy miqdorb uning o'sishi yoki kamayishi sabablari tavsifi, rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, MTMning moddiy bazasiga e'tibor beriladi. Bolalar ijodini o'rganish metodi - bolalar ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan. Statistik ma'lumotlarni analiz va sintez qilish metodi - Pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan tizimli o'rganish, mustaqil O'zbekistonda fan madaniyat, ta'lim-tarbiyani taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tusha yotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi. *Anketalar metodi* - bolalardan so'rash usuli bo'lib, u bolalar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko'zda tutiladi.

XULOSA

Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlarida, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limni talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlari ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish kabi masalalar pedagogik tadqiqoti asosini tashkil etadi

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. (2018) Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T.: —Ma'naviyat, 33-bet.
2. Qilichova M.X.(2021)Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati./ —Ta'lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax. 325-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O'zbekiston strategiyasi.-T.:—O'zbekiston, 23-bet.
4. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. —Science and Education Scientific Journal. 339-351-betlar.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH

Namangan State University

Umarova Zulfizar Khusniddin qizi

a graduate student of Linguistics (English)

The article deals with the analysis of competentive approach in education and a number of terms relating to the word «competence». The author of the article proposes to implement pedagogical and didactic factors in forming written-speech competence of the non-philological faculty students learning English.

Keywords: competence, communicative competence, forming, factors, written speech, pedagogical, didactic, language means, technical, non-technical means.
Ekologik siyosat

Standartga muvofiq yuqori darajali menejment korxonada atrof-muhit siyosatini belgilashi kerak. Umuman olganda, atrof-muhit siyosatining xususiyatlari quyidagilar bo‘lishi kerak:

Atrof-muhitni boshqarish tizimining qamrovi korxonaning faoliyati, mahsulotlari yoki xizmatlarining ta‘rifi, hajmi va atrof-muhitga ta‘siriga mos bo‘lishi kerak.

Korxonaning ekologik siyosati atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bo‘yicha majburiyat va doimiy yaxshilanishni o‘z ichiga olishi kerak.

U korxonaning atrof-muhitga tegishli qoidalarga va boshqa zarur tartibga solish talablariga rioya qilishi kerakligi to‘g‘risidagi majburiyatni o‘z ichiga olishi kerak.

Xulosa

Muxtasar qilib aytganda, korxonalar tomonidan belgilanadigan atrof-muhit siyosati uchta asosiy majburiyatni o‘z ichiga olishi kerak: doimiy yaxshilash, ifloslanishning oldini olish va qonuniy tartibga rioya qilish.

Atrof muhitni muhofaza qilish maqsadlari va maqsadlarini o'z ichiga olishi va ularni qayta ko'rib chiqish uchun asos yaratishi kerak.

Atrof-muhit siyosati yozma ravishda yozilishi, yangilanishi va xodimlar va tashkilot nomidan ishlaydigan barcha tegishli shaxslarga etkazilishi kerak.

Shu bilan birga, atrof-muhit siyosati korxonadan tashqarida manfaatdor shaxslar uchun ochiq bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.D.Sidikova "Химия" конспект лекции. Т.ТАЙИ.2000й
2. Тошпўлатов Ю.Т., Исоқов Ш.С., Анорганик кимё, Ўқув қўлланма . Т.; Ўқитувчи
3. М.Т.Abdullayev, О.К.Ergashev, В.А.Хайитов Кимyo. О'quv qo'llanma. Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020 yil
4. Lutfullayev E.N., Normurodov Z.N., Berdiyev A.T. Anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. /O'quv qo'llanma.– Т.: O'zbekiston, 2006.
5. Модихонов Т., Ёқубова М, Абдуғафуров И. Умумий ва анорганик кимёдан амалий ишлар./ Ўқув қўлланма. – Т.: Меҳнат, 1997.
6. Қодиров Э., Муфтахов А., Норов Ш. Анорганик кимёдан амалий машғулотлар./Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

Elektron resurslar

1. Электрон кутубхона маълумотлари [www. ziyouet.uz](http://www.ziyouet.uz)
2. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси [www. natlib.uz](http://www.natlib.uz)
3. [www. Xumuk.ru](http://www.Xumuk.ru)
4. www.Chem.msu.su/rus/elibrary/
5. www.Hemi.nsu.ru

**IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONI RIVOJLANISHINING
XUSUSIYATLARI VA SHART-SHAROITLARI**

Sodikov Zokir Rustamovich,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Bu maqolada iqtisodiy integratsiya nazariyasining rivojlanish shart-sharoitlari va unga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: Iqtisodiy integratsiya nazariyasi, iqtisodiyot, jahon bozori, eksport, import, tashqi savdo, xorijiy investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar.

Milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiya bo'lishi afzalliklar va manfaatlar ta'sirida kelib chiqadi. Jahon bozoriga integratsiya jarayoni milliy xo'jalik o'rtasidagi aloqalarning rivojlangan va takomillashgan bosqichi bo'lib, unda mamlakat iqtisodiyotlarining barcha tarmoq va sohalarining o'zaro qo'shib, yaxlitlanib borishi kuzatiladi. Shu bois iqtisodiy integratsiya faqat nazariy masala bo'lmasdan, iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida namoyon bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy integratsiya darajasini milliy iqtisodiy ko'rsatkichlarning jahon bozoriga bog'liqligi ko'rsatadi. Mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmining ortishi eksport salohiyatining kengayishiga va milliy daromadning ko'paytirib import hajmining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatish orqali jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni mustahkamlaydi.

Iqtisodiy integratsiya darajasini yalpi ichki mahsulot va sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan tashqi savdo hajmi, eksport va import, uning tovar va xizmatlar tarkibi ifodalaydi. Shuningdek, jami investitsiyada xorijiy investitsiyaning ulushi, milliy ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalarning o'rnini, milliy bandlikning jahon bozoriga bog'liqligi va boshqa ko'rsatkichlar belgilab beradi. Iqtisodiy integratsiya jarayoni chuqurlashuvi bilan mamlakatlarning jahon bozoriga bog'liqlik darajasi ortib boradi va u ko'rsatkichlarni o'ziga xos guruhlash mumkin. Jahonda tovar va xizmatlar ortiqcha taklif qilingan bozorlardan talab kuchli bo'lgan mamlakatlar bozori tomon oqadi. Natijada jahonda milliy ishlab chiqarish va iste'mol bozorlari tabiiy ravishda har tomonlama integratsiyalashadi.

Milliy narxlar ham mamlakatning jahon bozoriga integratsiyalashuv darajasini ifodalaydi. Milliy bozorlari integratsiyalashgan davlatlarda narxlar yoki narx indekslarining o'zaro nisbati shakllanadi. Buni yagona valyuta birligidan foydalanuvchi mamlakatlar vaziyati asoslaydi. Ushbu mamlakatlardan birida narx o'zgarsa, qolganlariga ham ta'sir ko'rsatadi yoki \$dan jahondagi savdo operatsiyalarida keng foydalanilganligi uchun AQSh dagi iqtisodiy vaziyat va \$ning inflyatsiyasi ko'pchilik milliy pullarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Erkin iqtisodiyot tizimi ochiq iqtisodiyot asosida barpo etilishi va rivojlantirilishi ma'lum. Bu esa milliy bozorning jahon xo'jaligiga yoki boshqa mamlakatlar bozoriga qo'shilishi demakdir. Ochiq iqtisodiyotda milliy daromad (MD) muvozanati yalpi talab bilan yalpi taklif tenglashgan nuqtada ta'minlanadi. Bunda yalpi talab ikki qismga, ya'ni iste'mol (S), investitsiya (I) va davlat xarajatlari (G) ichki talabni, eksport (X) bilan import (M) esa tashqi talabni ifodalaydi. Xorijga eksport, bu mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga xorijliklarning xarajati bo'lib, u mamlakatning daromadiga ulush qo'shish bo'ladi. Xorijdan import esa mamlakat fuqarolarining chet el tovar va xizmatlariga xarajatini ifodalaydi. Bunda xorijliklarning mamlakatdagi daromad oqimiga sof ta'siri eksport bilan import (X-M) o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Yalpi milliy mahsulotga nisbatan eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish, import hajmining ortishi esa iste'mol bo'yicha milliy bozorning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi chuqurlashayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakatlar iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish uchun ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish orqali milliy daromadni ko'paytiradi. Natijada import hajmi ham ortadi. Chunki import bilan milliy daromad o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, iste'mol singari, milliy daromad oshganda importning ham ko'payishi kuzatiladi. Import bilan milliy daromad o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlik import funksiyasi bo'lib, unga ishlab chiqarish uchun tashqi bozor resurslariga ehtiyoj va yalpi xarajat yoki milliy talabning bir qismini importga yo'nalishi sabab bo'ladi. Import talabining daromadga nisbatan elastikligi ham tashqi savdo hajmiga ta'sir ko'rsatadi va uni quyidagi formulada ifodalash mumkin:

$$e = \frac{\Delta M}{M} : \frac{\Delta Y}{Y}$$

Bunda: e - elastiklik, M - import,

$$e = \frac{\Delta X}{X} : \frac{\Delta Y}{Y}$$

Bunda: e - elastiklik, X - eksport, ΔX - eksportdagi o'zgarish,

Y - yalpi milliy mahsulot, ΔY - yalpi milliy mahsulotdagi o'zgarishni ifodalaydi.

Ochiq iqtisodiyotda milliy daromadning bir qismi ichki tovar va xizmatlarga, bir qismi import tovar va xizmatlarga xarajat qilinsa, qolgani jamg'arib boriladi. Shuning uchun bozor munosabatlarida marjinal (me'yoriy) iste'mol (MPC), marjinal (me'yoriy) import (MPM) va marjinal (me'yoriy) jamg'arish (MPS) moyilliklari

yig'indisi birga teng ($MPC + MPM + MPS = 1$) bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda milliy daromad muvozanati yalpi xarajat bilan yalpi ishlab chiqarish tenglashganda ta'minlanadi. Bu formulada quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = C(Y) + I + X - M(Y), \text{ yoki } Y - C(Y) = S(Y)$$

Bunda: Y - yalpi milliy mahsulot, C - iste'mol, I – investitsiya,

X – eksport, M – import, S - jamg'arma.

Yuqorida keltirilgan formulani quyidagicha ham ifodalash mumkin:

$$S(Y) + M(Y) = I + X \text{ yoki } S(Y) - I = X - M(Y) \text{ bo'ladi.}$$

Bu formulaning chap qismida jamg'arma bilan importdan iborat yalpi xarajat, o'ng qismida investitsiya va eksport yig'indisi berilgan. Bu tenglamada jamg'arma bilan investitsiyaning farqi, eksport bilan import farqiga bog'liq bo'lmoqda. Bundan tashqari mamlakatlar YMM larining o'zaro bog'liqligi borasida olib borilgan tadqiqotlarda, geografik jihatdan qo'shni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi mutanosib davlatlarda iqtisodiy aloqalar rivojlanganligi, bozorlarning chuqur integratsiyalashganligi kuzatilgan. Demak, mamlakatlarning integratsiyasini YMMlari o'sishdagi mutanosiblik ham asoslaydi.

Milliy iqtisodiyotlari to'liq va keng ko'lamli integratsiyalashgan mamlakatlarning bandlik va ishsizlik muammolari borasida olib borilgan tadqiqotlarda o'zaro bog'liqlik mavjudligi isbotlangan. Chunki mamlakatlardan birida ishsizlik tufayli talab hajmi qisqarsa, bu integratsiya doirasidagi mamlakatlar eksportining kamaytiradi. Natijada integratsiya hududida tashqi savdoning qisqarishi ishlab chiqarishni pasaytiradi va ishsizlikni ko'paytiradi. Shuningdek, integratsiya hududidagi biror mamlakatda imkoniyatlar kengayib bandlikning oshishi, qolgan mamlakatlar tashqi savdosini rag'batlantirib, ishlab chiqarish va bandligini kengaytiradi. Iqtisodiy jarayonlar mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bozori baynalmilallashganligini ko'rsatadi. Milliy bozorlari integratsiya bo'lgan mamlakatlardagi jamg'armalar hududdagi eng yuqori daromad keltiradigan mamlakatning moliya bozoriga joylashtiriladi. Natijada investitsiya harakati erkin va cheklovlar yo'qligi uchun qaysi mamlakat moliya bozorida foydalilik koeffitsenti ortsa, jamg'armalar o'sha tomonga oqadi va integratsiya hududida daromadlar mutanosiblashadi. Milliy bozorlardagi o'zgarishlarning xalqaro savdo jarayoniga ta'siri integratsiyaning ko'rsatkichi hisoblanadi. Bunda tovarlarning ortiqcha taklif qilingan joylardan, talabi qondirilmagan mamlakatlar tomon harakati kuzatiladi. Bu jarayonning ob'ektlarini tovar va moliya resurslari sifatida alohida ajratish mumkin. Mamlakatdagi sof tovar oqimi importning eksportga nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Jamiyatda ortiqcha tovar talabi real daromadning ko'payish hisobiga kelib chiqadi. Demak, importning ko'payishi milliy daromadning oshishi, eksport hajmining ortishi esa jahon iqtisodiyotidagi rivojlanish natijasida sodir bo'ladi.

Moliyaviy resurslarning xalqaro harakati valyuta va qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bo'lib, u milliy bozorlarda nominal daromadlarning tenglashtirish tendensiyasiga ega. Valyuta va qimmatli qog'ozlar ham tovar singari ortiqcha taklif qilingan bozordan talabi mavjud bozorlarga yo'naladi. Moliyaviy aktivlarning xalqaro harakati, ularning nominal foiz stavkasining jahon miqyosida mutanosiblashtiradi. Shuningdek, amaliy jarayonlar valyuta bozorini bir mamlakat tomonidan nazorat qilib bo'lmasligini, jahon bozori qimmatli qog'ozlar nominal foiz stavkasining mutanosiblashtirishga imkoniyat yaratishini ko'rsatadi, ya'ni, bu bozorlar chuqur integratsiyalashgan. Milliy bozorlarda narxlar nisbati shakllangani kabi integratsiya bo'lgan mamlakatlar o'rtasida ham narxlar mutanosibligining vujudga kelishi samarali jarayon hisoblanadi. Shu bois, nazariyalarda to'liq integratsiya uchun jahon bozorida daromad va foydaning eng yuqori darajaga chiqaradigan narx shakllanishi zarurligi ta'kidlanadi. Zero, integratsiya jarayonida narx nisbati to'g'ri shakllanmasa, daromad taqsimoti maqbullashmaydi va bozorlar o'z-o'zidan alohidalashadi.

Milliy bozorning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida «Birinchisi eng yaxshi siyosat» va «Ikkinchi eng yaxshi siyosat» ning o'ziga xos ahamiyati mavjud. Jahonda yuksak iqtisodiy taraqqiyotga va farovonlikka erkin iqtisodiy munosabat va mukammal raqobat asosida erishish mumkinligi nazariy jihatdan asoslangan. Xalqaro amaliyotda iqtisodiy munosabatlarning erkin bozor mexanizmi asosida namoyon bo'lishi «Birinchisi eng yaxshi siyosat» sifatida ifodalanadi. Bu individual xarajat bilan umumiy xarajatni yoki individual manfaat bilan umumiy manfaatni maqbullashuvini talab etadi. Lekin, amalda bunga erishishga tabiiy- iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar yo'l qo'ymaydi. Shu bois, davlatlar turli ijtimoiy maqsadlarni inobatga olib tadbirlar belgilaydi. Bu yondashuv nazariyada «Ikkinchi eng yaxshi siyosat» sifatida ta'riflanmoqda.

Jahon bozorida «Birinchisi eng yaxshi siyosat» amalga oshmagach, maqbul usul sifatida «Ikkinchi eng yaxshi siyosat»ni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xalqaro miqyosda iqtisodiy integratsiya sifatida yuzaga chiqadi. Zero, iqtisodiy integratsiya bo'lmasa, shu iqtisodiy integratsiya tufayli erishiladigan farovonlik ham kelib chiqmasdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi industrial mamlakatlarnikidan katta farq qiladi, ya'ni, ular ko'proq agrar soha va xomashyo borasida afzallikka ega. Shu bois bu mamlakatlar ishlab chiqarishini tashqi raqobatdan himoyalash maqsadida tadbirlar belgilab, iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishini cheklaydi.

Hozirda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning axborot texnologiyalari tufayli jadal rivojlanib borishi mamlakatlarning tarmoq va sohalar bo'yicha ixtisoslashuvining chuqurlashtirib, milliy ishlab chiqarish tizimining baynalmilallashuviga zamin yaratmoqda. Shuningdek, davlatlar bir tomondan tashqi bozorning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish uchun qanchalik harakat qilsa, ikkinchi tomondan, jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ta'sirini ham shunchalik his qiladilar. Iqtisodiy integratsiya milliy xo'jaliklar uchun erkin iqtisodiy munosabatdan keyin muhim ahamiyat kasb etganligi bois, barcha mamlakatlar ichki iqtisodiy imkoniyatlari bilan birga tashqi bozorlardan ham foydalanish uchun bu masalaga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shu bois iqtisodiy integratsiya jarayoni nazariy, tashkiliy va amaliy jihatdan muntazam ravishda rivojantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (28.01.2022-yil, PF-60-son).
2. Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya. – T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. – 72 bet.
3. Seyidog'lu H. Uluslararası iktisat. Darslik. -Istanbul: "Guzem Can Yayinlari", 2012. 820 s.
4. Salvatore, Dominick. International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
5. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, and Marc J. Melitz. International economics: theory & policy/12th Edition/USA. Permissions Department, 501 Boylston Street, Suite 900, Boston, MA 02116, 2022.

XORIJIY MAYDONDA O'Z O'RNIGA EGA AYOL JURNALIST

Ortiqboyeva Mahbuba Bahodirjon qizi

Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri. O'zJoku talabasi 1-kurs

Annotatsiya: Bu maqola orqali ayol jurnalistlarning xalqaro maydonda o'rin egallashlari mumkinligi hamda buni allaqachon boshqa bir ayol uddalay olganligi ifoda etilgan. Qaysidir ma'noda bu yosh journalist qizlar uchun mativatsiyadir.

Xorijiy maydonda o'z o'rniga ega jurnalist ayol

Xorijda o'zining faoliyatini yuritib kelayotgan jurnalist ayollardan biri siz-u bizga birdek tanish bo'lgan Navbahor Imomova -"Amerika ovozi"ning multimedia jurnalistidir. "Amerika manzaralari" turkumidagi teledasturlar muallifi. Ko'rsatuvlar taqdim etish bilan birga, prodyuser, muxbir hamda muharirlikda ham o'z faoliyatini olib bormoqda. U O'zbekistonda akreditatsiyadan o'tgan yagona o'zbekistonlik jurnalist hisoblanadi.

Navbahor Imomova "Amerika ovozi" da 2002-yildan beri ishlaydi. Jurnalistik faoliyatini esa 1996-yilda O'zbekiston radiosining "Xalqaro hayot" redaksiyasida boshlagan. Serqirra ijodkor, serqirra jurnalist hisoblangan bu inson ommaviy axborot vositalari to'grisidagi bilimlarini ,asosan, chet elda:Hindiston hamda AQSHning nufuzli oliygohlarida olgan.

Ko'plab yosh qiz va ayollar o'zining iqtidorini yoki bilimini ommaga taqdim etishdan qo'rqishadi. Xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishlari mumkinligini esa faqat hayol qiladilar. Navbahor Imomova mana shunday ayollar yosh qiz jurnalistlar uchun katta maktab bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Amerikaovozi.com
2. Wikipedia

YASMIQNING INSON ORGANIZMIDAGI OZUQAVIY QIYMATI

Berdimuradov Xasan To'xli o'gli*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti*khasanberdimuradov@gmail.com**Ibragimov Anvar Kuchkarovich***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti*anvaribragimov@gmail.com**Shaxriddinov Farrux Faxriddin o'g'li***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti*Shaxriddinofarrux04@gmail.com**Zaripov Ravshan Hakimovich***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti*zaripovravshan@gmail.com

Annotatsiya: Yasmiq inson tanasini muhim va muhim bo'lmagan aminokislotalar bilan ta'minlaydigan oqsillarning boy manbaidir. Ular ming yillar davomida iste'mol qilingan bo'lsa ham, ularning ozuqaviy xususiyatlari, inson salomatligiga potentsial ta'siri hozirgacha o'rganilmoqda. Ushbu maqola yasmiqning inson organizmiga foydali jihatlari o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Yasmiq, vitamin, mineral moddalar, oqsil, ozuqaviy qiymat, organizm, hujayralar.

Аннотация: Чечевица является богатым источником белков, которые обеспечивают организм человека незаменимыми и заменимыми аминокислотами. Хотя их употребляют в пищу уже тысячи лет, их питательные свойства и потенциальное влияние на здоровье человека все еще изучаются. Эта статья направлена на изучение полезных аспектов чечевицы для организма человека.

Ключевые слова: чечевица, витамин, минеральные вещества, белок, пищевая ценность, организм, клетки.

Abstract: Lentils are a rich source of proteins that provide the human body with essential and non-essential amino acids. Although they have been consumed for thousands of years, their nutritional properties and potential effects on human health are still being studied. This article is aimed at studying the beneficial aspects of lentils for the human body.

Key words: lentils, vitamin, mineral substances, protein, nutritional value, organism, cells.

Xom, unib chiqqan va pishirilgan yasmiqning ozuqaviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan. Yasmiq inson organizmini muhim va muhim bo'lmagan aminokislotalar bilan ta'minlaydigan oqsillarni saqlashning mo'l manbai ekanligi ma'lum. Yasmiq tarkibidagi asosiy oqsillar globulin (umumiy urug' oqsillarining 47%) va etarli miqdordagi albumindir [5]. Yasmiq almashlab ekish va atmosfera azotini tuzatish qobiliyatida muhim rol o'ynaydi. Yasmiq tarkibidagi ushbu oqsillar va muhim aminokislotalarning yuqori miqdori past va o'rta daromadli mamlakatlar uchun muhim oziq-ovqat manbai bo'lib xizmat qiladi [6]. 23 ta puls orasida yasmiq kraxmal miqdori bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi - 47,1% va erimaydigan xun tolalarining katta foizi [7]. Yasmiqlar prebiyotiklarning yaxshi manbai ekanligi ma'lum va ichak mikrobia muhitini saqlashga va ichak bilan bog'liq kasalliklarning oldini olishga yordam beradigan ozuqaviy jihatdan muhim miqdordagi prebiyotik uglevodlarga (12,3-14,1 g / 100 g quruq yasmiq) ega . Bundan tashqari, yasmiq yog' va natriyda nisbatan past, ammo kaliy miqdori yuqori (natriy va kaliy nisbati 1:30) . Shuni hisobga olsak, bu semizlik va yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan bemorlar uchun eng yaxshi parhez taomidir. Yasmiq urug'lari temirning ajoyib o'simlik manbai hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ovqatda pishirilgan yasmiqni iste'mol qilish temir tanqisligi kamqonligining oldini oladi , temir har kuni, ayniqsa o'smirlar va homilador ayollar uchun zarur bo'lgan juda muhim mineraldir. Yasmiqda bir qancha minerallar (sink, mis, marganets, molibden, selen va bor) va vitaminlar (tiamin, riboflavin, niatsin, pantotenik kislota, piridoksin, foliy kislotasi, a, b va g tokoferollar va filoxinon) yaxshi hujjatlashtirilgan . Bundan tashqari, Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (USDA) [7] tomonidan xabar qilinganidek, yasmiqda o'rtacha K vitamini 5 mkg / 100 g ni tashkil qiladi. Biroq, kattalardagi ushbu vitaminning kunlik ehtiyoji taxminan 80 mkg ni tashkil qiladi. K vitaminining past miqdori yasmiqni antikoagulyant davolashda yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan bemorlar uchun xavfsiz qiladi. Umuman olganda, yasmiq turli kasalliklarga salomatlikni mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatadigan eng yaxshi parhez manbalaridan biri hisoblanadi.

100 g yeyiladigan qismda yasmiqning ozuqaviy tarkibi

1-jadval

Oziq moddalar birligi	Xom	unib chiqqan	Pishirilgan
Suv, gr	8,26–9,65	51,85–67,34	69,64–137,89
Energiya, kkal	343–356	82–106	116–226
Protein, gr	24,44–25,71	6,9–8,96	6,9–8,96
Jami lipid (yog'), g	0,92-1,06	0,42-0,55	0,38-0,75
Uglevod, gr	60–64,44	17,05–22,14	20,13–38,69
Jami xun tolasi, gr	10,7-31,4	7,9-15,6	12,4-22,7
Jami shaker, gr	g 2,03-2,86	1,80-3,56	3,23-4,85
Minerallar			

Kaltsiy, mg	35–57	19–25	19–38
Temir, mg	6,51–7,71	2,47–3,21	3,33–6,59
Magniy, mg	47-69	28-37	36-71
Fosfor, mg	281–335	133–173	180–356
Kaliy, mg	677–943	248–322	369–731
Natriy, mg	3-6	8-11	123-471
Rux, mg	3,27–5,89	1,16–1,51	1,27–2,51
Vitaminlar			
Vitamin C, mg	3,4–4,5	12,7–16,5	1,5–3,0
Tiamin, mg	0,756–0,873	0,176–0,228	0,169–0,335
Riboflavin, mg	0,189–0,211	0,099–0,128	0,073–0,0145
Niatsin mg	2,605–3,459	0,869–1,128	1,060–2,099
Vitamin B6, mg	0,540–0,698	0,146–0,190	0,178–0,352
Folat mkg	479–555	77–100	181–358
Vitamin B12 mkg	0,00	0,00	0,00
Vitamin A, RAE, mkg	2,0–2,5	1,8–2,0	0
Vitamin A, IU IU	32-39	35-45	8-16
Vitamin E mg	0,49-0,55	0	0,11-0,22
K vitamini mkg	4,2–5,0	0	1,7–3,4
Lipidlar			
Jami to'yingan yog' kislotalari, gr	0,154-0,198	0,044-0,057	0,053-0,105
Jami bir to'yinmagan yog' kislotalari, gr	0,0179–0,193	0,08–0,104	0,064–0,127
Jami ko'p to'yinmagan yog'li kislotalar, gr	0,469-0,526	0,169-0,219	0,175-0,346

Yasmiqning diabetga qarshi faolligi .Świeca va boshqalar. Unib chiqqan yasmiqni muntazam iste'mol qilish diabetning oldini olish va davolash uchun foydali ekanligini kuzatdi. Yasmiq diabetga chalingan va sog'lom odamlarda qon glyukoza, lipid va lipoprotein metabolizmini yaxshilash qobiliyatiga ega [4] . Polifenolga boy yasmiq urug'ining diabetga qarshi potentsialini ko'rsatadigan in vitro va in vivo tadqiqotlari 4-jadvalda jamlangan. Bundan tashqari, yasmiq va diabetga chalingan hayvonlar modellari bilan bog'liq tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yasmiqning yuqori flavonoid va tolali tarkibi o'ynaydi. Ichak motorikasida muhim rol o'ynaydi va diabetik kalamushlarda metabolik nazoratning buzilishini oldini oladi, shuning uchun diabet bilan og'rigan bemorlar uchun istiqbolli ta'sir ko'rsatadi . Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda pishirilgan yasmiqni (50 g) muntazam ravishda iste'mol qilish streptozototsin (STZ) qo'zg'atadigan diabetga chalingan hayvonlarda ochlikdagi qand miqdori (FBS), glisemik yuk va glisemik indeksning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi . Ratsiondan glisemik indeksning pasayishi yasmiqda polifenollarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, ular diabet, semizlik,

yurak-qon tomir kasalliklari va yurak-qon tomir kasalliklari kabi metabolik kasalliklarga salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq [3]. Bundan tashqari, in vitro va in vivo tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ratsiondagi yasmiq kraxmalning hazm bo'lishini, glisemik yukni va glisemik indeksni tartibga soladi, bu diabet asoratlarini kamaytiradi. Shunday qilib, yasmiqni o'z ichiga olgan parhez diabetning oldini olish uchun samarali aralashuv va boshqaruv strategiyasi bo'lib ko'rinadi.

Yasmiq minerallarining fiziologik vazifalari. Ming yillar davomida o'zining ozuqaviy xususiyatlari uchun iste'mol qilinganiga qaramay, ularning inson salomatligiga potentsial ta'siriga qiziqish faqat so'nggi o'n yilliklarda qayta tiklandi [5]. Pulse minerallari, shu jumladan yasmiqlar organizmda fiziologik rol o'ynaydi.

Temir (Fe) deyarli barcha tirik organizmlar uchun juda muhimdir; u kislorod tashish, DNK sintezi va elektron tashish kabi turli xil metabolik jarayonlarda ishtirok etadi. Sink (Zn) odamlar uchun muhim element bo'lib, oqsil, lipidlar, nuklein kislotalar almashinuvi va gen transkripsiyasida keng ishtirok etadi. Uning inson tanasidagi funktsiyasi ko'payish, yaralarni tiklash, immunitet funktsiyasi va mikrohujayralar darajasida makrofag, neytrofil, tabiiy qotil hujayra va komplement faolligida kengdir [5]. Mis (Cu) gem sintezi va Fe ning yutilishi uchun muhim katalizatoridir; u o'zining ko'p ko'rinishida organizmdagi uchinchi eng keng tarqalgan mineraldir. Bu nevrologik va gematologik tizim uchun zaruriy element. Marganets (Mn) bir nechta fermentlarning sintezi va faollashuvida hamda odamlarda glyukoza va lipidlar almashinuvini boshqarishda ishtirok etadigan muhim komponent hisoblanadi. Kaltsiy (Ca) inson salomatligidagi bir nechta funktsiyalar uchun zarur bo'lgan muhim oziq moddadir; Bu tanadagi eng keng tarqalgan mineral bo'lib, 99% suyak va tishlarda mavjud. Ca metabolizmi oqsil, D vitamini va P kabi boshqa oziq moddalarni o'z ichiga oladi. Kaliy (K) muhim oziq moddalardir; u hujayra ichidagi suyuqlikdagi eng ko'p kation bo'lib, u erda hujayra funktsiyasini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Uning hujayra membranasi bo'ylab gradienti hujayra membranasi potentsialini aniqlaydi, bu ko'p qismda Na-K ($\text{Na}^+ - \text{K}^+$) ATPaz nasosi ion kanali tomonidan saqlanadi [6]. Magniy (Mg) 300 dan ortiq fermentativ reaksiyalar uchun kofaktor sifatida zarur bo'lgan muhim tarkibiy qismdir va shuning uchun ko'plab metabolik yo'llarning biokimyoviy ishlashi uchun muhimdir. Mg mushaklarning qisqarishini (shu jumladan yurak), qon bosimini va insulin metabolizmini tartibga solish uchun zarur bo'lib, DNK, RNK va oqsillarni sintez qilish uchun zarurdir. Fosfor (P) hujayraning normal gomeostatik nazoratini ta'minlaydigan hayotiy biologik reaksiyalar uchun zarur bo'lgan muhim elementdir. Ushbu ozuqa ko'plab hujayra tuzilmalarining, jumladan nuklein kislotalar va hujayra membranalarining muhim tarkibiy qismidir. Adekvat P balansi energiya almashinuidan hujayra signalizatsiyasigacha bo'lgan asosiy hujayra funktsiyalarini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, ko'plab hujayra ichidagi yo'llar muhim hujayra

reaktsiyalari uchun fosfat ionlaridan foydalanadi; shuning uchun fosfatning gomeostatik nazorati eng aniq biologik reglamentlardan biri hisoblanadi[7]. Natriy (Na) inson salomatligi uchun plazma hajmini saqlab turish, tanadagi suv miqdori va elektrolitlar muvozanatini tartibga solish, asab impulslarini uzatish va normal hujayra funksiyasi uchun muhim mineraldir; ammo, uning inson ratsionida ortiqcha bo'lishi yuqori qon bosimiga olib keladi. Bu muammo ko'pincha tuzdan tashqari shakar va yog'ning ko'p iste'mol qilinishi bilan bog'liq. Selen (Se) inson salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhim iz mineraldir. Selenoproteinlarning tarkibiy qismi sifatida Se fermentativ va tizimli funktsiyalarga ega va u faol qalqonsimon gormon ishlab chiqarish uchun antioksidant va katalizator sifatida tanilgan. Se immun tizimining to'g'ri ishlashi uchun zarur bo'lib, virulentlikning rivojlanishiga qarshi kurashda va OIVning OITSga o'tishini inhibe qilishda asosiy ozuqa moddasi bo'lib ko'rinadi.

Yasmiq urug'ini iste'mol qilish. Dukkaklilarni suvda 24 soatgacha namlash odatda urug'larni iste'mol qilishga tayyorlashning birinchi bosqichidir. Ba'zida nihollar oziq-ovqat dukkaklilarning unib chiqishi tufayli hosil bo'ladi. Bu antinutrient omillarning parchalanishi orqali urug'larning ta'mi va ozuqaviy sifatini yaxshilashga olib keladi. Biroq, uzoq vaqt davomida namlash dukkaklilarning ozuqaviy qiymatiga ta'sir qiladi. Fermentatsiya - oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashning yana bir usuli; u dunyoning ko'plab mintaqalarida dietada juda muhim rol o'ynaydi. Fermentlangan dukkakli mahsulotlar organoleptik xususiyatlari va tuzilishi tufayli tez mashhurlikka erishmoqda[7]. Darhaqiqat, dukkakli o'simliklarning fermentatsiyasi istalmagan ta'mni yo'qotish, saqlash muddatini uzaytirish, oziq-ovqatning hazm bo'lishi va xavfsizligini yaxshilash imkonini beradi. Osiyo va Afrikada an'anaviy ravishda qo'llaniladigan yana bir dukkakli jarayon - tegirmon. Birinchidan, dukkakli urug'lar tashqi qismini (qobig'ini) olib tashlashga yordam berish uchun quruq va ho'l usullarni qo'llagan holda ko'pincha oldindan ishlov beriladi. Ikkala usul ham endospermning qisqarishiga olib keladi, shuning uchun frezalash orqali osongina olib tashlash uchun qoplamani bo'shatadi. Ho'l usul dukkakli urug'larni bir oz suv bilan aralashtirish, so'ngra drenajlash va quyoshda quritish orqali amalga oshiriladi. Odatda Hindistonda qo'llaniladigan quruq usul dukkakli urug'larni yog' va juda oz miqdorda suv bilan ishlov berilgandan keyin quyoshda quritishni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United States Department of Agriculture (USDA) Agricultural Research Service, National Nutrient Database for Standard Reference Release 28. Nutrient Database Laboratory Home Page. [(accessed on 14 August 2016)]; Available online: <https://ndb.nal.usda.gov/ndb/search/list>

2. Ryan E., Galvin K., O'Connor T.P., Maguire A.R., O'Brien N.M. Phytosterol, squalene, tocopherol content and fatty acid profile of selected seeds, grains, and legumes. *Plant Foods Hum. Nutr.* 2007;62:85–91. doi: 10.1007/s11130-007-0046-8. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]

3. Rodriguez C., Frias J., Vidal-Valverde C., Hernandez A. Correlations between some nitrogen fractions, lysine, histidine, tyrosine, and ornithine contents during the germination of peas, beans, and lentils. *Food Chem.* 2008;108:245–252. doi: 10.1016/j.foodchem.2007.10.073. [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]

4. Świeca M., Baraniak B., Gawlik-Dziki U. In vitro digestibility and starch content, predicted glycemic index and potential In Vitro anti-diabetic effect of lentil sprouts obtained by different germination techniques. *Food Chem.* 2013;138:1414–1420. doi: 10.1016/j.foodchem.2012.09.122. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]

5. Aslani Z., Mirmiran P., Alipur B., Bahadoran Z., Farhangi M.A. Lentil sprouts effect on serum lipids of overweight and obese patients with type 2 diabetes. *Health Promot. Perspect.* 2015;5:215–224. doi: 10.15171/hpp.2015.026. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]

6. Wolever T.M., Katzman-Relle L., Jenkins A.L., Vuksan V., Josse R.G., Jenkins D.J. Glycaemic index of 102 complex carbohydrate foods in patients with diabetes. *Nutr. Res.* 1994;14:651–669. doi: 10.1016/S0271-5317(05)80201-5. [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]

6. Shams H., Tahbaz F., Entezari M., Abadi A. Effects of cooked lentils on glycemic control and blood lipids of patients with type 2 diabetes. *ARYA Atheroscler.* 2008;4:1–5. [[Google Scholar](#)]

7. Al-Tibi A.T.B., Takruri H.R., Ahmad M.N. Effect of dehulling and cooking of lentils (*Lens culinaris*, L.) on serum glucose and lipoprotein levels in streptozotocin-induced diabetic rats. *Malays. J. Nutr.* 2010;16:409–418. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

SHAKAR O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR

*Qobilov Feruz Shuxrat o'g'li**Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti**Fayzullayeva Gulchehra Akbarali qizi**Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shakar o'rnini bosuvchi qandli diabet kasalligida iste'mol qilsa bo'ladigan totlantiruvchilar haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В этой статье представлена информация о заменителях сахара, которые можно употреблять диабетикам

Annotation: This article provides information about the sweeteners that sugar substitutes can consume in diabetics.

Kalit so'zlar: Shakar, fruktoza, saxarin, sorbitol, ksilitol, stavia, siklamat, kaloriya, qandli diabet, immunitet.

Ключевые слова: Сахар, фруктоза, сахарин, сорбит, ксилит, ставия, циклакат, калории, диабет, иммунитет.

Key words: Sugar, fructose, saccharin, sorbitol, xylitol, stavia, cyclamate, calories, diabetes, immunity.

Shakar – oq-sariq kristall modda. Shakarni azal-azaldan butun dunyo aholisi iste'mol qilib kelgan. Shakarqamishdan shakar olish Hindistonda eramizdan oldingi IV asrda ma'lum bo'lgan ekan. Eramizning X asriga kelib shakarqamish yetishtirish va undan shakar olish Suriya, Misr, Eron, Amerika kashf etilgan, keyin esa Janubiy Amerika mamlakatlarida tarqalgan. Shakarqamishdan shakar ishlab chiqarish Antil orollarida jadal tarqalgan bo'lib u yerdan dengiz orqali Yevropaga keltirilgan. Ko'p yillar davomida shakar oz miqdorda shirinlik sifatida iste'mol qilinib kelingan. Hozirgi vaqtda shakar qandolatchilik, novvoylik, konservalash sanoatida, yaxna ichimliklar, muzqaymoq va boshqa mahsulotlarni tayyorlashda xomashyo sifatida keng qo'llaniladi va inson tomonidan bevosita iste'mol qilinadi.[1]

Ammo shakarni ko'p miqdorda iste'mol qilish inson salomatligiga salbiy tasir qiladi. Tishlarning emal qatlamini yemirilishi, ya'ni kariyes kasalligi paydo bo'lishi va eng havfli qandli diabet kasalligi kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda bu kasallik bilan butun dunyo aholisi kasallanmoqda. Bu kasallik yoshi katta insonlarda ko'proq uchraydi. Hozirgi kunda bu kasallik bilan nafaqat yoshi katta insonlar balki yosh bolalar va hatto chaqaloqlar shu kasallik bilan tug'ilmoqda. Bu kasallikni oldini olish maqsadida butun dunyo olimlari shakar o'rnini bosuvchi mahsulotlarni iste'mol qilishlarini tavsiya qilishmoqda. Bu mahsulotlar ham zararli bo'lsada dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari aynan shakar o'rnini bosuvchi mahsulotlardan

foydalanishni tavsiya etmoqda. Qandli diabet kasalligida ham bu mahsulotlarning ba'zilarini iste'mol qilish mumkin. Bu mahsulotlar shakardan bir necha barobar shirin, ammo, energetik quvvati kam.

Shakar o'rnini bosuvchi oziq-ovqat qo'shimchasi bo'lib, shakarga o'xshash shirin ta'mni ta'minlaydi va shakarga asoslangan shakar o'rnini bosuvchi mahsulotlar sezilarli darajada kamroq oziq-ovqat energiyasini o'z ichiga oladi va uni nol kaloriya (oziq bo'lmagan) yoki past kaloriyali totlantiruvchi qiladi. Sun'iy shakar o'rnini bosuvchi mahsulotlar o'simlik ekstraktlarini ishlab chiqarish yoki kimyoviy sintez orqali qayta ishlanishi mumkin. Shakar o'rnini bosuvchi mahsulotlar tijoratda kichik tabletkalar, kukunlar va paketlar kabi turli shakllarda mavjud. Shimoliy Amerikada umumiy shakar o'rnini bosuvchi moddalar orasida aspartam ($C_{14}H_{18}N_2O_5$), rohib mevasi ekstrakti, saxarin ($C_7H_5NO_3S$), sukraloza ($C_{12}H_{19}Cl_3O_8$) va steviya ($C_{38}H_{60}O_{18}$) mavjud; siklamat ($C_6H_{12}NNaO_3S$) Qo'shma Shtatlardan tashqarida ham qo'llaniladi. Ushbu totlantiruvchilar dietali ichimliklarning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ularni kaloriya qo'shmasdan shirin qiladi. Bundan tashqari, eritritol ($C_4H_{10}O_4$), ksilitol ($C_5H_7(OH)_5$) va sorbitol ($C_6H_{14}O_6$) kabi shakar spirtlari shakarlardan olinadi. Tasdiqlangan sun'iy totlantiruvchilar saratonga olib kelmaydi, va tish kariyesini keltirib chiqarmaydi. Sharhlar va dietologlar shakarni xavfsiz almashtirish sifatida oziqlantiruvchi bo'lmagan totlantiruvchilardan o'rtacha darajada foydalanish energiya iste'molini cheklash va qon glyukoza va vaznini boshqarishda yordam berishi mumkin degan xulosaga kelishdi.[3] Diabetga chalinganlar uchun ham bazi totlantiruvchilarni tanlash mumkin. 2-toifa diabetga chalinganlar asosan o'rta va keksa odamlarga ta'sir qilishini hisobga olsak, bunday qo'shimchalar tarkibidagi har qanday zararli komponentlar yosh avlodga qaraganda ularga kuchliroq va tezroq ta'sir qiladi. Bunday odamlarning tanasi kasallik tufayli zaiflashadi va yoshga bog'lik o'zgarishlar immunitetga va umumiy hayotiylikka ta'sir qiladi. 2- toifa diabet bilan og'riqan bemorlar uchun totlantiruvchilar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Tana uchun imkon qadar havfsiz bolishi kerak;
- Past kaloriya tarkibga ega bo'lishi kerak;
- Yoqimli ta'mga ega bo'lishi kerak;[4]

Totlantiruvchilarning ham bir qancha turlari mavjud. Yuqori zichlikdagi totlantiruvchilar - shakar o'rnini bosuvchi moddalarning bir turi - saxaroza, oddiy istemol shakaridan ko'p marta shirin bo'lgan birikmalar. Natijada, kamroq totlantiruvchi talab qilinadi va energiya hissasi ko'pincha ahamiyatsiz bo'ladi. Ushbu birikmalar ("shirinlik profili") tufayli yuzaga kelgan shirinlik hissi ba'zan saxarozadan sezilarli darajada farq qiladi, shuning uchun ular ko'pincha eng kuchli shirinlik hissini ta'minlaydigan murakkab aralashmalarda qo'llaniladi.[3]

Agar almashtirilgan sukroz (yoki boshqa shakar) mahsulotning tuzilishiga hissa qo'shgan bo'lsa, unda ko'pincha ko'paytiruvchi vosita ham kerak bo'ladi. Buni sun'iy

totlantiruvchilar o'z ichiga olgan "diet" yoki "engil" deb belgilangan alkogolsiz ichimliklar yoki shirin choylarda ko'rish mumkin va ko'pincha og'izda sezilarli darajada farqlanadi yoki qoniqarli tekstura hissini qo'lga kiritish uchun maltodekstrinlarni kuchli totlantiruvchilar bilan aralashtiradigan stol shakarini almashtirishda ko'rish mumkin.[3]

Qo'shma Shtatlarda oltita yuqori intensiv shakar o'rnini bosuvchi moddalar foydalanish uchun tasdiqlangan: aspartam, sukraloza, neotam, kaliy asesulfam (Ace-K), saxarin va advantam. Oziq-ovqat qo'shimchalari FDA (Food and Drug Administration) tomonidan tasdiqlanishi kerak va totlantiruvchilar GRAS (Generally recognized as safe) hujjatini ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilishi orqali xavfsiz ekanligi isbotlanishi kerak. GRAS (Generally recognized as safe) haqidagi xulosalar jiddiy toksikologik va klinik tadqiqotlarni o'z ichiga olgan katta hajmdagi ma'lumotlarni batafsil ko'rib chiqishga asoslangan. Ikki o'simlikka asoslangan, yuqori intensiv totlantiruvchilar uchun GRAS (Generally recognized as safe) bildirishnomalari mavjud: steviya barglaridan olingan steviol glikozidlari (*Stevia rebaudiana*) va *Siraitia grosvenori* ekstrakti, shuningdek, *luo xan guo* yoki rohib mevasi deb ataladi. Qandli diabet kasalligida tavsiya etiladigan totlantiruvchilarga fruktoza, stavia, sorbitol, ksilitol, siklamat va saxarinni kiritishimiz mumkin. [3]

Fruktoza ($C_6H_{12}O_6$) – bu uglevodlar oilasiga mansub tabiiy totlantiruvchi hisoblanadi. Fruktoza kabi tabiiy totlantiruvchilar sekin so'rilishi va insulin ishtirokisiz metobalizatsiya qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Aynan shuning uchun bunday moddalar diabetga chalinganlar tomonidan ancha oson qabul qilinadi. Bundan tashqari, har qanday yoshdagi bemorlar uchun foydalanishning maqbulligiga e'tibor bering. Shu bilan birga, diabetga chalinganlar uchun bunday totlantiruvchilar siydik kislotasi darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shunga o'xshash faqat kun davomida 90 gr dan ortiq foydalanilganda aniqlanadi.[4]

Ksilitol ($C_5H_7(OH)_5$) – qandli diabet uchun taqdim etilgan shakar o'rnini bosuvchi ko'plab ijobiy xususiyatlarga ega:

- tishlarning holatini saqlab qolish va hatto yaxshilash qobiliyati;
- diabet bilan og'rigan bemorlar uchun juda muhim bo'lgan tabiiy tarkibi tufayli kilogramm halok bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- begona ta'mning yo'qligi va odatdagi shakarga maksimal yaqinlik.

Shunga qaramay, ksilitol bir qator kontrendikatsiyalar va cheklovlarga ega, masalan, laksatif va xoleretik ta'sir ko'rsatadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun faqat me'yorida shakar o'rnini bosuvchi vositadan foydalanish kerak.

Stevia ($C_{38}H_{60}O_{18}$) - shakar o'rnini bosuvchi eng maqbul turlardan biridir. Bu tabiiy tarkibga, kaloriya tarkibining minimal darajasiga bog'liq. Bunday shakar o'rnini bosuvchi moddalar diabetga chalinganlar uchun qanday foydali ekanligi haqida gapirganda, ular fosfor, marganets, kobalt va kaltsiy, shuningdek, B, K va C vitaminlari

mavjudligiga e'tibor berishadi. Bundan tashqari, taqdim etilgan tabiiy komponent diabet bilan kasallanganlar tomonidan yaxshi qo'llanilishi mumkin. efir moylari va flavonoidlar mavjudligi sababli.

Stevia foydalari:

shakardan ancha shirin;

deyarli kaloriya yo'q;

oshqozon va ichak shilliq qavatining holatini yaxshilaydi;

uzoq muddat foydalanish bilan inson qonidagi shakar darajasini normallantiradi;

hamyonbop;

suvda yaxshi eriydi;

organizmning himoya kuchini oshiradigan antioksidantlarni o'z ichiga oladi.

Steviyaning kamchiliklari:

o'ziga xos sabzavotli ta'mga ega (garchi ko'p odamlar buni juda yoqimli deb bilishadi);

Qandli diabetga qarshi dori-darmonlar bilan haddan tashqari ishlatilsa, u gipoglikemiyaga olib kelishi mumkin, shuning uchun ushbu shakar o'rnini bosuvchi vositadan foydalanganda qondagi qand miqdorini vaqti-vaqti bilan kuzatib borish kerak.

Sorbitol ($C_6H_{14}O_6$)

Ushbu shakar o'rnini bosuvchi past kaloriya tarkibiga ega, ya'ni gramm uchun 2,6 kkal. To'g'ridan-to'g'ri 2-toifa diabetga chalinganlar uchun foyda haqida gapirganda, ular quyidagilarga e'tibor berishadi:

tabiiy ravishda olma, tog 'kuli, o'rik va boshqa mevalarda mavjud;

modda toksik emas va shakarning yarmiga teng;

kompozitsiya qon glyukoza darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi;

Sorbitol suvda tez eriydi va qaynatish, qovurish va pishirish kabi texnik ishlov berishdan o'tishi mumkin.[4]

Bundan tashqari, bu to'qimalar va hujayralardagi keton tanalarining kontsentratsiyasini oldini olishga qodir bo'lgan taqdim etilgan totlantiruvchi. Shu bilan birga, tez-tez foydalanish va diabetik ovqat hazm qilish tizimida muammolar mavjudligi sababli, yon ta'siri (yurak yonishi, shishiradi, toshma va boshqalar) mumkin. Qandli diabetda kilogramm ortishiga yo'l qo'ymaslik uchun kaloriyalarni hisoblash muhimligini yodda tuting.

Saxarin ($C_7H_5NO_3S$) - taqdim etilgan turdagi totlantiruvchilar yaxshi o'rganilgan, bu, albatta, diabetga chalinganlar tomonidan ulardan foydalanish xavfsizligi va samaradorligini kafolatlaydi. Ratsionda paydo bo'lganda, kunlik stavka va kaloriya qiymatlarini hisobga olish tavsiya etiladi. Shunday qilib, biz 100 g ga kaloriya miqdori esa har bir kg tana vazniga besh mg haqida gapiramiz. mahsulot 360 kkal. Shuni esda

tutish kerakki, saxarinning inson tanasi tomonidan so'rilishiga qaramay, vazn yo'qotish uchun kundalik foydalanish istalmagan.[4]

1-toifa va 2- toifa diabet uchun qanday totlantiruvchilardan foydalanish mumkin.

Tabiiy totlantiruvchilar	Shakardan shirinlik koeffitsienti	Sun'iy totlantiruvchilar	Shakardan shirinlik koeffitsienti
Fruktoza	1,73	Saxarin	500
Maltoza	0,32	Siklamat	50
Laktoza	0,16	Aspartam	200
Steviya	300	Mannitol	0,5
Tavmatin	3000	Ksilitol	1,2
Osladin	3000	Dulsin	200
Filodulsin	300		
Monellin	2000		

Shakar o'rnini bosuvchi totlantiruvchilarni ko'p miqdorda iste'mol qilish bir qancha kasalliklarga olib keladi. Masalan aspartam va ba'zi bir sun'iy totlantiruvchilar ko'p miqdorda iste'mol qilinganda saraton kasalligini olib keladi. Xomilador ayollar va yosh bolalarga sun'iy totlantiruvchilar iste'molga bermaslik tafsiya etiladi. Sababi bu moddalar tarkibida ular organizmidagi o'zgarishlar va rivojlanishlarga nojo'ya ta'sir ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, totlantiruvchilar polihidrik spirtlar, glikozidlar va uglevodlar bo'lmagan, lekin ayni paytda shirin ta'mga ega bo'lgan boshqa moddalardir. Ushbu moddalar organizmda insulin ishtirokisiz parchalanadi, ularning parchalanishidan keyin glyukoza hosil bo'lmaydi. Shuning uchun bu moddalar diabet kasalligida glyukoza miqdoriga ta'sir qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vasiyev M.G', Dadayev Q. O, Isaboyev I.B, Sapayeva Z.Sh, G'ulomova Z.J. Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari. // "Voriz – nashruiyot" – Toshkent, 2012.
2. Djaxongirova G.Z, Maxmudova D.X, G'afforxonova M.A. non, makaron va qandolat mahsulotlari ekspertizasi. // "O'zbekiston xaqqaro islom akademiyasi" – Toshkent, 2020
3. [^]["Oziqlantiruvchi va ozuqaviy tatlandiricilar manbalari | Oziq-ovqat va ovqatlanish to'g'risida ma'lumot markazi | NAL | USDA"](http://www.nal.usda.gov). www.nal.usda.gov.
4. "Oziqlantiruvchi va ozuqaviy bo'lmagan tatlandiricilar manbalari | Oziq-ovqat va ovqatlanish ma'lumotlar markazi | NAL | USDA" (<https://www.nal.usda.gov/fnic/nutritive-and-nonnutritive-sweetener-resources>) . www.nal.usda.gov. (<https://www.nal.usda.gov/fnic/nutritive-and-nonnutritive-sweetener-resources>)

FARMASEFTIKADA ALOE SUVI ISHTIROKIDA HOZIRDA YANGI PREPARATLAR ISHLAB CHIQRISH

Egamberdiyeva Marjona Xusniddin qizi

Toshkent kimyo texnologiya instituti SHahrisabz filiali o`qituvchisi


Odilova Muxlisa Xusniddin qizi

3 kurs talabasi Toshkent kimyo texnologiya instituti SHahrisabz filiali

Annotatsiya: Ushbu maqola aloe haqida qiziqarli ma'lumotlar va hozirgi kunda aloe o'simligining farmatseftikada yangi preparatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida ba'yon etilgan. Aloe haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: immunitet, biogen stimulator, bakteresid xususiyati, diabet xastaligi, ko'z kasalliklari, ginekologik kasalliklar, metabolitik jarayonlar, komponentlar.

Ma'lumki, aloe o'simligi juda ham foydali o'simlik hisoblanadi. Organizmda kechadigan turli xil kasalliklarni oldini olishda samarali vositadir. Lekin, ko'pchilik ushbu o'simlikni oddiy xona o'simligi sifatida qaraydi. Aslida esa, aloening meditsenadagi xususiyatlari juda ham katta. Aloe o'simligi haqida bir qancha qiziqarli ma'lumotlar berib o'tishga harakat qilaman. Aloe suvi yoki shirasi ichak tutilishini, va bir qancha yuqumli kasalliklarda, jumladan yallig'lanish, diabet va yuqori qon bosimini nazorat ostida ushlabda ishlatiladi. Aloe suvi immunitet tizimini kuchaytiradi, hamda yuqori nafas yo'llari shamollash kasalliklarini oldini oladi. Teri va soch sifatini yaxshilaydi. Tibbiyotda qo'llash uchun aloening yangi yig'ilgan bargidan shira olinadi va spirt bilan konservalanadi. Shira bakteresid xususiyatiga ega bo'lib, kuygan joyni, yuqumli va boshqa yaralarni hamda me'da va ichakning ba'zi kasalliklari (kolit, gastrit va boshqalarni) davolashda ishlatiladi. Aloening suvli ekstrakti immunostimullovchi xususiyatga ega bo'lib, organizmni turli kasalliklardan himoya qiladi. Shuningdek, biogen stimulyatorlarga boy aloe barglaridan kanakunjut yog'i hamda ekvalipt efir moyi qo'shib, aloe emulsiyasi tayyorlanadi. Ushbu preparatlar organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Shuning uchun aloe bargidan tayyorlangan stimulyatorli suyuq ekstrakt ko'z kasalliklari ([konyunktivit](#), ko'z shishasimon tanachasining xiralashishi va boshqalar) ni surunkali [artrit](#), oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini ham davolashda keng qo'llaniladi.[1]



1-rasm. Aloe o'simligining tuzilishi.

Zn ning saratonga qarshi ta'siri asosan uning oksidlovchi va yallig'lanishga qarshi xususiyatlari bilan bog'liq. (Wessels I va boshq, Nutrients, 2017; Skrajnowska D va boshq, Nutrients, 2019) Quyida keltirilgan saraton xavfi yuqori bo'lgan sink etishmovchiligini (sinkga boy oziq-ovqatlarni kam iste'mol qilish sababli) birlashishi haqida xabar bergan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Saraton va oziqlanish kohortasi bo'yicha Evropa istiqbolli tekshiruvining ish nazorati ostida o'tkazilgan tadqiqotida jigar saratoni (gepatotsellular karsinoma) rivojlanish xavfi kamaygan Sink mineral darajasining oshishi bilan bog'liqligi aniqlandi. Sink darajasining safro yo'llari va o't pufagi saratoniga aloqasi yo'qligini aniqladilar. (Stepien M wt al, Br J Saraton, 2017). Sog'lom ko'ngillilar bilan taqqoslaganda yangi tashxis qo'yilgan ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlarda sink zardobida sezilarli darajada pasayish kuzatildi. (Kumar R va boshq, J Cancer Res. Ther., 2017)

Eron kohortasida ular kolorektal saraton kasalligida sog'lom nazorat bilan taqqoslaganda sarum Sinkning sezilarli darajada pasayganligini aniqladilar. (Khoshdel Z va boshq, Biol. Trace Elem. Res., 2015)

Meta-tahlil natijalariga ko'ra o'pka saratoniga chalingan bemorlarda zardobdagi Sink darajasi sezilarli darajada pastligi haqida xabar berilgan. (Vang Y va boshq, World J Surg. Oncol., 2019). Sinkning past darajadagi o'xshash tendentsiyalari ko'plab boshqa saraton kasalliklarida, shu jumladan bosh va bo'yin, bachadon bo'yni, qalqonsimon bez, prostata va boshqalarda qayd etilgan.

Selenli oziqlanish va saraton xavfi: Tanadagi selenyumning past darajasi o'lim xavfi va immunitetning yomonligi bilan bog'liq. Ko'pgina tadqiqotlar Selenyum mineral darajasining yuqori bo'lishining prostata, o'pka, kolorektal va siydik pufagi saratoniga ta'sirini ko'rsatdi. (Rayman MP, Lancet, 2012)

Kuniga 200mkg bo'lgan selenli qo'shimchalar prostata saratoni bilan kasallanishni 50% ga, o'pka saratoni bilan kasallanishni 30% ga va kolorektal saraton kasalligini 54% ga kamaytirdi. (Reid ME va boshq., Nutr & Cancer, 2008) Saraton kasalligi aniqlanmagan sog'lom odamlar uchun, shu jumladan oziqlanishning bir qismi bo'lgan selenyum uchun tabiiy qotil hujayralar faolligini oshirish orqali immunitetni kuchaytirishi haqida xabar berilgan. (Büntzel J va boshq, Antikanser Res., 2010). Bundan tashqari, selenyumga boy oziqlanish saraton kasallariga kimyoviy terapiya bilan bog'liq toksik ta'sirlarni kamaytirish orqali yordam beradi. Ushbu qo'shimchalar Xodkin bo'lmagan lenfoma kasalligi uchun yuqtirish darajasini sezilarli darajada pasaytirgani ko'rsatilgan. (Asfour IA va boshq., Biol. Trace Elm. Res., 2006)

Selenning oziqlanishi, shuningdek, ba'zi bir kimyoviy ta'sirga ega buyrak toksikligini va suyak iligi bostirilishini kamaytirishi ko'rsatilgan (Xu YJ va boshq, Biol. Trace Elem. Res., 1997), va yutish qiyinligi sababli radiatsiyaviy toksikani kamaytiradi. (Büntzel J va boshq, Antikanser Res., 2010)

Suyak va mushaklar salomatligi uchun biz etarli miqdorda kaltsiy iste'mol qilishimiz kerak, lekin kuniga 1000-1200 mg tavsiya etilgan me'yordan oshib ketadigan kaltsiyni ko'p miqdorda iste'mol qilish foydali bo'lmasligi mumkin va saraton bilan bog'liq o'limning ko'payishi bilan salbiy aloqada bo'lishi mumkin. Balansli sog'lom ovqatlanishning bir qismi sifatida tabiiy oziq -ovqat manbalaridan olingan kaltsiyni yuqori dozali kaltsiy qo'shimchalarini qo'llash tavsiya etiladi.[4]

Minerallar organizmdagi metabolizm va gomeostazda turli funktsiyalar va potentsiallarga ega bo'lganligi sababli, bu bioaktiv tarkibiy qismlarning yetishmasligi keng tarqalgan kasalliklar va kasallik belgilarining ko'p uchraydigan holatlariga olib kelishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsiz boyitish va qayta ishlash texnikasi nuqtai nazaridan mineral tarkibini saqlash bilimlari ularning so'rilishini va bioavailability darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Minerallar ko'pchilik vitaminlar kabi samarali so'rilmaydi va shuning uchun minerallarning biologik mavjudligi juda past bo'lishi mumkin. O'simliklarga asoslangan oziq-ovqatlar ko'pincha minerallarni bog'laydigan va ularning so'rilishini inhibe qiluvchi oksalat va fitat kabi omillarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, minerallar hayvonlarga asoslangan oziq-ovqatlardan yaxshiroq so'riladi. Ko'pgina hollarda, agar ma'lum bir mineralning dietadagi iste'moli ko'paytirilsa, so'rilish kamayadi. Ba'zi minerallar boshqalarning so'rilishiga ta'sir qiladi. Masalan, ratsiondagi ortiqcha rux temir va misning so'rilishini buzishi mumkin. Aksincha, ba'zi vitaminlar minerallarning so'rilishini kuchaytiradi. Masalan, S vitamini temirning so'rilishini, D vitamini esa kaltsiy va magniyning so'rilishini kuchaytiradi.[7]

Oziq-ovqatlardagi minerallarning biologik mavjudligiga qayta ishlash, parhez omillari, promotorlar va inhibitorlar ta'sir qiladi. Bundan tashqari, minerallarning bioavailability va bioavailability o'lchash metodologiyalari muhim ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, rivojlanayotgan texnologiyalarning oziq-ovqat minerallariga ta'siri bo'yicha juda kam tadqiqotlar mavjud. Boshqa jarayonlar singari, rivojlanayotgan texnologiyalar minerallarga ta'sir qilmaydi, lekin ular bilan bog'liq bo'lgan makromolekulalar (masalan, tuzilish, fizik xususiyatlar) ga ta'sir qiladi. Bunday jismoniy o'zgarishlarning minerallarning biologik mavjudligiga ta'siri hali to'liq aniqlanmagan.

Minerallar organizmdagi metabolizm va gomeostazda turli funktsiyalar va potentsiallarga ega bo'lganligi sababli, bu bioaktiv tarkibiy qismlarning etishmasligi keng tarqalgan kasalliklar va kasallik belgilarining ko'p uchraydigan holatlariga olib kelishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsiz boyitish va qayta ishlash texnikasi nuqtai nazaridan mineral tarkibini saqlash bilimlari ularning so'rilishini va bioavailability darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.[8]

Turli xil oziq-ovqat preparatlarini boyitish uchun eng asosiy minerallar temir, kaltsiy, sink va yoddir. Izotopik yondashuvlardan foydalanish oziq-ovqat minerallarining bioavailability qiymatlarini sezgir tarzda aniqlashi mumkin. Zamonaviy qayta ishlash usullari (masalan, yuqori bosim va sonikatsiya) an'anaviy jarayonlarga nisbatan mikro va makro-minerallarning tarkibiga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agrobiotexnologik usullardan foydalangan holda ekinlarning yeyiladigan to'qimalarida mineral elementlarning to'planishi (masalan, genlarni haddan tashqari ko'paytirish va faollashtirishni nazorat qilish) va ularni to'g'ridan-to'g'ri qayta ishlangan oziq-ovqatlarni ishlab chiqarishda nanokapsulyatsiya bilan mustahkamlash ushbu bioaktiv ingredientlarning kontsentratsiyasini va biologik kirish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.N. Mo'minova, M.A. Maxsumova, N.B. Mansurova, OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TOVARSHUNOSLIGI; Toshkent — "ILM ZIYO"— 2017
2. Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari; M.G Vasiyev, Q.O.Dadayev, I.S.Isaboyev, Z.Sh.Sapayeva, Z.J.G'ulomova. "IDEAL PRESS",2021
3. <https://toitumine.ee/ru/energiya-i-potrebnost-v-pitatelnyh-veshhestvah/mineralnye-veshhestva>.
4. <https://addon.life>.
5. Imomaliyev A., ZikiriyoyevA., O'simliklar biokimyosi, T., 1987.
6. T.Xudoyshukurov, N.Muhamadiyev, N.Mo'minov, I.Shukurov "Ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish asoslari" Toshkent-2019
7. Manoadagi Gavayi universiteti Oziq-ovqat fanlari va inson ovqatlanishi dasturi, “ Minerallar: Kirish ”
8. <https://www.sciencedirect.com>

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPONENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Mansurova Nilufar Muxtimovna

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti
Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini klasterli yondashuv asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish ko'rsatmalari berilgan.

Tayanch so'zlar: klaster, klasterli yondashuv, aksiologik, psixologik, metodlar, maqsad

Аннотация: В данной статье дана инструкция по повышению профессиональной компетентности учителей начальных классов на основе кластерного подхода.

Ключевые слова: кластер, кластерный подход, аксиологический, психологический, методы, цель.

Abstract: This article provides instructions for improving the professional competence of elementary school teachers based on the cluster approach.

Key words: cluster, cluster approach, axiological, psychological, methods, purpose

KIRISH

Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat bo'lgan jarayondir.

Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa shaxsning ya'ni ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iboratdir. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Metod – grekcha “metodos” soʻzidan olingan boʻlib, izlanish yoki bilish yoʻli, nazariya, taʼlimot maʼnosini anglatadi.

Taʼlim metodini(usulini) - taʼlim oluvchi va taʼlim beruvchining maʼlum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yoʻl-yoʻrigʻi sifatida taʼriflash mumkin.

Taʼlim modelini esa bir yoki bir nechta taʼlim metodlari yordamida amalga oshiriladigan taʼlim jarayonini amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin.

Taʼlim metodi -bu taʼlim oluvchi va taʼlim beruvchining maʼlum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yoʻl-yoʻrigʻidir.

“Metod” yunoncha soʻz boʻlib “yoʻl” maʼnosini anglatadi. Taʼlim metodi taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.

Taʼlim metodlari oʻqitishning oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishish usullari hamda oʻquv materialini nazariy va amaliy jihatdan yoʻnaltirish yoʻllarini anglatadi.

Oʻqitish metodlari taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatining qanday boʻlishi, oʻqitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda oʻquvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Hozirgi vaqtda taʼlim tizimida mavjud boʻlgan resurslardan samarali foydalanish, tashqi va ichki omillarga muvaffaqiyatli qarshilik koʻrsatishga imkon beradigan, maktablarni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlaridan biri klasterli yondashuvdir.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda boʻlgan taʼlim, ilmiy, injiniring, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uygʻunlashtirish – innovatsion ishlabchiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yoʻnaltirishdan iborat.

“Klaster” nazariyasining asosi boʻlib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan “Iqtisodiyot prinsiplari” nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uygʻunlashishi toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari boʻyicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi subʼektlarni hududiy uygʻunlashuvi:

- malakaviy mehnat resurslarining borligi; □ taʼminotchi va qoʻshimcha sohalarning oʻsishi;

- har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli boʻgʻinlariga ixtisoslashuvining mavjudligiga asoslanganligidir.

Birinchi marta taʼlim klasteri atamasi Maykl Evgeniy Porter tomonidan ilmiy qoʻllanishga kiritildi. U ilmiy ishlarida klasterga shunday taʼrif beradi: "klaster - bu bir

-biriga bog'langan kompaniyalar, ixtisoslashgan etkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, ma'lum sohalardagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, raqobatlashadigan, lekin shu bilan birga birgalikdagi ishlarni olib boradigan tashkilotlardir.

Maykl Porter nazariyasiga ko'ra, klaster geografik jihatdan qo'shni bo'lgan o'zaro bog'liq kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va muayyan sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat organlari, infratuzilma korxonalari) guruhidir deb izoh beradi.[1]

Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

1. Katta o'lchamdagi qog'oz yoki doskaning o'rtasiga mavzuga doir so'z yoziladi.

2. O'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq xayolga kelgan so'z va jummalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3. Yangi g'oyalar paydo bo'lishi bilan xayolga kelgan so'zlar ham darhol yozib qo'yiladi.

4. So'zlarni yozish jarayoni o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so'z va g'oyalar tugaguncha davom etadi[2].

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e'tibor bermasdan yozib borish.

2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermaslik.

3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to'xtalmasdan yozish.

4. Iloji boricha ko'proq bog'lanishlar hosil qilishga harakat qilish.

5. G'oyalar va so'zlar sonini cheklab qo'ymaslik.

Klaster atamasi ingliz tilidan tarjima qilingan "klaster" - to'da ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, klasterni tizim deb ham hisoblash mumkin, ushbu tizim element qo'shilishi natijasida uning ishlashi yaxshilanadigan va tizimdan bir elementni olib tashlash halokatli oqibatlarga olib kelmaydigan maxsus turdagi tizim bo'lib, olib tashlangan element tizim yaxlitlikni buzmaydi. Ta'lim sohasidagi klaster munosabatlarining eng oddiy namunasi - bu maktab va bolalar bog'chasining o'zaro ta'sirini keltirish mumkin[3].

MUHOKAMA

Ta'lim klasterining elementlari - bu tashkilot (universitet, biznes tuzilmasi, ta'lim muassasasi va boshqalar) yoki uning alohida tuzilmalari vazifasini hal qilishda ishtirok etadigan tuzilmalarning kombinatsiyasi bo'lishi mumkin. Ta'lim klasteri ishtirokchilarining tarkibini (uning elementlarini) vaziyatga qarab to'ldirilish mumkin.

Maktab infratuzilmasi - zamonaviy maktab infratuzilmasini ta'minlash bo'yicha chora -tadbirlar ro'yxati turli sohalarda ta'lim muassasalari va tashkilotlar, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, hordiq, biznes va boshqa muassasalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak. Infratuzilma ta'lim makonining o'lchamlari va boshqa topologik xususiyatlarini belgilaydi, bu ta'lim xizmatlarining hajmi, ta'lim ma'lumotlarining imkoniyatlari va intensivligi bilan tavsiflanadi[4].

Ta'lim klasteri - bu maktab infratuzilmasini tashkil etish usullaridan biri, klublar - bu infratuzilmaning elementlari.

Klasterni shakllantirish jarayoni sheriklar o'rtasida ehtiyojlar, texnologiyalar haqida ma'lumot almashishga asoslangan. Klasterli yondashuvda klasterning barcha a'zolari uchun turli aloqa vositalari yordamida erkin ma'lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjud.

Klasterli yondashuv metodining rivojlanishini belgilovchi muhim omillaridan biri uning tadqiqot tashkilotlari bilan aloqaga asoslanligidir.

Klaster munosabatlarining asosiy belgilari:

- izchillik;
- yaxlitlik;
- sinergik.

Sinergistik yondashuvni tizimli yondashuvning bir qismi sifatida ham qarash mumkin, bu yondashuvni o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini anglash va o'zini o'zi tashkil etish g'oyalari ustun bo'lgan ilmiy tadqiqotning mustaqil sohasi deb ham hisoblash mumkin.

Ta'lim klasteri ichidagi o'zaro ta'sir yo'nalishi - bu ma'lum bir loyiha doirasida va ma'lum bir davr mobaynida klasterning alohida elementlari o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish yo'lidir.

E.N.Semikinining so'zlariga ko'ra, klaster ta'rifida bir nechta asosiy xususiyatlarni ajratish mumkin:

- klasterda har doim bir nechta element mavjud;
- bu elementlarning barchasi bir hil bo'lishi kerak;
- bu elementlar birgalikda ishlaydi;
- ishni ular bitta elementdan ko'ra samaraliroq bajaradilar;
- natija nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham farq qiladi; - bu samaradorlikni baholash mumkin bo'lgan ma'lum mezon mavjud.

Ta'lim klasterini yaratish uchun zarur resurslarni ajratish kerak.

Inson resurslari: turli tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lgan ta'lim muassasalari rahbarlari; maktab klublari yoki kattalar va bolalarning boshqa uyushmalarining ishini tashkil etishga tayyor bo'lgan ijodiy o'qituvchilar.

Axborot manbalari:

- ta'lim klasterining barcha a'zolari va barcha a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar banki;

- ta'lim klasteriga kiritilgan barcha sub'ektlar va tashkilotlarning axborot oqimlarini shaharning umumiy axborot muhitiga kiritish.

Tashkiliy shartlar:

- innovatsion pedagogik faoliyatning markazida to'plangan tashkilot vakillarini o'z ichiga olgan tarmoq tuzilmasini aniqlash, yaratish;

- klublar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ta'lim klasteri tarkibidagi barcha elementlarning o'zaro aloqasi;

- ta'lim klasterini rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari bo'yicha muntazam marketing tadqiqotlari.

Materiallar va texnik shartlar:

Har bir ta'lim muassasasi ma'lum bir loyihani, ta'lim klasteri doirasidagi faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirish uchun mavjud moddiy - texnik bazadan foydalanish imkoniyatiga ega[4].

XULOSA

Umumta'lim muassasasining rivojlanishida ta'lim klasterining afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

➤ Ta'lim muassasasi uchun yanada tartibli tizimga (klasterga) birlashish shuningdek, boshqa tashkilotlarni ham jalb etish.

➤ Klasterlarni shakllantirish jarayoni axborot almashishga asoslangan. Sheriklar o'rtasidagi ehtiyojlar, resurslar va texnologiyalar barcha ishtirokchilar uchun turli kanallar orqali erkin ma'lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjuddir.

➤ Klasterning rivojlanishini belgilovchi muhim omillar - uning diversifikatsiyasi va innovatsionligi hamda, klasterning tadqiqot tashkilotlari bilan aloqalaridir.

➤ Turli sohalardagi sheriklar uyushmalarining (klaster ichida) ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati asosiy ahamiyatga ega.

➤ Klaster ta'lim tizimiga sarmoya jalb etishda ijobiy rol o'ynaydi va h.k[5].

REFERENCES

1. Kuralov, Y. A. (2021). ELEKTRON RAQAMLI IMZO ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI (RSA, ELGAMAL, DSA). *Academic research in educational sciences*, 2(5), 428-438.
2. Abdullaevich, K. Y. (2020). Development of geometric creativity of secondary school students by computer. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 4572-4576.
3. Boymurodov, A. K. (2020). PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE CLUSTER METHODS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM OF TASHKENT REGION. *Theoretical & Applied Science*, (7), 308-311.
4. Боймурдов, А. Х. (2021 г.). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНООГИЯЛАРИ ВА ИНТЕРФОАЛ МЕТОДЛАР ИНТЕГРАТСИЯСИ. *Академические исследования в области педагогических наук*, 2 (3).
5. Abdulkarimovich, G. N., & Gofurovich, A. Z. (2021). GENERAL CHARACTERISTICS OF SYSTEMS WITH REDUCED OBJECTS. *WEB OF SCIENTEFIC: International scientific research journal*, 2(5), 557561.
6. Allamova, S. S., & Sultanov B. (2021). INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE CONTEXT OF A COMPETENCE APPROACH. *Экономика и социум*, 3(82), 755-759.
7. Boymurodov, A. (2020). INTEGRATION OF GENERAL EDUCATIONAL SCHOOLS AND HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(8), 1-5.
8. Khurramov, A. J., Seytov, A. J., Azimkulov, S. N., Sherbaev, M. R., .Kudaybergenov, A. A., & Khasanova, S. K. (2021). Optimal control of pumping station operation modes by cascades of the Karshi main canal. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 8(4), 17177-17185.
9. Makhmudova, D. M., & Khurramov, A. J. (2021). Improvement of Technique of Designing and Teaching Learning Process in the course “Methods of Teaching Mathematics. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)*, 9(2), 5244-5249.
10. Melievna,, M. D., & Abdullaevich, K. Y. (2020). METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS WITH PROBLEMATIC EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(4), 142-146.

11. Sultanov, R., & Xalmetova, M. (2021). IKKI G'ILDIRAKLI TRANSPORT ROBOTLARI HARAKATINI DASTURLASH. *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 2(2), 108-114.
12. Xurramov, A. J., Boymurodov, A. K., & Xoluqulovich, J. A. (2021). EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND THEIR QUALITY ASSESSMENT. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(12), 162-166.
13. АЗИМКУЛОВ,, С. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ КИЛИШДА ҚУЛЛАНИЛАДИГАН ЎҚИТИШ УСУЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *О'zMU xabarlari*, 54-56.
14. Хуррамов, А. Ж., Махкамова, М. У., & Юсупов, А. И. (2021). ФОРСАЙТ – ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ КЕНГАЙТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 2(4), 694-701.
15. ЮСУПОВ, М., & АБДРУРАИМОВ, Ж. Ф. (2021). ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ НЕЛИНЕЙНЫХ ЗАДАЧ НАСЛЕДСТВЕННОЙ УПРУГОСТИ. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET)* , 10(6), 6004-6010.

ICHAK YALLIG'LANISH KASALLIGIDA MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Qurbonova Dilnoza G'olib qizi
Isaqulov Ulug'bek Alisher o'g'li
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Pediatrica fakulteti 2-kurs talabalari
Qurbonova Latofat Murodullayevna
Normal anatomiya kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Maqolada, tibbiyotdagi ichak yallig'lanishi, enterit haqida morfologik o'zgarishlar, uning sabablari, asoratlari, diagnostikasi, ushbu turdagi yallig'lanishda morfologik o'zgarishlar haqida qisqacha bayonotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yallig'lanish, arteriya, leykosit migratsiya, fagotsitoz, effect, nerv, qizarish, gipertermiya, to'qima sitolizi, alterative yallig'lanish, ekssudativ yallig'lanish, proliferativ yallig'lanish.

Аннотация: В статье даны краткие сведения о воспалении кишечника в медицине, морфологических изменениях при энтерите, его причинах, осложнениях, диагностике, морфологических изменениях при этом виде воспаления.


Ключевые слова: воспаление, артерия, миграция лейкоцитов, фагоцитоз, эффект, нерв, покраснение, гипертермия, цитолиз тканей, альтеративное воспаление, экссудативное воспаление, пролиферативное воспаление.

Annotation: In the article, brief statements about intestinal inflammation in medicine, morphological changes in enteritis, its causes, complications, diagnosis, and morphological changes in this type of inflammation are given.

Keywords: inflammation, artery, leukocyte migration, phagocytosis, effect, nerve, redness, hyperthermia, tissue cytolysis, alterative inflammation, exudative inflammation, proliferative inflammation.

Yallig'lanish — kasallik qo'zg'atuvchi zararli omillar (fiz., kimyoviy, biol.) ta'siriga qarshi organizmning murakkab mahalliy nomaxsus himoya reaksiyasi. Shikastlangan soha yallig'lanish reaksiyasi tufayli organizmning sog'lom to'qimalaridan ajralib qoladi; u joyga qondan immun hujayralar kelib, ular har xil destruktiv effektlarni rivojlantiradi. Arteriyalar va kapillyarlarning qon bilan to'lishi yallig'lanish o'chog'ida qizarish va gipertermiyaga, tomirlar o'tkazuvchanligining oshishi shish va og'riqqa sabab bo'ladi (nerv oxiriga bosim bo'lganligi hisobiga). Leykotsitlar migratsiyasi (birinchi navbatda, neytrofillarning) va ularning faollashishi atrofdagi to'qimalarning sitolizi va yiring hosil bo'lishiga olib keladi. Yallig'lanish

o'choqlari zararli omilni bostiruvchi asosiy mexanizmlarga fagotsitoz, hujayradan tashqari sitoliz, nomaxsus kontaktli killing hamda komplement tizimining sitolitik reaksiyalari hisoblangan gumoral reaksiyalar kiradi. Shu bilan bir vaqtda yallig'lanish mahalliy va umumiy immunitetining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ya. organizmning ilk reaksiyalaridan biri hisoblanib, u organizmni yot jismlardan himoya qilish yoki parchalangan o'z hujayralaridan tozalash kabi vazifalarni bajaradi.



Yallig'lanish. uchta muhim tarkib (komponent)dan: alteratsiya (hujayra va to'qimalarning shikastlanishigacha bo'lgan o'zgarishlari), ekssudatsiya (suyuqlik va qon hujayralarining tomirlaridan chiqishi) va proliferatsiya (hujayralarning ko'payishi va to'qimalarning o'sib ketishi)dan tashkil topgan. yallig'lanish reaksiyalarining har qanday ko'rinishlarida bu uch komponent albatta mavjud bo'ladi. Ulardan qaysi birining ustunligiga ko'ra, yallig'lanishning uchta asosiy — alterativ, ekssudativ va proliferativ shakli farq qilinadi.

Alterativ yallig'lanish ko'pincha ichki a'zolar (yurak, jigar, buyrak)da yuzaga keladi. Yallig'lanish ning bu shakli ba'zi bir allergik reaksiyalar, kuchli toksik (mas, patogen mikroblar ajratadigan ekzotoksin) modsalar ta'sir etganda, autoimmun jarayonlarda vujudga keladi.

Ekssudativ yallig'lanish boshqalariga nisbatan ko'proq uchraydi; yallig'lanish o'chog'ida tomirlarning tavsifi o'zgarishi hisobiga tomir devorining o'tkazuvchanligi oshadi, natijada qonning suyuq qismi va leykotsitlar tomirdan atrofdagi to'qimaga chiqib, yallig'lanish o'chog'ida to'planadi (bu suyuqlik ekssudat deb ataladi). Agar ekssudat deyarli tiniq va tarkibida 8% gacha oqsil bo'lsa, seroz yallig'lanish deb ataladi. Ekssudatda maxsus oqsillar — fibrinogen ko'p bo'lsa, fibrinoz yallig'lanish deyiladi. Yiringli yallig'lanishda ekssudatda juda ko'p miqdorda nobud bo'lgan leykotsitlar va boshqalar bo'ladi.

Proliferativ yallig'lanish hujayra elementlarining ko'payishi, tugunlar hosil bo'lishi bilan ifodalanadi, bu zaxm, sil, toshmal terlama kabi kasalliklarda kuzatiladi.

Yallig'lanish himoya, moslanish reaksiyasi bo'lsada, ma'lum sharoitlarda organizm uchun hayotiy zarur to'qimalarning shikastlanishiga olib keladi. yallig'lanishning oqibatlar har xil, yallig'langan soha butunlay tuzalib ketishi, ba'zan to'qimalarning talaygina qismiga putur yetgan bo'lsa, yallig'langan joy chandiqlanib qolishi ham mumkin. Agar yallig'lanish ichki a'zolarida bo'lsa, qo'shni a'zolari bir-

biriga tutash joylarida bitishma hosil bo'ladi, natijada shikastlangan a'zo funksiyasi o'zgaradi.

Yallig'lanishning har qanday ko'rinishida shifokorga murojaat etish va uning ko'rsatmalariga amal qilish lozim. Yallig'lanishning klinik belgilari: Qizarish (rubor) arterial, keyin esa venoz giperemiya rivojlanishi bilan bog'liq. Mahalliy haroratning oshishi(color) yallig'lanish o'chog'ida katabolik jarayonlar intensivligining oshishi, shuningdek arterial giperemiya tufayli to'qimalarga ko'p miqdorda iliq arterial qon kiradi. Shish (tumor) eksudatsiya mexanizmlariga asoslanadi Og'riq (dolor) yallig'lanish mediatorlari (gistamin, kininlar) tomonidan retseptorlarning tirnash xususiyati, shuningdek eksudatning mexanik bosimi, atsidoz va giperosmiya natijasida yuzaga keladi. Disfunktsiya (functio leasa) hujayraning shikastlanishi va o'limining natijasidir.

Yallig'lanish belgilari.

1. Isitma. U neytrofillar va makrofaqarlar tomonidan leykotsitlar deb ataladigan pirogenlarni (interleykin-1) chiqarishi tufayli rivojlanadi.

2. Leykotsitoz. Piogen mikroblar keltirib chiqaradigan o'tkir yallig'lanishda periferik qonda neytrofillar sonining mutlaq ko'payishi (neytrofiliya) va leykotsitlar formulasining chapga siljishi bilan tavsiflanadi. Bu reaksiya qizil suyak iligi zahiraviy hovuzidan qonga leykotsitlarni chiqarishga (interleykin-1 va o'simta nekrozi omilining ta'siri), shuningdek, koloniyani ogohlantiruvchi omil tasirida (влиянием колониестимулирующего фактора) leykopoezni rag'batlantirishga asoslangan.

3. Qonda "o'tkir fazali yallig'lanish oqsillari" tarkibining ko'payishi.

4. Eritrositlarning cho'kish tezligining oshishi (СОЭ). Bu qon plazmasidagi qo'pol oqsillar (globulinlar, fibrinogen) miqdorining ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida eritrositlarning sirt manfiy zaryadi kamayadi va ular osongina yig'iladi.

5. Intoksikatsiya. Yallig'langan to'qimalardan qonga alteratsiya mahsulotlarining kirib borishi natijasida yuzaga keladi.

Enterit (yun. — ichak) — ingichka ichakning yallig'lanishi. Odatda, enterit yakka holda kechmay, aksari ingichka va yo'g'on ichaklarning baravar yallig'lanishi — enterokolit yoxud ichak va me'daning bir vaqtda yallig'lanishi — gastroenterit ko'rinishida uchraydi. O'tkir va surunkali enterit farqdanadi. O'tkir enterit aksari yoz va kuzda (ko'proq issiq vaqtda) kuzatiladi. Odamda, ovqatdan bo'ladigan toksikoinfeksiyalar (ya'ni buzilib qolgan go'shtli taomlar, chala, xom pishirilgan ovqat, toza yuvmay yeyilgan meva, sabzavot va h.k.), ba'zi kimyoviy moddalar (simob, yod, ayrim sanoat zaharlari), shuningdek, ba'zi doridarmonlardan zaharlanish, ayrim mevachevalarning organizmga allergik ta'siri, badhazm ovqatlarni ko'p yeyish va boshqalar o'tkir enteritga sabab bo'ladi.

Organizmning qizib ketishi yoxud sovuq qotishi, jazirama issiqda muzdek ichimliklar ichish, ichakda gijja bo‘lishi va h.k. ham o‘tkir enterit kelib chiqishiga olib keladi. Enterit, shuningdek, ba’zi yuqumli kasalliklar (ich terlama, paratiflar va boshqalar) oqibatida paydo bo‘lishi mumkin. Ichaklarning yallig‘lanish tarziga ko‘ra, enterit ning bir necha xili (kataralfolikulyar, yiringli, yarali) farq qilinadi. Kataral shakli ko‘p uchraydi. Enteritda ichak shilliq qavati qizarib, shishadi va unga donadona qon quyiladi; ichak devoridan ko‘p shilimshiqajraladi, epitelial qavati ko‘chib tushadi. Enterit da to‘satdan qorin va kindik atrofi sanchib og‘riydi, quldiraydi, tez-tez (sutkasiga 5—10-marta) ich suradi, bemorning ko‘ngli aynib, qayt qiladi. Ba’zan qusuqqa shilimshiq va qon aralashadi, bemor isitmalab, ishtahasi yo‘qoladi, terlaydi, og‘zidan suv keladi. Agar ingichka ichak ko‘proq zararlangan bo‘lsa, kuniga 4—7-marta ich suradi, axlat dastlab quyuyq, ko‘p, qo‘lansa, keyin suyuq, ko‘pirib (ba’zan achimsiq hidli) keladi, ich kelgandan so‘ng og‘riq to‘xtaydi. Kasallik, aksari yo‘g‘on ichakda bo‘lsa vaqtbevaqt yo‘g‘on ichak bo‘ylab og‘riq tutadi, sutkasiga 10—15-marta ich ketadi, axlatda ko‘p shilimshiq, ba’zan qon bo‘ladi. Enteritda ko‘p qusish va ich ketishi tufayli organizm suvsizlanadi (bemorning terisi quruqshaydi, og‘zi qurib, hidlanadi, tili karashlanib, lablari qovjiraydi, qorni dam bo‘ladi va h.k.), yurak faoliyati susayadi, qon bosimi va gavda temperaturasi pasayib, bemorning rangi ketadi, ko‘zlari kirtayadi; og‘irroq hollarda oyoqqo‘llari muzlab, tortishibtortishib turadi. O‘tkir enterit, to‘la va to‘g‘ri davolansa bemor sog‘ayib ketadi. Aks hodda surunkali tus oladi. Surunkali enterit .ning kelib chiqish sabablari o‘tkir enteritnikiga o‘xshash. Shuningdek, bu enterit ba’zan me‘da, o‘t qopi, jigar yoki me‘da osti bezi kasalliklarida ichak devorining zararlanishi yoki ovqatda vitaminlar tanqisligi va boshqalar oqibatida paydo bo‘ladi. Bunda ingichka va yo‘g‘on ichaklar devorining hamma qatlami shikastlanadi; ichak devorining so‘rish va harakat funksiyasi buziladi. Surunkali enterit goh zo‘riqib, goh bosiladi.

Davo bemorning umumiy ahvoli va kasallik belgilariga qarab tayinlanadi. Surunkali enteritni davolashda, asosan, parhez va vaqtida qat’iy rejim bilan ovqatlanish yaxshi foyda beradi. Oshlovchi moddalar tutgan (behi, nok va h.k.) mevalar suvidan ichib turish, kasallik zo‘riqqanda yumshoq taomlar yeyish, vitaminlar qabul qilish tavsiya etiladi. Oldini olish: doim oziq-ovqatlarni yaxshilab pishirib yeyish, to‘g‘ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, pashshalarni qirish va h.k.dan iborat.

Xulosa

Yallig‘lanishning har qanday ko‘rinishida shifokorga murojaat etish va uning ko‘rsatmalariga amal qilish lozim. Yallig‘lanishning klinik belgilari: Qizarish arterial, keyin esa venoz giperemiya rivojlanishi bilan bog‘liq. Mahalliy haroratning oshishi yallig‘lanish o‘chog‘ida katabolik jarayonlar intensivligining oshishi, shuningdek

arterial giperemiya tufayli to'qimalarga ko'p miqdorda iliq arterial qon kiradi. Shish ekssudatsiya mexanizmlariga asoslanadi Og'riq (dolor) yallig'lanish mediatorlari (gistamin, kininlar) tomonidan retseptorlarning tirnash xususiyati, shuningdek ekssudatning mexanik bosimi, atsidoz va giperosmiya natijasida yuzaga keladi. Disfunktsiya hujayraning shikastlanishi va o'limining natijasidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, enterit va ichakning yuqori yallig'lanishida inson o'z sog'lig'iga jiddiy e'tibor berishi lozim, aks holda uning ichaklariga tushgan har zararli bakteriya ham uning o'limiga sabab bo'ladi, ushbu maqolada ichak kasalliklari, uning yallig'lanishi haqida , asoratlari, kelib chiqish sababi, va boshqa ko'plab ma'lumotlar keltirildi. Ma'lumotlardan foydalangan holda, insonlarning o'z sog'liklari haqida qisqacha bilib olish imkoni yaratildi. Avvalo inson ruhi sog'lom bo'lsa uning tanasi ham sog'lom bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I.Martishla li iz modы obщaya praktika»nov, N.A.Muxin, V.S.Moiseev Vnutrennie bolezni, 2004
2. V.V.Ruksin Neotlojnaya kardiologiya, 2001
3. D.Morman, L.Xeller, Fiziologiya serdechno sosudistoy sistemыshla li iz modы obщaya praktika», 2004
4. Elektronnaya meditsinskaya biblioteka: «Spravochnik prakticheskogo vracha»
5. Jeffrey Bender, Kerry Russell, Lynda Rosenfeld, Sabeen Chaudry-Oxford American Handbook of Cardiology, 2011
6. A.Zaza An introduction to cardiac electrophysiology
7. ABC of Interventional Cardiology - Ever D. Grech, 2004
8. Cardiovascular Disease in the Elderly - Wilbert S.Aronow, Jerome L.Fleg,
9. [www.vidal.ru /kardiologiya](http://www.vidal.ru/kardiologiya)
10. [Medlistok.com./infarct.asp](http://Medlistok.com/infarct.asp) 11.[health. mail.ru /disease/infarct/](http://health.mail.ru/disease/infarct/)

JURNALIST O'ZI KIM

Ortiqboyeva Mahbuba Bahodirjon qizi

O'zJoku talabasi 1-kurs

Jurnalist asosiy faoliyati jurnalistika bilan shug'ullanish bo'lgan, muhim faktlar, voqealar, odamlar, hodisalar haqidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash va uni auditoriyaga yetkazish orqali OAVni axborot bilan to'ldiruvchi kasb. Jurnalistlar, asosan, publitsistik faoliyatga yo'nalgan bo'lib, ular o'z oldiga ma'lum ijtimoiy fikrni shakllantirish, shuningdek, davlat hokimiyatining u yoki bu qaror va harakatlariga tahrirlovchi sifatida ta'sir qilish va nashr, radio yoki telekanal ta'sischilari belgilagan chegaralar doirasida jamiyat va davlat o'rtasidagi vositachi bo'lishni maqsad qiladi.

Jurnalist kasbi mashaqqatli va sharaflidir. Jurnalist qismati hamisha xalq hayoti, el-yurt quvonchi va tashvishlari, umid va orzu intilishlari bilan bog'liq. Bu kasb egalarining chegara bilmas mashaqqatlari mavjuddir. Ertalabdan-kechgacha tinim bilmay izlanishda yuradilar. O'zlarining shaxsiy muammolari haqida ish vaqtida unutadilar. Har bir voqea-hodisaga ham kuzatuvchi, tomoshabin ko'zida, ham jurnalist nigohida yuzlanadilar. Imkon qadar xolis, aniq va tezkorlik tamoyillariga amal qiladilar.

JURNALISTIKA TARIXI VA TARAQQIYOTI

Ortiqboyeva Mahbuba Bahodirjon qizi

Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri. O'zJoku talabasi 1-kurs

Hozirgi davrga qadar jurnalistika bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Shuningdek, bir necha muhim davrlar davomida dolzarb masala bo'ib kelgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib jurnalistika ta'limida ikki xil-an'anaviy- ya'ni gazetalarda ustoz-shogirtlik an'analariga hamda universitet ta'limiga asoslangan ta'lim va tizimlar mavjud edi. Borgan sari jurnalistlarga boshlang'ich ta'lim berish jurnalistikaning eng muhim g'oyalaridan biri bo'lib qoldi. Shuning uchun jurnalistlar maktablari ochila boshlagan. Bu o'quv dargohlarida o'tiladigan tarix, sotsiologiya, huquq va shu kabi darsliklar vositasida bilimlar yana ham mustahkamlandi. Aloqa media darslar shuningdek, korporativ hamkorlik asnosida amalga tadbiiq qilindi. Bu narsa hozirgacha amalga oshiradigan narsalarni kelajakda istiqboli borligini va shunga o'xshash qoidalar jamiyatdan qanday dalil yoki yondashish bo'lib xizmat qila olishini tahmin qilib berishink anglatadi.

Jurnalistika bora -bora tevarak atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalarni bir-biridan ajratib tasvirladi va uning asnosida hodisalar turli xil mazmun kasb etadigan hodisalarga bo'linib ketdi. Natijada jurnalistila ta'limni amalga oshiruvchilar orasida baxs bo'lishiga sabab bo'lgan. O'quv darsliklaridagi gumanitar jurnalistika aniq fanlardan ajratildi va akademik yo'l bo'yicha ta'lim olib boriladigan bo'ldi. Ammo bu tajriba kutilgandek natija bermadi. Mutaxassis kadrlar yetishib chiqishida nuqsonlar paydo bo'la boshladi. Masalan, efirga uzatiladigan xabarlarni qisqa,lo'nda, aniq bo'lgani maqsadga muvofiq, biroq mutaxassislar barcha ma'lumotlarni u xoh xabar xoh tezis yoxud maqola bo'lsin bir ko'rinishida efirga chiqarib yubprishgan. Natijada ortiqcha ma'lumotlar bazasi shakllanib qolgan. Shu sababdan jurnalistlarning malakasini oshirish hisobiga jurnalistikaning sifatini oshirish maqsad qilingan. Bu jamiyat tomonidan baholanadigan usullardan bir bo'lib, jurnalistikaning rivojlanishiga sabab bo'ldi va shu tariqa jurnalistika sohasi sekin-sekin rivojlana boshladi va hozir ham rivojlanishdan to'tagani yo'q.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ВЛИЯНИЕ ПРОЛАКТИНА НА МЕНСТРУАЛЬНЫЙ ЦИКЛ	3
2	«МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI»	5
3	THE BENEFIT OF ONLINE LEARNING	10
4	IMPROVING ENGLISH PRONUNCIATION BY IMITATING NATIVE SPEAKERS	13
5	ORGANIZATIONAL - EDUCATIONAL GAMES	16
6	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI TARMOQLARIDA INNOVATSIYANING MOHIYATI, ROLI VA AHAMIYATI	19
7	TRANSPORT SOHASI BOSHQARUVIDA RAQAMLI VA AQLLI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI XUSUSIDA	24
8	ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA OQILONA OVQATLANISHNING O’RNI	28
9	LINGVOPOETIKA VA UNING BADIY MATNLAR TAXLILIDAGI ASOSIY VAZIFASI	32
10	МУАММОЛИ ТА’ЛИМ ВОСИТАЛАРИДА БОШЛАНГИЧ СИМФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	35
11	O’ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH YO’LIDA BUGUNGI KUNIDA OLIV BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR	40
12	KEKSA YOSHDAGI BEMORLARDA EPILEPSIYANING KLINIKO NEYROFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI	47
13	THE BENEFIT OF ONLINE LEARNING	50
14	INNOVATION-ORIENTED WAY OF DEVELOPMENT OF A MODERN UNIVERSITY	53
15	ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ	60
16	TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISHNING HORIJI TAJIRIBASI	66
17	GIPERGLIKEMIK KOMA	75
18	АБУ МАНСУР САОЛИБИЙНИНГ “АТ-ТАМСИЛ ВА-Л-МУҲОЗАРА” АСАРИ МУҲИМ БАДИИЙ МАНБА	79
19	ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DAVRIDA FARG’ONA DAVLATINING IJTIMOIIY, IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTI	84
20	SENTENCE-LEVEL EVENT CLASSIFICATION IN UNSTRUCTURED CONTEXTS	88

21	THE IMPORTANCE OF USING INSTRUCTIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING PROCESS	91
22	CHARACTERISTICS OF STREAM OF CONSCIOUSNESS IN THE MODERN ENGLISH NOVELS	95
23	KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATIDA USLUBIY ISHLAR	99
24	SIGIRLARNING SUTI VA OG'IZ SUTI TARKIBI, HAMDA UNING FOYDALI VA ZARARLI TOMONLARI	102
25	ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И РОЛЬ В НЕЙ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	106
26	JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISH JARAYONINING RESPUBLIKAMIZ XALQI TURMUSH DARAJASINING YAXSHILANISHIDAGI AHAMIYATI	111
27	O'ZBEKISTON QANDSIZ DIABET KASALLIGINI TASHXISLASH DAVOLASH VA PROFILAKTIKA CHORA TADBIRLARNI O'TKAZISH	116
28	YO'L TRANSPORT HODISALARIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLARNI KAMAYTIRISH BO'YICHA CHORA TADBIRLAR ISHLAB CHIQRISH YO'NALISHLARI	122
29	INTERMITTENTLY SCANNED CONTINUOUS GLUCOSE MONITORING FOR TYPE 1 DIABETES	126
30	COMPARATIVE ANALYSIS OF THE VERBS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES	130
31	HUDUDDA ERKIN RAQOBAT MUHITNI SHAKLLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH	134
32	TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI	141
33	БОЛАЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИ КАМАЙТИРИШДА ТАРҒИБОТ-ТАШВИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ЎРНИ	144
34	HAYDOVCHILARNI TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH	148
35	ШАҲАР ЖАМОАТ ТРАНСПОРТИДА ЙЎЛОВЧИЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	154
36	BOLALARNI MAKTABGA AQLIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK TOMONLARI	158
37	MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK O'YINLARNING SHAKLLARI VA AMALGA OSHIRISH METODLARI	162
38	MAKTABGACHA TA'LIM DIDAKTIKASI	165
39	MAKTABGACHA TA'LIM DASTURIDA PEDOGOGIK ILMIY TADQIQOT METODLAR	169
40	METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH	172
41	IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA KLASSIK RAQSNI O'QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	179

42	METHODS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PROBLEM SOLVING SKILLS IN ADOLESCENT PSYCHOLOGY	183
43	KON-METALLURGIYA SANOATI KORXONLARIDA EKOLOGIK MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH	186
44	IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONI RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI VA SHART-SHAROITLARI	191
45	XORIJIY MAYDONDA O'Z O'RNIGA EGA AYOL JURNALIST	196
46	YASMIQNING INSON ORGANIZMIDAGI OZUQAVIY QIYMATI	197
47	SHAKAR O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR	203
48	FARMASEFTIKADA ALOE SUVI ISHTIROKIDA HOZIRDA YANGI PREPARATLAR ISHLAB CHIQRISH	208
49	ASAL VA ASALNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI	211
50	OZIQ -OVQAT MAHSULOTLARI TARKIBIDAGI MINERAL MODDALAR	221
51	KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPENENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	229
52	ICHAK YALLIG'LANISH KASALLIGIDA MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR	236
53	JURNALIST O'ZI KIM	241
54	JURNALISTIKA TARIXI VA TARAQQIYOTI	242



**JOURNAL OF
NEW CENTRY
INNOVATIONS**

IN ALL AREAS

